

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Kattayeva Mukarram**

5A 220101- Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti)

**Hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi vositalar va ularni tarjima qilish  
muammolari**

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI**

Namangan - 2012

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
BIRINCHI BOB. HISSIY-EKSPRESSIVLIKNI IFODALOVCHI LEKSIK VA LISONIY BIRLIKLAR, ULARNI TARJIMADA AKS ETTIRISH MASALASI.....	9
1.1. Turli tillarda soʻzlashuvchi xalqlar tarixiy taraqqiyotida tarjimaning tutgan oʻrni .....	9
1.2. Hissiy-ekspressivlikni tasvirlovchi lisoniy birliklar va ularning tarjimasi .....	17
1.3. Hissiy-ekspressivlikni ifodalashda leksik birliklar va tarjimaviy talqini .....	26
IKKINCHI BOB. MUALLAIF USLUBI, OBRAZLILIK VA TAʼSIRCHANLILIKNI TARJIMADA BERILISHI.....	36
2.1. Tarjimada uslubiy tilni his etish koʻnikmalari .....	36
2.2. Hissiy-ekspressiv vositalarni erkin maʼnodagi leksik birlik sifatida yuzaga kelishi va tarjimada aks ettirish masalasi .....	41
2.3. Tarjima tilida obrazlilik va taʼsirchanlilikni ifodalanishi .....	44
UCHINCHI BOB. ASAR TAʼSIRCHANLIGINI IFODALASHDA HIZMAT QILUVCHI USULLAR, VOSITALAR HAMDA BIRLIKLARNI TARJIMASI MASALASIDA .....	48
3.1. Hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi usul va vositalar, ularni tarjimasi hususida .....	48
3.2. Ijtimoiy-siyosiy asarlar kinoya va uni tarjimada aks ettirish masalasi.....	59
3.3. Hissiy-ekspressivlikni hosil qilishda frazeologik birliklarni oʻrni va ularni tarjimada berilishi.....	69
SUMMARY.....	78
XULOSA.....	78
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI.....	81

## KIRISH

Oʻzbekistonda uzluksiz taʼlim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijalari, erishilgan yutuqlar, yuksak salohiyatli avlodni tayyorlashda davlatning rolini xalqaro jamoatchilikka keng maʼlum qilish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 2012 yil 16—17 fevral kunlari “Bilimli va aql-zakovatli avlodni tayyorlash—mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzusidagi xalqaro Konferentsiya oʻtkazildi.

Konferentsiya doirasida qatnashchilar umumtaʼlim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy taʼlim muassasalari faoliyati bilan tanishdilar, shu bilan birga, taʼlim sohasidagi islohotlar va islohot natijalarini taʼlim sohasiga tadbiiq etishga bagʻishlangan koʻrgazmani borib koʻrdilar. Konferentsiya ishtirokchilarini Oʻzbekistonning boy tarixi, sanʼati va madaniy yodgorliklari bilan tanishtirish maqsadida qadimiy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro va Xivaga tashrifi rejalashtirilgan.

Konferentsiya ochilishida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etib, nutq soʻzladi.

Forum olti shoʻbada ish olib bordi.

1. Maktab taʼlimi – intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash asosi.
2. Kasbiy taʼlim va hozirgi mehnat bozorini shakllantirish.
3. Oliy taʼlimni rivojlantirish ustivorliklari va mamlakatni modernizatsiyalashda uning roli.
4. Taʼlim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.
5. Taʼlim va fan – uzluksiz aloqa.

## 6. Ta'lim va madaniy taraqqiyoti.

Mazkur konferentsiya O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlarining amalga tadbiriq qilinishi, O'zbekistondagi uzluksiz ta'lim tizimida shakllangan yo'nalishlarni aniqlash va yaqin kelajakda hal qilinishi zarur bo'lgan masalalarni belgilash, ta'lim shakli va mazmunini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha hamda shu sohadagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasida o'zaro tajriba almashish va kelishilgan tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini berdi.

Anjuman qatnashchilari hozirgi paytda O'zbekiston va dunyodagi ta'lim rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini alohida ta'kidlab o'tdilar, iqtisod va ijtimoiy sohalarni modernizatsiyalashda, barqaror rivojlanishni ta'minlashda, jamiyatning madaniy va ma'naviy yangilanishida hamda yangi ijtimoiy ong shakllanishida ta'limning roli oshib borayotganligini va uning muhim vazifalarini qayd etib o'tishdi.

Hozirgi paytda ta'lim barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishning asosiy omili va zarur sharti, bugungi jamiyatning asosiy sarmoyasi va muhim qadriyati hisoblanadi. Izlanuvchan, mustaqil ijodiy fikrlashga, yangi bilimlarni o'zlashtirishga, ijtimoiy-kasbiy faoliyat va ijodga layoqatli shaxs ta'limning ustivor harakatlantiruvchi kuchidir.

Faqat iqtisodiy o'sish va texnika qudratining yuksalish orqali insoniyatning bundan keyin rivoj topishi xavfli hamda cheklanishlarni keltirib chiqarishi muqarrar ekanligi hozirgi kunda e'tirof etilmoqda. Davlatlar va jahon hamjamiyatining kelajakdagi taraqqiyoti insonning madaniyati, bilim darajasi, kasb mahorati va nihoyat, tafakkuri bilan belgilanadi degan qat'iy ishonch yuzaga kelgan. Bu shuni tasdiqlaydiki, tsivilizatsiyaning inqirozini bartaraf qilishda, insoniyatning o'tkir global muammolari yechimini topishda ta'lim muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston hukumati o'tish davrida miqdoriy marralarga erishish masalasini birlamchi o'ringa qo'ymadi. Aksincha, milliy manfaatlar va jamiyat hamda har bir shaxs ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi, zamonaviy talablarga javob beradigan iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi muhit yaratishni maqsad qilib qo'ydi. Mazkur talablar ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi qonunlar hamda islohotlarda o'z aksini topdi. Ularda yangi yuksakliklardan turib ma'naviyat, Vatanga muhabbat, xalq uchun qayg'urish kabi qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilishi ko'zda tutilgan edi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng ma'naviyat va ahloqiylikni qayta tiklashga e'tibor qilinmoqda. Chunki: birinchidan, Prezidentimiz Islom Abduq'anievich Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining o'z yo'nalishlari, shart-sharoitlarini asoslab berdi. Eng muhimi, insonparvar huquqiy-demokratik davlatni barpo etishning muhim shartlari belgilab berildi. Yangi jamiyat barpo etishda aholining milliy tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, halq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqish zarurligi ko'rsatib berildi. Ma'naviyatimizni tiklash va uni rivojlantirish - yangi demokratik jamiyat qurishning muhim qonunidir. Ikkinchidan, Prezidentimizning "O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li"<sup>1</sup>, "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" nomli risolalarida ma'naviyatning o'z mohiyati bilan kelajak poydevori ekanligi atroflicha asoslab berildi. Mana shunday dasturlar asosida yosh mustaqil O'zbekistonimiz o'z kelajagi tomon rivojlanib bormoqda.

**Mavzuning dolzarbligi.** Yosh mustaqil respublikamiz jahonga yuz tutayotgan bir paytda ilm-fan sohasidagi yutuqlar ham quvonarli bir holdir. Bu borada badiiy, siyosiy-publististik asarlar o'zbek tilidan horijiy tillarga yoki uning aksi o'laroq, horijiy tillardan o'zbek tiliga ko'plab tarjima ishlari amalga oshirilmogda. Tarjima jarayoni insonning yangi bilish doirasini zabt etib, u olimlarimizni faqatgina badiiy tarjima bilan shug'ullanib qolmasdan, balki ilmiy, texnik, ommaviy ahborot, turli hil og'zaki tarjimalar, shuningdek o'quv-uslubiy ishlarni ham tarjima qilishga da'vat etmogda.

---

<sup>1</sup> Karimov I. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent, 2010,

Ushbu magistrlik ishimizda biz uchun tarjima ob'ekti qilib tarjima asaridagi hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi vositalar, jumladan, frazeologik birliklar, idiomalar, maqol va matallar hususiyati, ularni tarjima qilish jarayonining o'ziga hos muammolari haqida fikr yuritilgan.

Ma'lumki, tarjima asari yoki matnini bir tildan ikkinchi tilga o'girishda o'ziga hos muammolar mavjud. Muallif asosiy e'tiborni idiomalarning semantik hususiyatiga qaratib, ushbu birliklarni tarjima qilishda tilning ijtimoiy, tarihiy va madaniy lingvistik belgilarini bilish lozimdir.

Tadqiqotimiz mavzusi "Hissiy-ekspressivlini ifodalovchi vositalar va ularni tarjima qilish muammolari" deb nomlanib, ushbu ilmiy ishni olib borish jarayonida ko'plab o'zbek va horijiy adabiyotlardan, internet ma'lumotlaridan va terminologik lug'atlardan keng foydalanildi.

Fanda voqelikning o'quvchiga obrazli, estetik jihatdan ta'sir etuvchi uslub badiiy uslub deyiladi. Bu uslubda hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi holatlar ko'p uchraydi. Shu bilan bir qatorda, ommabop (publicistik) uslubda ham bunday til birliklaridan samarali foydalaniladi. Ommabop uslub aslida tashviqot-targ'ibot ishlarini olib borishda qo'llaniladi. Soddalik, tushunarlilik, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlariga rioya qilish ommabop uslubning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Unda ijtimoiy-siyosiy so'zlar va so'z birikmalaridan faol foydalaniladi. Bundan tashqari, nutq ta'sirchan bo'lishi uchun shunga xizmat qiladigan so'z va birikmalar, maqol, matal va hikmatli so'zlar ham ko'p ishlatiladi.

Magistrlik ishimiz fanda o'quvchiga obrazli, estetik jihatdan ta'sir etuvchi vositalarni qo'llanishi va ularni tarjima tilida ana shunday tarzda aks ettirish masalasi ustida kichik bir ilmiy izlanish yaratishni tadqiqotimizning asosiy bosh maqsadi qilib oldik. Bu holat disstertatsiyamiz mavzuining dolzarbligini belgilayda.

**Tadqiqot yangiligi** sifatida shuni e'tirof etishimiz mumkinki, tildagi ta'sirchanlikni, hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi vositalarni tarjima tilida qanday eks ettirish yo'llarini tarjima tamoyillari asosida nazariy jihatdan tahlil etdik.

**Tadqiqot maqsadi.** Tadqiqot ishimizda tarjimachilik tarihi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish, badiiy adabiyotda hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi vositalarni o'rganish ularni tarjimasi masalasini ko'rib chiqish, tarjima tamoyillarini aniqlash haqida nazariy hulosalar chiqarishni asosiy maqsad qilib qo'yganmiz.

**Tadqiqot vazifalari.** Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- O'zbekistonda badiiy hamda ijtimoiy siyosiy asarlar tarjimalari tarihi hamda hususiyatlarini ko'rsatish;
- Badiiy asarlar tarjimasida hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi vositalarni qo'llanishi ahamiyati va tarjimada aks ettirish zaruratini misollar yordamida isbotlash;
- Hissiy-ekspresivlikni ifodalovchi vositalarni nafaqat badiiy asarlarda, balki ijtimoiy-siyosiy asarlarda ham qo'llanilishi muhimligini dallillash;

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** Mazkur tadqiqotga badiiy adabiyotlarda qo'llanilgan milliy oziga hosliklarni ifodalovchi bir qator asarlar, G'. Salomovning "Tarjima nazariyasi asoslari", "Tarjima nazariyasiga kirish" kitoblari hamda internet yangiliklari hisoblanadi. Bundan tashqari mustaqillik davrida ijtimoiy-siyosiy sohada yaratilgan asarlar, hususan, Prezident Islom Karimov qalamiga mansub O'zbekiston XXI asr bo'shaqasida: havfsizlikka taqdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asarining Buyuk Britaniyada nashr qilingan inglizcha tarjimasi, uning O'zbekistonda V. Pogorel'skiy tomonidan o'girilgan inglizcha va ruscha nashri asosiy manba qilib olindi. Amalga oshirilgan tarjimalarni asliyat bilan chog'ishtirish jarayonida bir qator o'zbek tarjimashunos olimlarining monografiya, maqola va ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanildi.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqotni yozish jarayonida qiyosiy-tipologik va jamlangan dalillarni tahlil qilishda qiyoslash, tasniflash metodlaridan foydalanildi.

**Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:**

1. Badiiy asarlar tarjimasini tarihi bir muncha to'laroq va kengroq yoritilishi.
2. Badiiy hamda ijtimoiy siyosiy asarlarda hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi vositalarni qo'llanishi muhimligi va ularni tarjimasini hususiyatlari, yutuq va kamchiliklar bilan bog'liq muammolar;
3. Hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi birliklarni asliyatdan tarjima qilish afzalliklari ko'rsatildi va misollar bilan tahlil qilindi.
4. Badiiy asarlar tarjimasida muallif uslubini aks ettirishning ahamiyati ko'rsatilib, uni saqlab qolish g'oyasi olg'a surildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy aqamiyati.** Tadqiqot natijalaridan badiiy asarlarni tillarga, jumladan, ingliz tiliga tarjima qilishga oid darslik va qo'llanmalar yaratishda, bakalavr hamda magistrlik uchun mahsus kurs va seminarlar tashkil etishda, amaliy mashg'ulotlarni olib borishda, BMI hamda magistrlik dissertatsiyalari yozishda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida tarjima nazariyasiga oid fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlari olib borishda hamda ma'ruza matnlari tayyorlashda, shu sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

**Natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot natijalari Namangan davlat universiteti filologiya fakul'tetida tarjima nazariyasi va amaliyoti fanini o'qitish jarayoniga tatbiq etildi. Talabalar hamda magistrlik uchun mahsus kurs va seminarlar tashkil etishda, amaliy mashg'ulotlarni olib borishda, BMI hamda magistrlik dissertatsiyalari yozishda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida tarjima nazariyasiga oid fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlari olib borishda hamda ma'ruza matnlari tayyorlashda, shu sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

**Natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni bo'yicha Respublika va mahalliy nashrlarda bir qator ilmiy maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Ish kirish, uch bob, to'qqizta fasl, hulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Ishning umumiy hajmi sahifani tashkil qiladi.

## **BIRINCHI BOB.**

### **HISSIY-EKSPRESSIVLIKNI IFODALOVCHI LEKSIK VA LISONIY BIRLIKLAR VA ULARNI TARJIMADA AKS ETTIRISH MASALASI**

1.1. Turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar tarixiy taraqqiyotida tarjimaning tutgan o'rni

O'zbekistonda tarjimashunoslik fani jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan ekan, bizda uning yaratilishi, katta istiqbol sari borishi uchun zarur adabiy-tarixiy an'ana, lisoniy-uslubiy zamin, material, sharoit mavjud. O'lkamizda tarjima nazariyasi bo'sh-taqir yerda emas, balki, ko'p asrlik tarjima amaliyoti qaror topib, madaniy tomirda jo'sh urgan shijoat, turli tarjima maktablari to'plagan boy, rang-barang tajribalar asosida tug'ildi.

Tarjima nazariyasi va amaliyotining fan sifatida qaror topishi va tarqqiyoti ildizlari o'zoq tarixiy zamonlarga borib taqaladi. A.Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" asari ajoyib lingvistik asar bo'lib turk (qadimgi o'zbek) tilining xususiyatlari, uning rang-barang tasviriy vositalari, potentsial imkoniyatlari haqida boy faktik dalillar, ma'lumotlar keltirilgan, tilimizning boy lug'aviy va uslubiy quvvati azamat adabiy til hisoblanmish zaboni forsiy bilan qiyosiy planda isbotlangan ekan, bo'lar hammasi, shubxasiz, tarjima ilmi uchun ham nazariy baza edi. "Hamsa"da til bilan tafakko'ning o'zaro o'zviy birligi, mazmun bilan shaklning

chambarchas bog`liqligi haqidagi fikrlar tarjima dialektikasining poydevorini yaratishga xizmat qiladi. Xullas, tarjimashunoslikda shu qadar boy, mazmunli, tajribaga nisbatan gapirganda ham, tarjimashunoslik xususida qaror topa boshlagan, faqat shakllanib yetmagan fan sifatida gapirishimizga to`la asoslar bor. Jumaniyoz Sharipovning “Ozbekistonda tarjima tarixidan” yozgan doktorlik ishidan tashqari (1968) Hamid Hamidov Firdavsiyning “Shohnoma”si (1967 yil), Vahob Rahmonov Sa`diy Sheroziyning “Guliston” dostonlarining o`zbekcha tarjimalari (1968), O`ktam Nurmatovning “Shiller asarlari o`zbek tilida” nomli nomzodlik ishi (1986), Nematilla Otajonovning “Boburnoma” asarining inglizcha tarjimalari” yuzasidan yozgan doktorlik ishi (1995), Akmal Abdullajonovning Navoiy asarlarining nemischa tarjimalari(1998), Muhayyo Eshonovanning Umar Hayyom ruboiylarining inglizcha tarjimalari yo`zasidan yozgan nomzodlik ishlarida yirik tadqiqotlar yaratdilar. Najmiddin Komilov buyuk o`zbek shoiri, zabardast tarjimon Muhammadrizo Ogahiyning badiiy mahorati haqida dissertatsiya yozdi. (1970) Anvar Hojtaxmedov esa XX asrning boshlarida rus klassik adabiyotidan qilingan ilk tarjimalar va ularning o`zbek adabiyotiga ta`siri haqida asar yozdi. (1963). Munira Karimova “Kalila va Dimna” tarjimalari yo`zasidan to`plangan adabiy-badiiy saboqlarni umumlashtirdi. (1978).

Mavjud tarixiy tajriba asosida yaratilgan bu ilmiy ishlar o`sha aytilmagan, lekin amalda asoslangan muayyan nazariy qarashlarni ro`yobga chiqardi; nomlanmagan , lekin amalda qaror topgan-tadbiq qilingan nazariy printsiplarni tadbiq etdi; sharxlanmagan lekin amalda qo`llanilgan nazariy e`tiqodni asoslab berdi.

Hozir, asosan, tarixiy-ilmiy ahamiyatga ega bo`lib qolgan katta tarjima adabiyotini yaratgan adiblar nazariya sohasia hamma narsani faqt jumboq holda qoldirib ketganlar, hisoblash umuman to`g`ri emas. Ba`zan ular tarjima qilinayotgan, muallif va uning ijodiga munosabat bildirganlar, tarjima qilish yo`l-yo`riqlari haqida fikr bayon qilganlar, baxslashganlar, asl nusxaning barcha badiiy-estetik xususiyatlarinin kitobxonga mukammal yetkazish uchun o`z tarjimalariga muqaddima, sharxlar yozganlar. Masalan, Mulla Murodxo`ja Shayx Sa`diyning “Guliston” asarini o`zbek tilida nashr qilgan ekan, kitob hoshiyasida tushunilishi qiyin bo`lgan arabcha va forscha so`z va tarkiblarga izox beradi. Murodxo`ja “Sababi tarjimai”, “Guliston” degan muqaddima yozib, unda Sa`diyning hayotini yoritishdan tashqari bu asarni tarjima qilish xususiyatlarini ham bayon etadi. Shunisi diqqatga sazovorki, kitobning oxirida zamonasining ilg`or kishilari - shoir Said Ahmad Vasliy Samarqandiy, domla Abduqodir Qoshg`ariy, domla Tursun Muhammad A`zam Sultoniy, mavlono Yusuf Ahmad Sayramiy, mavlono Kamiy, Sidqiy Hondayliqiylar “Guliston”ning Murodxo`ja tarjimasida tarix va soqionoma bag`ishlaganlar.

Tarjima tarixi juda qadim zamonlardan boshlangan. Turli tillarda so`zlashuvchi xalqlar vaqillari bir-birlari bilan muomala-munosabatda bo`lganlarida azaldan tarjimon (tilmoch) yordamiga ehtiyoj sezganlar. Savdo-sotik ishlari, diplomatik munosabatlar va madaniy-ma`rifiy aloqalar paytida hamma vakt Tarjimaga zarurat tug`ilgan. Shu bois xalqlar tarjimonlarga chuqur hurmat bilan qaraganlar.

XX asr boshidan e`tiboran turli sohalar buyicha G`arbiy Ovrupo tillarida yaratilgan asarlarning o`zbekchaga ko`plab o`girila boshlagani va bu jarayonning keyingi yarim asrdan ko`proq davr mobaynida yanada jadallashib ketgani yurtimiz ilmiy-texnikaviy salohiyatining kamol topishi va boshqa xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalarining kengayishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Bizning e`tiborimizni xalqiga ko`prok tortayotgan mamlakatlar qalam ahllari, chunonchi, Garbiy Ovrupo mamlakatlari adabiyotining ajralmas bo`lagi hisoblanmish Angliya adabiyoti va inglizzabon ijodkorlar sanalmish Amerika adabiyoti vaqillari asarlarining o`zbek tiliga Tarjimalari haqida gap ketadigan bo`lsa, shuni alohida qayd etish lozimki, bunday tarjima asarlari o`zbek kitobhonlari e`tiborini darhol xalqiga tortdi va tez orada ularning ko`pchiligi xalqimizning sevimli asarlariga aylanib, kitob javonlaridan o`rin oldi.

Ingliz tilida qalam tebratgan yozuvchilar ijodidan amalga oshirilgan tarjimalar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, XIX asr oxiri va XX asr boshida A. Konan Doylning "Sherlok

Holms haqidagi hikoyalar" va Daniel Defoning "Robinzon Kruzo" asarlarining o'zbekchaga o'girilganligiga guvoh bo'lamiz. Asarlar kiskartirilgan shaklda yarim hikoya tarzida tarjima qilingan. Masalan, 1891 yilda nashr qilingan "Mashhur ingliz Rubinzuning hikoyasi" 400 betlik ruscha nashridan 77 sahifada qisqartirib amalga oshirilgan ozarbayjoncha tarjimaning Muhammad Fozilbek o'g'li tomonidan yanada qisqartirib, 48 sahifada amalga oshirilgan o'zbekcha nusxasi edi.

Mazkur asarlar tarjimalari hozirgi davr talabi darajasidan past bo'lsa-da, asrimiz boshida o'zbek madaniyatida ro'y bergan katta voqe'a-ingliz xalqi badiiy yodgorliklarini o'zbek tiliga o'girish borasida qo'yilgan ilk qadam sifatida adabiyotimiz tarixida alohida ahamiyatga molikdir.

30-yillarning birinchi yarmidan e'tiboran o'zbek kitobxonlari inglizabon mualliflar asarlari bilan yaqindan tanisha boshladilar. Bu davrda tarjimonlar e'tiborini buyuk ingliz dramaturgi V. Shekspir ijodi ko'proq tortdi. Dramaturgning nazmda bitilgan "Veronalik ikki yigit" komediyasini 1930 yilda Javod Obidov va "Hamlet" tragediyasini 1934 yilda shoir Cho'lpon (P.A.Kanshinning 1893 yildagi nasriy tarjimasidan) nasriy yo'l bilan o'zbek tiliga tarjima qilishdi.

"Hamlet" tragediyasi tarjimasini ko'pgina jiddiy hato va kamchiliklarga ega bo'lishiga qaramasdan, o'zbek kitobxonlarining eng sevimli asarlaridan biriga aylandi va Hamza teatri repertuaridan mustahkam o'rin egalladi.

Shu yillarda buyuk ingliz shoiri Bayronning "Vido" nomli she'riy to'plami hamda Lengston H'yuzning va Amerika shoirlarining qator she'rlari Sanjar Siddiq tarjimasida bosmadan chiqdi.

Keyingi o'n yilliklarda o'zbek kitobxonlari jahon adabiyotining bir talay yirik namoyandalari asarlarini ona tilida mutolaa qila boshladilar. Abdulla Oripov Dantening "Ilohiy komediya"sini, Erkin Vohidov Gyotening "Faust"ini, Qodir Mirmuhamedov Gomerning "Odissiya", Jovanni Bokkachoning "Dekameron"ini, Mirtemir qirgiz eposi "Manas"ni, Muhammad Ali hind xalqining "Ramayana" eposini, shuningdek, yana ko'pchilik yozuvchi va shoir tarjimonlar Viktor Gyugo, Onore de Bal'zak, Aleksandr Dyuma, Fridrih Shiller, Iogann Volfgang Gyote, Roman Rollan asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, xalq e'zoziga sazovor bo'ldilar.

1964 yildan e'tiboran Shekspir sonetlari M. Shayhzoda, Yusuf Shomansur, Shunqor, Zohidjon Obidovlar tomonlaridan o'zbekchaga o'girila boshladi. Keyinchalik Shekspir qalamiga mansub 154 sonetning hammasi shoir Yusuf Shomansur tomonidan o'girilib, 1978 yilda alohida kitob tarzida bosib chikarildi.

1971 yilda Shotlandiya shoiri Robert Bernsning "Qo'shiq va balladalar" kitobi Muhammad Ali tarjimasida nashr etildi. 1974 yilda Bayronning she'r va balladlari M. Shayhzoda, Jumaniyoz Jabborov, Muhammad Ali, Rauf Parfii va Shukrullolar Tarjimalarida kitob shaklida chop etildi.

1980-90 yillarda Longfelloning "Hayavata haqida qo'shiq" she'riy asari, Shekspirning "Makbet" fojeasi (Sa'dulla Ahmad tarjimasini), Kristofor Marlning "Sohibqiron Temur" fojiasi (Ma'ruf Jalil tarjimasini) o'zbekchaga o'girildi.

1988 yilda buyuk ingliz shoiri Jorj Bayron tug'ilganiga 200 yil tulishi munosabati bilan qator gazeta va jurnallar sahifalarida shoirning "Don Juan" dostonidan Abdulla Sher asliyatdan bevosita o'giran parchalar bosildi.

Inglizabon mualliflar ijodidan amalga oshirilgan tarjimalar soni yil sayin osha bordi. V.Sheksperning "Hamlet" tragediyasi o'zbekchaga 1938 yilda Vohid Zohidov tomonidan ikkinchi bor o'girildi. 1946 yilda V.Sheksperning "Romeo va Jul'etta" tragediyasini o'zbek tiliga agdargan M.Shayhzoda 1948 yilda "Hamlet" trjimasiga uchinchi bo'lib qo'l urdi. Asliyatga monand qilib B.Pasternakning ruscha trjimasidan she'riy tarzda amalga oshirilgan bu Tarjima Chulpon va V.Zohidov Tarjimalaridan har jihatdan mukammal edi. 1960 yilda M.Shayhzoda Shekspirning o'zbek tiliga o'girilgan dramatik asarlari to'plami nashr etilishi munosabati bilan xalq Tarjimasini kayta ko'rib chikib, unga jiddiy txalqatishlar kiritdi. Pirovardida o'zbek

kitobhoni tomoshabini "Hamlet"ning ancha mukammal, shaklan va mazmunan asliyatga monand tarjimasiga ega bo'ldi.

Keyinchalik V. Shekspirning boshqa qator dramatik asarlari ham o'zbek tiliga ketma-ket tarjima qilina boshladi. "Otello" (1940), "Qirol Lir" (1956) G. G'ulom tarjimasida, "Yuliy Cezar" (1958), "Veronalik ikki yigit" (1973) Uyg'un tarjimasida (qayta o'girma), "Qiyiq qizning quyilishi" (1965) Turob To'la, "O'n ikkinchi kecha va turfa hangomalar" (1966) H. G'ulom tarjimalarida o'zbek kitobxonlariga hadya etildi.

G'arbiy Evropa yozuvchilari ijodiga mansub nasriy asarlarni tarjima qilishga Vatanimizda 30-yillardayoq jiddiy e'tibor bera boshlagan edi. Bu jarayon keyingi o'n yilliklar mobaynida ancha jadallashib ketdi.

O'tgan davr mobaynida jahon adabiyoti durdonalari bilan kitobhonlarni kengroq miqyosda tanishtirish mas'uliyati yurtimizning ko'pgina yozuvchilarini tarjima amaliyoti bilan jiddiyroq shug'ullanishga da'vat etdi. Amalga oshirilgan tarjimalar miqdori yil sayin ortib borishi bilan bir qatorda ularning sifati ham yaxshilana bordi. Xuddi shu yillarda Amerika negrlarining huquqi uchun kurashuvchi vakili Lengston Hyuz (1902-1967) she'rlari buyuk o'zbek tarjimoni va tanqidchisi Sanjar Siddiq tomonidan bevosita ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girildi.

Taniqli yozuvchi-tarjimon Mirzakalon Ismoilij ingliz yozuvchisi E. Voynichning "So'na" romanini 1934 yilda birmuncha qisqatirib o'zbek tiliga tarjima qilgan va 1936 yilda jamoatchilik istak va mulohazalarini hisobga olib matnni kayta ko'rib chiqib, jiddiy txaqlatishlar bilan ikkinchi bor chop ettirgan bo'lsa, 1956 yilda uni kayta o'girib, asarning ancha mukammal tarjimasini kitobxon e'tiboriga havola etdi.

D. Defoning "Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari" asarining 1948 yilda amalga oshirilgan ilk tarjimasini 50-yillar kitobxonini qanoatlantira olmasligini his etgan Y. Shamsharov jamoatchilik tomonidan bayon etilgan tanqidiy fikr-mulohazalar asosida asar tarjimasini qayta ko'rib chiqdi, xato va kamchiliklarini bartaraf etib, 1953 yilda asarni ikkinchi bor nashr qildirdi.

Ammo vaqt o'tishi bilan bu tarjima ham sinchkov va talabchan kitobxon talabidan orqada qoldi. Buni inobatga olgan san'atkor tarjima matni ustida jiddiy ish olib borib, uni kitobxon saviyasiga ma'lum darajada moslashtirdi va 1965 yilda uni uchinchi bor chop ettirdi.

Tarjimonlar e'tiborini takror va takror tortgan badiiy yodgorliklar sirasiga Sviftning "Gulliverning sayohatlari" asari ham kiradi. Asar 1944 yilda S. Yo'ldoshev, 1945 va 1952 yillarda A. Ho'jaxonov tomonlaridan o'zbek kitobxonlariga tortiq etiladi.

Hozirgi kunda ingliz yozuvchilar ijodidan o'zbekchaga o'girilgan asarlar katta miqdorni tashqil etadi. Ulardan ayrimlarining nomlarini tilga olamiz.

Yuqorida eslatilgan asarlar Tarjimalaridan tashkari ingliz adabiyotidan yana Jeysms Grinvudning "Juldur kiyimli bola" (1961, N. Turmuhammedov tarjimasini), A. Konan Doylning "Chipor lenta" (1963, V. Raxalqimatov Tarjimasini), "Sherlok Holms haqida hikoyalar" (1963, M. Mirzoidov), "Baskervillar iti" (1971, N. Habibo'llaev), R. Kiplingning "Maugli", U. Herbertning "Ko'rinmas odam" asarlari (1961, R. Komilov), Garriet Bicher Stouning "Tom tog'aning kulbasi", R. Stivenonning "Hazinalar oroli", G. Heggardning "Blusholm sohibasi" (1975, N. Shomirzaev), Jeysms Oldrijning "Dengiz shunqori" romani (1977, E. Miroidov), Amerika adabiyotidan Jek Londonning "Martin Iden" (1968, K. Mirmuhammedov), "Uch qalb" romanlari va "hikoyalar to'plami" (1958, F. Abdullaev), Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari va Gekl'berri Finning boshidan kechirganlari", "Shaxzoda va gado" hamda "Janna d Ark" (1965, R. Komilov), "Oliver Tvist" romanlari, Teodor Drayzerning "Baxti qaro Kerri", "Amerika fojeasi" romanlari (1976, U. Usmonov), F. Ko'perning "So'nggi Mogikan" (1973, E. Miroidov), "Chingachkuk ulkan ilon" (1971, E. Miroidov) romanlari, Ernest Hemingueyning "Alvido, qurol!" romani, Janubiy Afrika adabiyotidan Piter Abrahamsning "Chaqmoqli yo'llar", "Qabrdagi gulchambar" romanlari va boshqa ko'pgina asarlar Tarjima qilinib, keng o'zbek kitobxon ommasi mulkiga aylantirildi.

Ammo, afsus bilan qayd etish lozimki, ingliz tilidan o'zbekchaga bevosita tarjima qila oladigan haqiqiy mutaxassis san'atkorlarning yo'qligi sababli ingliz tilida ijod qilgan mualliflar asarlari o'zbek tiliga hamon rus tili orkali o'girilmokda. Bu tarjima jarayonida muqarrar yo'l qo'yiladigan nuksonlar mikdorining ikki baravar oshib ketishiga olib kelmokda. Birok ko'pchilik mohir tarjimonlarimiz asarlar ruhiga chuko'rroq kirib borish va bu ruhiyatni o'zbek tiliga yuqori mahorat bilan talkin etish vositasida tarjimaviy kusurlar oldiga ma'lum darajada parda tutib kelmokdalar.

Lekin tan olish kerakki, keyingi paytlarda umid uchqunlari alanganib, bilvosita tarjimadan bevosita Tarjimaga utish harakatlari ko'zga tashlanmokda. Misol tariqasida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, mohir tarjimon Amir Fayzulloning hind tilidan o'zbekchaga o'girgan romanlari hamda she'r va hikoyalarni, "Mahobharat", "Mirza Golib", "Ramayana" kabi ko'p seriyali kinolentalarni, shuningdek, arab va fors tillaridan amalga oshirilayotgan ko'pchilik tarjimalarni, taniqli olmonshunos Yanglish Egamova nemis tilidan o'girgan roman va hikoyalarni keltirish mumkin.

Inglizabon ijodlarlar asarlari tarjimasi haqida gap ketadigan bo'lsa, bu erda ham ijobiy harakatlar kxalqga tashlanmokda. Ayrim kichik hajmdagi she'r va hikoyalar, qator kinofil'mlar muhlislarga bevosita Tarjima yordamida takdim etilmokda.

1996 yilda Dinora Sulstonovanning asliyatdan bevosita amalga oshirgan qator ingliz shoirlari she'rlari tarjimasi "Farogat" nomi bilan nashr etildi. 2003 yildan e'tiboran O'zbekiston televideniesi orkali takror va takror namoyish etilayotgan Yaponiya kino ijodkorlarining "Oshin" nomli ko'p seriyali kinolentasi o'zbekchaga ingliz tilidan Hulkar A'zam tomonidan vositachi til yordamisiz tugridan-tugri obi-tobida Tarjima qilindiki, bu boshlab yuborilgan ijobiy jarayonning ilk mevalaridir. Xullas, mamlakatimizda bilvosita Tarjimadan bevosita tarjimaga o'tish jarayoni boshlab yuborildi. Bu sa'y-harakat o'zbek kitobxonlarining jahon adabiyoti durdonalari namunalari bilan batafsilrok tanishishlari uchun imkoniyat yaratib berish baravarida yaqin kelajakda tahlil va tadqiq uchun ham shubhasiz zaruriy material hozirlay oladi, degan umiddamiz. Nihoyat, qayd qilish zarurki, mamlakatimizda ko'p asrlik tarixiy davr mobaynida juda katta badiiy-adabiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy, ilmiy, diniy asarlar o'zbek tiliga o'girildi. Tarjima adabiyoti Vatan adabiyoti bilan yonma-yon paydo bo'lib, rivojlanib, xalqimizning goyaviy-estetik ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Adabiyotimiz tarixining katta ulushini tashqil etadigan bunday boylikni ilmiy-tanqidiy o'rganib, natijasini tarjima amaliyotiga joriy etish tarjimachilik ishining yuqori saviyasini belgilaydi.

## **1.2. Hissiy-ekspressivlikni tasvirlovchi lisoniy birliklar va ularning tarjimasi**

Bevosita badiiy asar mazmunini tasvirlovchi lisoniy birliklar (leksik birliklar, frazeologik birliklar)ning zaruriy ma'nolarini kontekstual talqin etish masalasi, asliyat mazmunini aks ettiruvchi vositalarni adekvat yoki noadekvat tarjima qilinganligi alohida-alohida jumlar asosida tahlil qilinadi. Ushbu jarayonni qaysidir ma'noda umumiy ravishda bo'lmagan, ya'ni sintez ko'rinishdagi birma-bir ma'no ochish deb tushunish mumkin. Biroq ijodda shunday vazifa va shart mavjudki, bunga ko'ra adib o'z asarini nomlaydi. Asarga nom berish muallifdan mas'uliyat talab qiladi. Zero, har bir asar nomi bevosita uning mazmunini aks ettiradi, ya'ni umumiy birlashgan mazmunini o'zida namoyon etadi. Muayyan asar nomini tarjima qilish ham o'ziga hosdir. Har qanday asar nomi beistesno mazmun aks ettirar ekan, muayyan asar nomini tarjima qilishda til birliklarining to'g'ri kelgan ma'nolarini qo'llayvermasdan, butun asar

kontekstdan kelib chiqib, mavjud ma'no variantlaridan eng muvofiq'ini tanlash joiz bo'ladi. Shunday nom tanlanadiki, tarjimonlar, huddi mualliflardek, o'z kitobhonlarida o'g'irgan asarida qiziqsih uyg'otishni maqsad qilib qo'yadilar. Zero, asar nomi u hoh asliyati nomi bo'lsin, hoh tarjima nomi bo'lsin kitobxonlar e'tiborini ko'p hollarda darhol o'ziga tortadiki, aksariyat kitob sevguchilar adibning ism-sharifi va asar nomiga arab kitob mutolaa qiladilar.

Yuqorida qayd etilgan nazariyaning amaliy isboti sifatida quyida keltirilgan bir qator tahliliy fikrlarni misollar asosida e'tirof etishimiz mumkin. So'zni asar nomining tarjimada berilishidan boshlashdan avval, undagi boblar sarlavhalari tarjimasiga e'tibor qaratsak.

Ma'lumki, har bir berilgan bob ayni voqelik mazmunidan kelib chiqqan holda nomlanadiki, tarjimada ham shu shart bajarilishi kerak. Masalan, Charlz Dikkins qalamiga mansub "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" nomli romanidagi bir qator boblarning sarlavhasi kontekstual tarjima qilingan. Romanning XI bobi sudlov jarayonini hikoya qiladi: bolakay Oliver nohaq ayblov, ya'ni o'g'irlikda ayblanuvchi sifatida polisiya mahkamasi sudida javobga tortiladi, biroq guvoh uning aybsizligiga ko'rsatma bergani uchun sud ishi bekor qilinadi. Bolakayning aybsiz deb topilishi tarjimonlar uchun odil ma'nosini anglatuvchi so'zni, ya'ni ruscha "pravosudie", o'zbekcha "adolatli" talqinlarini qo'llashlariga turtki bo'lgan. Bu esa o'z navbatida kitobxonlarning ayni shu bobga ham bo'lgan qiziqishni uyg'otadi:

Treats of mr.Fang Police Magistrate and furnishes a slight spiceman of his Model of administering Justice.

Povestvuet o mistere Fenge, policeyskom sud'e, i daet nekotoroe predstavlenie o ego sposobe otravlyat' pravosudie...

Polisiya hakami mister Feng qaqida hikoya qiladi va ul zotning adolatli sudlov usuli hususida bir qadar tushuncha beradi.

Ushbu asarning XXI bobi bir joydan ikkinchi joyga ko'chish safarini tasvirlaydi. Asar muallifi ayni bobni "The Expedition" deya sarlavhalaydi. So'zning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqib rus adibi ham transliterasiya yo'li bilan "Ekspedisiya" deb o'z tiliga o'g'irgan bo'lsa, o'zbek tarjimoni esa o'g'irayotgan sarlavhaning lug'aviy ekvivalentidan tarjimada foydalanmay, voqelik mazmunida anglashilgan ma'noga ko'proq e'tibor qilgan holda sarlavhani "Safar" deb kontekstual tarzda nomladi. Bunday nomlanishiga yana bir sabab shuki, ekspedisiya tushunchasi "ilmiy safar" ma'nosini anglatadiki, asarning ushbu bobi davomida hech qanday ilmiy safar haqida voqelik aks ettirilmaydi. Ehtimol shu sababdan ham o'zbek adibi variantini qo'llagandir va aytish mumkinki, obrazlilik yo'qqa chiharilgan. Shunga qaramay sarlavha talqini adekvatlikka putur etkazmagan.

"Bahti qaro Kerri" nomli romanning XVIII bob sarlavhasi kontekstual mazmunan tarjima qilingan. Ingliz tilida berilgan sarlavha "Just over the Border: a Hail and Farewell" ko'rinishda nomlangan bo'lsa, o'zbek tilida "Narigi tomonda, yuzaki salom" tarzida tarjima qilingan. Sarlavhadagi "a Hail and Farewell" iborasi lug'aviy "salom va hayr" tarzida talqin etilishi mumkin. Ushbu bob mazmuni yuzaki ko'rishish yoki salomlashishni tasvirlaydiki, asardagi ikki personaj, Kerri va Restvud bir-birlariga bo'lgan ishqiy tuyg'ularini yaqinlaridan yashirin ravishda davom ettiradilar. Shu sababdan ham o'zbek adibi ayni iborani "yuzaki salom" tarzida kontekstual tarjima qiladi. Bu bilan u sir boy bermasdan ko'rishish tushunchasini aks ettiradi.

Aytib o'tilganidek asarlar nomi tarjimada asosan transliterasiya yo'li bilan amalgam oshiriladi. Tarjimonlar ba'zan asarlarni boshqa nom berish bilan ta'sirchanlik va e'tibor saqlay bilishga harakat qiladilar.

Bizga asos bo'lib hizmat qilgan badiiy asarlarning nomlari ham o'ziga hos talqin etilgan. Hususan, Charlqz Dikkinsning "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" tarzida tarjima qilingan asari asliyatda "The adventures of Oliver Twist" nomi bilan zikr etilgan. Bu erda diqqatimizni oladigan so'z "adventure" bo'lib, u "sarguzasht" lug'aviy ma'nosi bilan o'zbek tilida talqin etiladi. Sarguzasht so'zining mantiqiy-lug'aviy kelib chiqishi fors-tojik tilidan bo'lib, Sar-bosh, guzashtan feqlidan olingan bo'lib, "o'tmoq", "kechmoq" tushunchalarini ifodalaydi. So'zning kelib chiqishi va aniq ma'no jihatlariga e'tibor bergan o'zbek tarjimoni uni "sarguzasht" ekvivalenti bilan emas, balki sof o'zbekcha "boshidan kechirganlari" muqobili

vositasida qayta yaratgan. Tarjima markazida turgan "adventure" soʻzi, "sarguzasht" deb ham oʻgirsanoadekvat tarjima hosil boʻlmaydi. Biroq soʻz mazmunida asosan yahshi, ijobiy maʼnodagi kechinmalar oʻz aksini topadi. Asar voqeʻligi davomida esa buning aksi boʻlgan salbiy va hatarli kechinmalar koʻproq aks ettirilgan. Asarning butun mazmuniga eʼtibor qilgan tarjimon kontekstual tarjimaga erishishga muvaffaq boʻlgan.

Teodor Drayzerning "Sister Carry" romani nomi rus tarjimoni tomonidan moddiy yaʼni lugʻaviy jihatdan aniq "Sestra Kerri" tarzida oʻgirilgan. Oʻzbek adibi asar nomini matniy holatidan kelib mazmunan "Bahti qaro Kerri" deb nomlagan. Bunday nomlanishiga quyidagilarni sabab qilib koʻrastish mumkin: birinchidan, "sister" soʻzi lugʻaviy "opa" yoki "singil" maʼnolariga ega. Ayni holatda lugʻaviy ekvivalentlar bilan tarjima qilish mantiqiylik va oʻzbek tili meʼyoriga javob bermaydi; ikkinchidan, "Bahti qaro Kerri" nomi hayotda omadi yurishmagan qizning boshidan kechirganlarini aynan ifoda etishi bilan birga, kitobxonlar eʼtiborini darhol oʻziga torta oladi. Zero, tarjimaning asosiy shartlaridan biri tabiiy va jozibali ohangdorlik hosil qilish hamda odamlarda asarning tarjima variantiga nisbatan qiziqish uygʻotishdir.

Sadriddin Ayniyning "Esdaliklar" kitobi bir qator horijiy tillarga ham tarjima qilingan. Hususan, asar rus tiliga S.Borodin tomonidan "Buhara" nomi bilan oʻgirilgan. Ruscha tarjima nushasidan P.Korotkin fransuz tiliga huddi shu nom bilan talqin etdi. Asar nomi oʻzgacha tarjima qilingan asardagi mazmun oʻzgarishiga olib kelmagan. Chunki voqealarning aksari qismi Buhoro shahri va uning atrofida sodir boʻlib ular bevosita hayoti bilan bogʻliqdir.

Mark Tven qalamiga mansub, ikki asar "The adventure of Tom Sawyer" va "The adventures of Huckleberry Fin" romanlari ham sof oʻzbekona talqinda "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" va "Geklqberri Finning boshidan kechirganlari" nomi bilan oʻzbek kitobxonlari qoʻliga etib bordi.

Ernest Hemengueyning "A Farewell to Arms" nomli romani ham badiiy uslubiy ifoda jihatlari bilan ajralib turadiki, asar nomi ham shundan dalolat beradi. Muallif imperiazm keltirib chiqargan urushlardan shahsiy yoʻsinda nafratlangan holda Avstriya-Italiya frontida roʻy bergan voqealarni hikoya qiladi. Ushbu asar nomini oʻzbek tiliga oʻgirishda ijodiy yondashuv talab qilingan. Asar nomini gʻayritabiiy, biroq oʻziga qarata oladigan qilib qayta nomlash tarjimonning filologik bilimlariga ham bogʻliq. Asliyatda mavjud boʻlgan "farewell" soʻzi hayrlashuv tushunchasini beruvchi maʼnolarga ega boʻlib, ular orasidagi eng maqbulini tanlash albatta butun asar mazmunidan kelib chiqqan kontekstual muvofiqlikdan oydinlashadi. Muallif urush degan ajalni, unga vositachi boʻlgan qurolni butunlay yoʻqolib ketishini maqsad qiladi. Oʻzbek tarjimoni tomonidan berilgan talqinda ham qurol bilan butunlay, umrbod hayrlashayotgan tushuncha anglashiladi. Asarning "Alvido qurol" deb oʻzbekcha nomlanishini asliyatga toʻliq muvofiq adekvatlikda uslubiy jihatdan mazmunan mos deb aytish mumkin.

Rus adibi Sholohovning oʻz ijodi davomida yangi erlarni oʻzlashtirish, kollektivlashtirish masalalarini aks ettiruvchi "Podnyataya selina" romani nomini kontekstual tarjima qilish muammosi ham ijobiy amalga oshirildi. Oʻzbek tilida berilgan, "Ochilgan qoʻriq" nomi asliyatga lugʻaviy toʻliq muvofiq kelmasada, maʼno va vazifaviy uygʻunlikni taʼminlaydi. Zero, oʻzlashtirilmagan yangi erlarni oʻzlashtirish va hayotning yangi qirralarini ochish mazmuni oʻzbek tilidagi asar nomida ham oʻz aksini topadi.

Koʻrib chiqilgan barcha masalalardan ayon boʻldiki, kontekstning oʻrni va ahamiyati har qanday muloqot jarayonida qanchalik muhim boʻlsa, tarjima amaliyotida ham uning hizmati katta. Soʻz yoki iboralarning muayyan holatda anglashilgan kontekstual maʼnosini oydinlashtirish, shuningdek asar nomini asliyat mazmuniga adekvat tarzda tarjima tiliga oʻgirish har bir tarjimondan kontekst hizmatidan foydalanishni taqozo etadi.

Badiiy tarjima va kontekst masalasini yoritishda avallo, tarjimani mazmun va mohiyatini eslatib oʻtish joizdir.

Tarjima tillarning rivojlanish surʼatini jadallashtiradi, ularning lugʻat boyligini oshiradi va takomillashtiradi.

Tarjima jarayonida bir tildan ikkinchi tilga, ayniqsa qarindosh boʻlmagan tillarda oʻgirishda asliyat tilining barcha birliklari oʻtavermaydi. Masalan: asliyat tilining (ingliz, olmon

va boshqalar) tovushlari, hos so'zlari, grammatik shakllari (masalan: sintetik hususiyatlari) o'zbekchalashmay, balki ular ifoda etgan mazmun o'tadi. Bunday vaziyatdan albatta tarjimaning eng muhim yordamchisi kontekst oydinlik kiritadi. Zero, tarjima tilining uslubiy belgi va vositalarini uslubiy ravishda, ya'ni o'hshatishni o'hshatish bilan, istiorani istiora bilan, maqolni maqol bilan, frazeologizmni frazeologizm bilan va boshqa shu kabi turg'un birliklarni o'z uslubida qayta tiklash zarur bo'ladiki, tarjimaning sifati ham shu bilan belgilanadi.

Tarjima amaliyoti haqida so'z borganda, albatta uning saviyasi, sifati nazarda tutiladi. Shart-sharoit va imkoniyat yaratilgandagina tarjimaning saviyasi yuksaladi. Komil Yashin tomonidan "Eng qiyin cho'qqi" deb nomlangan "Tarjima" cho'qqisini egallash uchun bugun keng imkoniyat yaratilgan, faqat bu imkoniyatdan to'g'ri va unumli foydalanmoq darkor.

Nafaqat badiiy tarjima, balki tarjimaning barcha ko'rinishlarida ham kontekstning o'rni beqiyosdir. Tarjima va til sohasida ilmiy ishlar olib borgan jahondagi bir qator olimlar, jumladan, R.A.Budagov, D.N.Shmelev, I.P.Susov, L.S.Barhudarov, A.A.Ufimseva, V.Ya.Mirkin, A.A.Yuldashev, F.R.Palmer, Dj.Laens kabi bir qator lingvistlar kontekst masalasida ham o'z qarashlarini bayon etganlar. Rus tilshunos olimi G.V.Kalpshonskiy o'zining "Kontekstnaya semantika" nomli kitobida yuqorida qayd etilgan olimlarning fikrlarini jamlagan holda kontekst mavzusiga to'liq qaratilgan nazariy-ilmiy qarashlarini taqdim etdi.

Olimning ta'kidlashicha kontekst nafaqat yozma nutqda, balki muloqotning barcha ko'rinishlarida o'z ifodasini topadi. Zero biz har qanday muloqot chog'ida o'z fikrimizni ikkinchi boshqa bir kishga etkazishga harakat qilamiz, fikrining aniq va to'g'ri etkazilishida esa, kontekst oydinlik kiritadiki, uning mohiyati bayon etilayotgan matn, ya'ni fikrning ma'no va mazmunini ochib berishdir.

Kontekstning ko'rinadigan va eng katta hizmati tarjima jarayonida ko'zga tashlanadiki, bir tildan boshqa tilga o'girilayotgan tarjima hoh kichik jumla hoh katta bir asar bo'lsin. Har qanday ko'pma'noli til birliklari, fraziologiya, realiya so'zlar alohida lug'aviy birliklarning mavhum aynan muvofiq kelishlaridan tarjima qilinmaydi, balki elementar birliklarning kontekstual mazmunan bog'liqligini oydinlashtirish yordamida talqin etiladi. Aytish mumkinki, tarjima jarayonida kontekstga yuzlanish nafaqat tarjima amaliyotining majburiy elementi bo'lmay, balki lingvistik madaniy, badiiy, ilmiy va boshqa mavzulardagi mantlarni o'z tiliga o'giruvchi haqiqiy tarjimon vazifasini bajaruvchi ijodkorning dastlabki va asosiy majburiyatidir.

Ma'lumki tarjima muloqot faoliyatining muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, avvalo lisoniy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi matn-majmualarini o'z ichiga olgan o'girilayotgan asl tilni to'liq va adekvat talqin etishga yo'naltiriladi. Tabiiyki, bunday maqsad yo'lida adekvatlikka muallif bayon etmoqchi bo'lgan fikrni to'g'ri anglagan holdagina erishish mumkin.

Kontekst tarjima jarayonida poydevor tayanch sanaladi, chunki tarjima bu adekvat qabul qilishdir, binobarin, matnni qayta yaratishda adekvat talqin faqat kontekst qurshovida amalga oshiriladi. Shuningdek, zamonaviy tarjima nazariyasida u narsa aniq ko'rsatilganki, tarjima o'hshash birliklarini o'zaro qandaydir, aloqasi tufayli amalga oshmaydi, balki tarjima o'z ichiga kontekst faktorlar (intra va ekstralingvistik)ni qamragan matnlar bilan ish ko'radi va natijada tarjima mahsuli asliyatning ikkinchi nushasi bo'la oladi.

Turg'un birliklar va so'zlarni o'z-o'zidan o'g'irish mumkin emas, shu sababdan ham adekvat tarjima amalga oshmaydi. Asliyat va tarjima tillarda maqol va frazeologik o'hshashliklar bo'lsa hamki, ularni so'zma-so'z o'girib bo'lmaydi. Faqatgina kontekst til birliklarining zaruriy ma'nolarini ochib beradi, zero kontekst barcha asar va barcha matnda mavjuddir va aynan kontekstgina tarjimada harfho'rlik (bukvalizm)ni bartaraf etadi hamda birliklarning (turlicha) ko'r-ko'rona talqin etilishiga chek qo'yadi. Shu bilan birga, o'z ichiga nafaqat matn faktorlarini, balki u yoki bu muallif yaratgan badiiy ijod mazmunini tasvirolovchi barcha vaziyatlarni qamrab olgan kontekst asl nusxa asar "yangrashi"ga yaqinlashib borayotgan tarjima uchun yo'l-yo'riq yaratib beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, kontekstual tarjima tillarning semantik tizimini to'g'ri qiyoslashdagi ishonchli bo'lib, bunda har bir mazmuniy birlik o'z o'zining muayyan o'rniga egadir.

Ingliz va Amerika lug'atlarida qayd etilgan ma'nolar so'zning semantik tuzilishini hosil qiladi. So'zning semantik tuzilishining asosiy va muhim komponenti uning lug'aviy ma'nosi hisoblanadi. Lug'atlarda qayd etilmagan biroq nutqimizda yoki yozma matnlarda mavjud bo'lgan ma'nolari kontekstual ma'nolar deb ataladi. Kontekstual ma'nolar so'zning semantik tuzilishiga kirmaydi, ular faqatgina mantda o'z ifodasini topadi.

Fikrni amaliy qo'llash maqsadida quyida berilgan gaplardagi "presence" so'zining ma'nolarini solishtirib ko'ramiz:

1. The governer said that he would not allow the presence of federal troops on the sail of his state.

Hukumat boshlig'i federal qo'shirlarni uning davlati erlariga kelib o'rnamishiga yo'l qo'ymasligini ta'kidladi.

2. .... the General has been faced with a problem as old as France's presence in Algeria.

.....General Fransiyaning Jazoir davlatini okkupasiya (zabt) etish muammosiga duch keldi.

Ko'rinib turibdiki, birinchi misoldagi "presence" so'zi "...o'rnamish" ma'nosini anglatga, ikkinchi jumlada so'zning mazmuni "okkupasiya" (zabt etish) ma'nosiga to'g'ri keladi.

Demak, birinchi talqin so'zning lug'aviy ma'nosi ikkinchi talqin so'zning kontekstual ma'nosidir. Muloqot faoliyati sifatida tarjimaning hususiyatlaridan biri shuki, u muayyan tillarning lisoniy birliklarini mavhum qiyoslashni ifodalamaydi, balki asliyatni adekvat qayta yaratishga yo'naladi. Lug'at esa bu borada tarjimonga to'liq yordamchi bo'la olmaydiki, odatda u zaruriy kontekstual ifodalarni bermaydi, ko'pi bilan lug'at so'z va iboralarning nominativ ma'nolarini qayd etgan bo'ladi.

Til birliklari ma'nolarining kontekstual tobeligi hoh alohida gaplarda, hoh butun matnda bo'lsin tarjimon ijodiy faoliyatining cheksiz ummonini anglatadi. Bu esa ko'plab filologlarning tarjima jarayonini fandan ko'ra ko'proq sanoat turiga kiritishlariga asos bo'ladi. Haqiqatan ham kontekst hoh u mikrokontekst hoh makrokontekst bo'lsin tarjima hususiyatlarini shu qadar aniq ifoda etadiki, biror bir lug'aviy talqin lo'qal yaqinroq bo'lgan aniq ma'noni bera olmaydi. Hatto, kontekstual tarzda o'g'irilgan "noto'g'ri" tarjimalar ochib beradi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, so'z birikmalar, iboralar, matnlardagi kontekstual bog'lanish ayrim so'zlar, turg'un so'z birikmalari, ayrim jumalarning grammatik va leksik ma'nolarini namoyon etishining tabiiy talabini bajaradi, lekin til birliklarining ma'no va mazmunini yaratmaydi.

So'zdan tartib gapgacha bo'lgan tilning barcha nominativ birliklari muloqot jarayoni substansiyasi va moddiy asosi hisoblanadiki, ular to'liq mazmundagi muloqot ko'rinishidagi bog'lanish chog'ida yuzaga keladi. Ayni shu bog'lanish keng ma'noda kontekstni keltirib chiharadi.

Kontekst - bu til muloqatining tabiiy holatidir, substansiya birliklar mazmun va ifodasi bilan ma'lum bog'lanishlarga o'tib ohir oqibat oboektiv narsa va hodisalarning haqiqiy real munosabatini ifodalaydi. Ko'plab lingvist olimlar kontekst masalasiga to'htalar ekanlar, ular kontekst har qanday muloqot (og'zaki, yozma)ning zaruriy sharti deb biladilar va fikr etkazish doimo kontekstga bog'likdir deya ta'kidlaydilar.

Tilshunos olim T.Slama-Kazakuning fikricha gap mazmuni asosan global kontekst yordamida oydinlashadi, biroq analiz qilshi maqsadida global kontekst bir qator tasniflarga bo'linib ketadi. Aslida ham "yagona huqiqiy kontekst mavjud bu o'z ichiga faqatgina lisoniy vositalarni olgan, balki vaziyatning barcha qirralarini qamragan global kontekstdir. Kontekst nafaqat lisoniy va nolisoniy ifoda vasitalari bilan, balki so'zni qamrab olgan va uning ma'nosini oydinlashtiruvchi barcha holatlar orqali amalga oshiriladi".

Kontekst masalasiga chuqur yondashilar ekan, olimlar o'zlariga hos tarzda turli tasniflarga bo'lib o'rganadilar. Ammo uning aniq va mukammal tasnifi hozirgacha aniqlanmagan. Shuni aytib o'tish joizki tarjima asosiy ikki muhim ko'rinishlari, ya'ni mikrokontekst va makrokontekst turlaridan foydalaniladi. Aytish mumkinki, matndagi kontekst hizmati katta va shu tomondan tan olinishi kerakki, uning o'rni yuqori, ya'ni u tarkibiga kiruvchi

elementlarga nisbatan semantik jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Kontekstning tarjimada tutgan o'zni va hizmati masalasi o'zbek tarjimashunoslari tomonidan to'liq yoritilib borilmagan. Biroq ayni mavzu bo'yicha ilmiy ish olib bormoqchi bo'lgan o'zbek talabalari uchun prof. Q.M.Musaevning bildirgan fikrlari va chop ettirgan darslik kitoblari o'zbek tilida mavjud bo'lgan ayni masalaga oid qisman to'liq qo'llanma bo'la oladi.

### 1.3. Hissiy-ekspressivlikni ifodalashda leksik birliklar va tarjimaviy talqini

Asl nusha asarni adekvat tarjima qilish uchun kontekstning ahamiyati beqiyos va muhim ekanligi o'z ifodasini topganki, bunda ham mikrokontekst ham makrokontekstning roli, yoinki hizmati teng ekanligini ko'rishimiz mumkin. Zero lisoniy vositalarning ma'no va uslubiy jihatidan to'g'ri hamda to'laqonli tarjima variantlarini vujudga keltirishda kontekstning ikkala ko'rinishiga murojaat qilish tarjimaga oydinlik kiritadi. Charlz Dikens qalamiga mansub bo'lmish "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" nomli asari o'zbek tilidagi tarjimasida ham o'z mazmun mohiyatini deyarli yo'qotmagan. Asarning I va II boblarida qo'llanilgan "children" so'zining o'zbekcha talqiniga nazar tashlasak, bunda o'zbek tarjimoni tomonidan so'zning badiiy bo'yoqdorlik bilan o'girilgani va natijada sof o'zbekona nutqqa hos tarjima variantlari yuzaga kelganini ko'rishimiz mumkin. Quyida keltirilgan ilk misolda o'zbek tili tarjimasida uslubiylikni ko'ramiz. Asar syujetining ayni vaziyatida o'g'il chaqaloqni dunyoga keltirib o'zi o'lim to'shagida yotgan ojiza ayolning o'g'ilchasini erkalash orqali uning ko'nglini ko'tarish holati o'z ifodasini topgan. Ma'lumki, o'zbek halqi o'g'il bola farzandlarni "polvon", "buqacha" deb erkalashga odatlangan:

".....She has lived as long as I have, sir, and had thirteen children of her own..."- O.T.28

- .....Ona projivet skol`ko projila ya ser, da proizvedet na svet trinadsat` rebyat...- O.T.8

- .....u ham mening yoshimga borsin, ser, o'n uchta buqachoqni tuqsin.....- O.T.7

Navbatdagi keltirilgan misol namunasi kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, ushbu jumlada qo'llanilgan "children" so'zi lug'atlarda keltirilgan ma'nosiga mos tarzda talqin etilgan. Kontekst o'z navbatida o'girilayotgan so'zni "go'daklar" deb tarjima qilishni taqazo etgani holda asarda tasvirlangan mehnat uyida haqiqatdan ham yosh, murg'ak bolalar maskan topganini bayon etadi:

"Do you give the children Daffy, Mrs.Mann" inquired Bumble -O.T.35

- Vse daete detyam Daffi, missis Mannq - sprosil Bambl -O.T.13

- Missis Mann, siz go'daklarga Dafi ham berasizmi - deb so'radi Bambl- O.T.12

Ayni asarni o'qir ekanmiz ingliz tilidagi birgina "small" so'zining o'zbek adibi tomonidan turli tarjima variantlari orqali o'girilgani, biroq markaziy ma'no, ya'ni "kichik" so'zi atrofida guruhlashgan talqinlar bilan tarjima qilinganligiga guvoh bo'lamiz. Asar personajlari - tobutsiz mister Sauerbern va uning hotini missis Sauerbern uylariga olib kelingan bolakay Oliverning nimjon, kichik bo'yi ekanligi borasida o'zaro suhbatlashib munozara qiladilarki, "small" lisoniy vositasi takror-takror, birma-bir ikkala obraz nutqida ifoda etiladi. Shu sababdan tarjimon so'zning markaziy ma'no ekvivalentini takroriy qo'llashdan uzoqlashib, zaruriy kontekstual muqobil variantlarni qo'llagan holda adekvat talqinni vujudga keltira olgan:

"Dear me!" said the undertaker's wife, "he's very small"

"Why, he is rather small" replied Mr. Bumble,... "he is small..." -O.T.61

- Ah, boje moy! - voskliknula jena grabovika. - Kakoy on malen`kiy!

- Da, on pojaluy mal rostom - soglasilsya mister Bambl,... - On i v samom dele malen`kiy.-O.T.34

- Voy hudoyim-ey! - hitob qildi tobutsozning ayoli. - Jimitkinaligini qara-ya!

- Ha, bo`yi hiyla pastroq - uning gapiga qo`shildi mister Bambl,...U chindan ham kichkina!-O.T.26

Keyingi misol talqinlarida ham namunaviy tarjima mahsulini ko`rishimiz mumkin. Inglizcha "to belong" fe`lining matniy- kontekstual ma`nolari oydinlashib kerakli tarjima variantlari qo`llanilganligi so`zimizning isboti. O`girilayotgan ayni so`z aslida "tegishli bo`lmoq" (prinadlejnost`), "aloqador bo`lmoq" (otnosit`sya), "kelib chiqmoq" qarindoshlik, avlod (byit` prodom iz) kabi bir qator lug`aviy ma`nolarga ega bo`lib, jummalarda berilgan voqelik yuqorida keltirilgan lug`aviy tarjima ekvivalentidan boshqacha, boriq ma`nosi yaqin bo`lgan variantlar qo`llash lozimligini taqazo etadi. Bunday vaziyatlarda makrokontekst tarjima qilish jarayoniga oydinlik kiridati.

Keltirilgan quyidagi misolda bosh qahramon bolakay Oliver og`ir kasallikdan halos bo`lib yana hayotga qaytganligi bayon etilgan:

The crisis of the disease was safely past. He belonged to the world again.-O.T.126

Krizis blogopoluchno minoval. Oliver vozvratilsya v etot mir.-O.T. 86

Kasalning hatarli davri muvaffaqiyatli o`tib bo`lgandi. Oliver yana hayotni qayta boshlagandi.-O.T.82

Ma`lumki, adekvat tarjimaga erishish uchun lisoniy vositaning ayni mantiy-kontekstual ma`nosiga oydinlik kiritish zarurdir.

Keyingi misoldagi inglizcha "morning" so`zi va uning rus va o`zbek tillaridagi adekvat tarjima variantlari ham namuna bo`lib, tarjimonlarning o`girilatgan lisoniy vositaning ayni holatdagi matniy ma`nosiga e`tibor qilganliklari hamda kerakli tarjima variantlarni qo`llay bilganliklarini namoyon etadi. Quyida keltirilgan "morning" so`zi rus adibi tomonidan "utro", o`zbek adibi tomonidan "kun" deb o`girilgan. O`zbek tarjimoni asar muallifi bayon etmoqchi bo`lgan fikrni yahshi anglagan; ya`ni asar qahramoni bolakay Oliver o`zi birga yashayotgan o`qri kissovurlar to`dasidan ozodlikka chiqib ketishini astoydil istagan va o`sha "kun" etib kelishini orzumand bo`lib kutganini tasvirlay olgan:

At length, one morning, Oliver obtained the permission he had so eagerly sought.-O.T.107

Nakonec nastalo utro, kogda Oliver poluchil razreshenie, kotorogo tak revnostno dobivalsya.-O.T.72

Ahiyri Oliver jon-jahdi bilan intilgan ruhsatni olishga muyassar bo`lgan kun ham etib keldi.-O.T.52

Quyida mashhur adib Jek Londonning "Martin Iden" romanidan keltirilgan misollar talqinida ingliz tilidagi "peach" so`zining og`zaki nutqqa monand ravishda o`girilganligiga amin bo`lamiz. O`zbek adibi Qodir Mirmuhammad ushbu so`zni ikki hil variantda kontekstual tarjima qildi. O`z navbatida ayni lisoniy vosita 1. olho`ri (persik), 2 birinchi nav (perviy sort), 3 chiroyli, go`zal (krasotka) kabi ma`nolari bilan lug`atlarda qayd etilganligini eslash o`rinlidir. O`zbek tarjimoni hamda rus tarjimoni o`girilayotgan inglizcha "peach" so`zini adekvat holda talqin etishga harakat qilishgan. Birinchi talqinda ushbu so`zning qizbolaga nisbatan ishlatilganligi o`z ifodasini topganligi va ruscha "konfetka" deb tarjima qilinishi, o`zbek tilida "popuk" tarzida ifoda etilishiga sabab bo`lgani, shu bilan birga og`zaki nutqqa qos o`girilganini ko`rishimiz mumkin bo`ladi. Zero o`zbek yigitlari og`zaki nutq jarayonida chiroyli qizlarga nisbatan "asal", "popuk", "go`zal" kabi so`z iboralarini qo`llashadi. Ikkinchi misolda esa buni aksi o`laroq so`zning yigitga nisbatan ishlatilganligini payqash mumkin. Endi bu vaziyatda yuqorida eslatib o`tilgan qizlarga nisbatan aytiladigan so`z iboralarni qo`llash noo`rin bo`lar edi. Tarjimonlar esa kontekst yordamida o`girilayotgan "peach" lisoniy vositaning yigitlarga nisbatan aytiladigan

kerakli adekvat tarjima variantini topa olishdi. Rus yozuvchisi "krasavchik" tarzda va o'zbek adibi "olifita" muqobil varianti bilan tarjima qilishdi:

- 1) ....and she's a peach -M.E.60
- Konfetka, a ne devchonka -M.I.37
- qiz emas, huddi popuk deysan! -M.I.45
- 2) There was a peach from West Oakland. They called "The rat" -M.E.61
- Tam bo'l odin krasavchik iz Zapadnogo Oklanda, po prozvaniyu Kryisa
- U erga harbiy Oklanddan - Kalamush – laqabli bir olifita yigit keluvdi.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi tarjima sohasida ham yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklar ham bo'lib turadi. Zero, guruch kurmaksiz bo'lmas deyishadi. Hususan, "Martin Iden" nomli romanning o'zbek tilidagi talqini ham ba'zi kamchiliklardan mustasno emas. Asarni o'qir ekansiz tarjima muvaffaqiyatli chiqqanligiga amin bo'lamiz, biroq bir qator jumalarda ba'zi bir so'zlarning g'ayrioddiy o'zgacha bir talqinlarini ko'rishimiz mumkin. Bu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, o'zbek tarjimoni so'zlarni o'girishda uslubiy siyqallik berishga harakat qilgan va oqibatda qosh qo'yaman deb ko'z chiqarib qo'ygan. Tarjimon ba'zi lisoniy vositalarni rus tilidagi ekvivalentlarini noanoanaviy g'ayritabiyy ko'rinishda hamda mazmun va ma'no jihatidan mutlaqo to'g'ri kelmaydigan vositalar bilan tarjima qilgan. Masalan, ushbu "Martin Iden" asaridan olingan quyidagi misol ham ruscha talqinnig o'zbek tili tarjima variantida o'zgarishsiz qolganiga yaqqol namuna bo'la oladi. Roman muallifi qo'llagan "sing" so'zini rus tarjimoni lug'aviy "vyiveska" talqin yordamida o'girish bilan adekvat tarjimani vujudga keltirgan bo'lsa, o'zbek adibi o'girilayotgan ayni so'zni o'zbek tili lug'aviy meoyoridan kelib chiqib sof o'zbekcha talqin etmay, uning ruscha ifodasini qoldirgan. Zero, rus tilidan kirib kelgan ba'zi so'zlar o'sha paytlarda ona tilimizda ommalashib, og'zaki nutq so'zlashuv doirasida mustahkam o'rin egallab borgani ma'lumdir. Bu kabi so'zlar qatoriga "poveska", "lager'", "putevka", "otpusk", "sanatoriya" boshqa bir qator so'zlarni kiritishimiz mumkin. Bunday holatni tarjima amaliyotida ham ko'plab uchratish ehtimolidan holi emas.

Ammo shuni yana ta'kidlash kerakki, tarjima jarayoni o'zga til lisoniy vositalarni asl holicha o'zgarishsiz tarzda tarjima qilish emas, balki kontekst yordamida o'z ona tilida mavjud talqin variantlarni bera bilishdagi ijodiy yondashuvdir. Ayni vaziyatda rus tilidagi "vi'veska" so'zini o'zbek tili me'yori buzilmasligi ta'min etiladi:

- ...he kept a look out for a familiar two-storey building along the front of which ran the proud sign, "Hiddinbotham's Cash Store" -M.E.46
- ...i Martin Iden jdal, kogda on poravnyaetsya s horosho znakomyim dvuhetajnyim domom, ukrashennyim gordelivoy vyiveskoy: "Roznechnaya torgovlya Hipgginbotama"-M.I.26
- ... Martin Iden o'ziga yahshi tanish bo'lgan ikki qavatli uyning ro'parasiga kelishini kutib turardi. Bu uyning oldiga "Higginbotamning chakana savdo uyi" tumtaraqli vyiveska osilgan edi.-M.I.32

O'zbek tili lug'at boyligiga nazar tashlar ekanmiz uning asosiy qismi arab va fors-tojik tillaridan kirib kelgan so'zlardan tashkil topganiga amin bo'lamiz. Shunday so'zlardan bo'lgan arabcha "qiroathona" leksemasi "Martin Iden" (Jek London) nomli romanida qo'llanilgan "library" so'zining o'zbekcha tarjimasi sifatida ishlatilgan. Biroq o'girilayotgan ayni so'zning lug'atdagi "kutubhona" ekvivalenti mavjud bo'lib, o'zbek adibi bundan foydalanmay, rus tarjimoni qo'llagan "chital'naya" talqiniga ko'proq e'tibor bergan holda tarjima qilgan. Natijada esa o'zi qo'llagan vositaning asl ma'no va mazmuniga chuqur yondoshmagan tarzda noadekvat tarjimaga yo'l qo'ygan. Zero, "qiroathona" so'zining ma'nosi muqaddas kitob "Qur'oni Karim" oyatlarini qiroat bilan, ya'ni chiroyli va mazmunli ohangda o'qish uchun alohida honani anglatadi. Asar voqeligida esa bunga aloqador hech qanday hodisa yo'q: asar qahramonlaridan biri bo'lgan Ruff ismli qiz o'zining ko'p vaqtini kutubhonadagi o'quv zalida o'tkazar edi. Shu sababli ham o'zbek tarjimoni bu o'rinda "o'quv zali" yoki "kutubhona" so'zlaridan birini ishlatish lozim edi:

- A library was a most likely place for her, and he might see her there. M.E.62

- Chital`naya - samoe podhodyaqee dlya nee mesto, ivpolne vozmojno, chto on vstretil eyo tam. - M.I.39
- Qiroathona - Rufga juda mos joy va Martin uni o'sha erda uchratib qolsa ham ajab emas. - M.I.47

Navbatdagi misolda inglizcha "candy" (konfet, ladenc, slasti) so'zining g'ayrioddiy o'zgacha bir talqinini ko'rishimiz mumkin. O'zbek yozuvchisi jumlada keltirilgan ushbu so'zni "chaynamay shiming" tarzda o'girib biroz hatolikka yo'l qo'ygan. Ayni vaziyatda o'girilayotgan so'zni "popuk", "shimiladigan konfet" yoki "ho'rozqand" deb tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- "Now run along and get some candy, and don't forget to give some to your brothers and sisters" -M.E.57
- Nu, a teper begi kupi sebe ledencov da podelisp s bratoyami i sestrami
- Qani, endi g'izilla, "chaynamay shiming" olib, aka-ukalaring bilan bo'lishib egin.

Biron bir badiiy asarni tarjima qila bilish tarjimondan chuqur filologik bilimlarga ega bo'lishni va so'z boyligi keng bo'lishini talab qiladi. Bu jihatlar "Martin Iden" nomli romanni rus tiliga o'giran qalamkashda mujassam bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, ko'plab hollarda lisoniy vositalarni to'laqonli tarjima qilishda makrokontekstga murojaat etiladi. Masalan, yaqinlik munosabatlarini aks ettiruvchi qarindoshlik, do'stlik kabi munosabatlarni tarjima jarayonida to'g'ri va aniq talqin etish vazifasi tarjima amaliyotida murakkab jihatlardan sanaladi. Bunday munosabatlarni namoyon etuvchi yuzaki qaralganda, ularni lug'atlarda keltirilgan ekvivalentlari bilan almashtirish har holda mumkinday ko'rinadi. Hususan, yaqinlik munosabatlarini anglatadigan so'zlar sirasiga "brother", "sister", "friend" kabi bir qator leksemalarni kiritishimiz mumkin. Zero, ushbu so'zlar o'zbek tiliga ikki yoki undan ko'proq ma'nolar bilan o'giriladi: "brother(s) aka yoki uka (aka-ukalar); "sister(s) - opa yoki singil (opa-singillar). Ayni so'zlar rus tilida "sestra(yi), brat(ya)" lug'aviy ekvivalentlari orqali ifoda etiladiki, rus tili me'yori opa-singil yoki aka-uka so'zlari ma'nolarini birgina ushbu vositalar yordamida bayon etadilar.

"Martin Iden" nomli asardan keltirilgan quyidagi misol namunada inglizcha "brothers" so'zining kerakli ayni variantini tarjimada topish uchun romanning bir necha boblarini diqqat bilan o'qib chiqish orqali o'girilayotgan lisoniy vositaning kontekstual ekvivalenti "ukalar" ekanligina o'zbek adibi ishonch hosil qiladi: asar bosh qahramoni Martinning oilasida farzandlar ko'p bo'lib, ularning eng kattasi, ya'ni to'ng'ich farzand qiz bola - Gertruda ismli qiz edi. Tarjima qilinayotgan jumla aynan shu qiz nomidan aytilgan:

- Of all her wondering brood of brothers he had always been her favorite. -M.E.68
- Iz vseh eyo stranstvuyus`hih po miru brat`ev Martin samyim lyubimyim. -M.I.36
- Uning darbadar ukalari orasida Martin eng sevimlisi edi. -M.I.43

Amerikalik adib Teodor Dreyzer qalamiga mansub "Bahti qaro Kerri" nomli romanning o'zbek tilidagi talqini O'tkir Usmonov tomonidan amalga oshirilgan va o'zbek kitobhonlari hukmiga havola etildi. Aytish joizki, ayni nashr keng ommaga ma'qul bo'ldi.

Asarning ilk boblari bosh qahramon Kerri ismli qizning o'z bahtini topish maqsadida Chikago shahriga yo'l olgani haqida qikoya qiladi. U erda uning qarindoshi, ya'ni katta opasi o'z oilasi bilan yashardi. Asarda qo'llangan "sister" so'zini aniq ekvivalenti bilan tarjima qilish bir necha boblarni o'qish orqali amalga oshirildi: Ma'lum bo'lishicha Kerri uyda kenja qiz bo'lib, uning katta opasi turmushga chiqib boshqa shtatga ko'chib ketadi. Bu holatni aniq anglagan tarjimon so'zi "singil" tarzida emas, balki "opa" talqini bilan o'girishga muvaffaq bo'ldi:

- "I am going to visit my sister" she explained. -S.C.26
- Opamni ko'rgani ketayapman, -deb javob berdi Kerri -B.K.7

Navbatdagi misol namunada ham "sister" so'zining o'zgacha bir talqinini ko'rishimiz mumkin:

- Sister Carrie gazed out of window -S.C.29
- Jajji Kerri derazadan qarab borardi. -B.K.11

Ushbu vaziyatda o'zbek tarjimoni ham erkin ham ijodiy tarjima qilishga muvaffaq bo'ladi. tarjimon "sister" lisoniy vositasini kontekstual ma'no bilan almashtirib ishga ijodiy yondoshgan. Zero, keng ma'nodagi kontekst orqali shu narsa ayon bo'ladiki, Kerri ismli qiz oilada qiz farzandlarning kenjasi bo'lgani sabab unga "jajji Kerri" deya murojaat qilishga odatlanishgan edi. Biroq, bu o'rinda "qizaloq" yoki "qizcha" vositalarini ham qo'llash mumkin bo'ladi. Shuningdek qiz "bahti qaro" bo'lib ulgurmagan edi.

Yaqin do'stona munosabatlarni ifoda etmoqchi bo'lgan inglizlar askariyat hollarda "friend" so'ziga murojaat etadilar. Rus millati vakillari esa ayni shu so'zning lug'aviy ekvivalenti "drug" yoki "tovarish" kabi variantlarini qo'llash orqali ifodalaydilar. O'zbek sohiblari ham "friend" so'ziga ayni ekvivalent talqin bo'la oldigan "do'st" variant va unga sinonim bo'lgan "o'rtoq", "oshna", "birodar", "jo'ra", ("dugona") kabi vositalarni qo'llash orqali yaqin do'stona munosabatlarni bayon etadilar. Biroq berilgan asiyat matnda ingliz adibi Charlpz Dikkens qo'llagan "friend" so'zini o'zbeku tarjimoni yuqoridagi lug'aviy ma'nolari bilan almashtirmay, uni keng ma'nodagi kontekst oydinlashtirgan muqobil variant bilan talqin etdi. Shuni ta'kidlash mumkinki, tarjimonimiz asar voqeligini eng oliy ko'rinishini namoyon eta olgan va natijada romandagi missis Meyli obrazining asrab olgan Roz ismli qiziga onalardek mehr ko'rsatgani evaziga uni oddiygina bir do'st timsolida emas, balki undan ham oliyroq, "mehribon inson", "mehribon ona" siyosida gavalangani chiroyli hamda uslubiy tasvirlangan. Chunki, Roz missis Meylini o'z onasidek ko'rardi. Ustiga-ustak personajlar orasidagi yosh tafovvuti ham o'zbek tilida "do'stim" deb talqin etilishini ta'min etmaydi:

"The only friend I ever had" cried Rose. -O.T.518

- Edinstvennyiy moy drug! -voskliknula Roz, prijimayas`k ney. -O.T.407

- Olamda yakkayu-yagona meqribonim! -dedi Roz jo'shib, uning pinjiga kirib Badiiy asarni o'zga tildan tarjima qilish, ustiga-ustak adekvat tarjima qilish doimo mashaqqatli jaran bo'lgan. Biror bir o'girilatgan so'zning lug'aviy ma'nosi to'liq to'g'ri kelmasa va zaruriy tarjima variantini topish murakkablashsa tarjimon butun bir bob yoki birnecha boblarni diqqat bilan o'qib chiqishga to'g'ri keladi. Zero, ko'r-ko'rona qilingan ijodning o'girilayotgan lisoniy vositaning makrokontekstual ma'nosini topish taqazo etiladi.

Jek Londonning "Martin Iden" nomli asarida ishlatilgan inglizcha "to see smb. through..." fe'li luqatlarda "biror kimsaga ishni ohiriga etkazishda ko'maklashmoq" (pomogatp komu libo dovesti delo do konca) ma'nosi berilgan. Ammo bu variantni ayni voqelikni tarjima qilishda qo'llash noo'rin: asar personaj-aridan biri bo'lmish Artur obrazi bosh qahramon Martinning tartibsiz noadabiy buzuq nutqi va o'zining fikricha, begona honadona u uchun noqulay bo'layotganini nazarda tutib "sharmanda qilmaydi" degan uy-fikrni bayon etadi.

Shuni ham e'tiborga olish joizki, o'zbek adib-tarjimoni Qodir Mirmuhammadov ruscha "ne vidat", ya'ni- hoinlik qilmoq, biror kimsani sotmoq - talqinlaridan uzoqlashgan holda "sharmanda qilmoq" tarzida adekvat tarjimani amalga oshirdi:

- "He'll see me through all right" -M.E.17

- On menya ne vyidast -M.I.3

- U meni sharmanda qilmaydi -M.I.3

Navbatdagi tarjima namunasida shu narsani ko'rish mumkinki, "child" (rebenok) so'zi o'zining lug'aviy asl ma'nosida o'girilmay, balki yanada aniq, oydinlashgan kontekstual yaqin bir tarjima variant, ya'ni "jiyan" talqini orqali o'zbek tiliga tarjima qilingan: ayni boblardagi voqelik shundan dalolat beradiki, yiqalayotgan bir bolakay asar qahramoni Martin Idenning katta opasi Gertrudaning o'qli.

Demak, Martinning jiyanini:

"Come here, Alfred," he called to the crying child -M.E.57

- Idi syuda, Al`fred, - kriknul on plachu`mu rebenku -M.I.35

- Bu yoqqa kel, Alfred! - deb chaqirdi u yiqalab turgan jiyanini,... -M.I.43

Quyida keltirilgan navbatdagi misol ham tarjimaning adekvatligini yaqqol namuna sifatida ko'rsatadi. Jumalalarda, ingliz tilidagi "grammar" lisoniy vositasi ikki hil talqin bilan o'girilganki, birinchi holatda so'zning keng kontekst talab qilgan ma'no ifodalansa, ikkinchi holatda lug'aviy

ma'no ekvivalenti ifoda etilgan. Birinchi talqin ruscha varinatga ndoshilgan holda, unga yaqinroq ma'no va vazifaviy uyg'unlik yuzaga kelgan: asar bosh qahramoni Martin oddiy dengizchi-matros yigit bo'lib, uning so'zlashuv-og'zaki nutqi tilning grammatik qonun-qoidalariga rioya etmagan ko'rinishdagi ancha betartib nutq edi. Agar, tarjimon bu vaziyatda ham o'girilatgan "grammar" so'zini lug'aviy "grammatika" ma'no ko'rinishida tarjima qilganda mantiqsizlikka yo'l qo'ygan bo'lardi. Zero, keyingi jumlada aynan lug'aviy ekvivalent qo'llanishi kontekst talab etadi:

"I should say the first thing of all would be get a grammar" -M.E.81

- Vam obo-perviyiy, nado bo' zanyat'ya yazyikom -M.I.55

- Birinchi galda, siz o'z nutqingizga e'tibor bersangiz yahshi bo'lardi.

O'girilayotgan so'zning ayni kontekstual ma'no va vazifasini yahshi anglagan tarjimon o'zining filologik bilimlariga asoslanib, grammatika-til (nutq) materiallaridan biri deb to'g'ri haragan holda adekvat tarjimini yuzaga keltirgan.

Yuqorida qayd etilgan misolda "grammatika" (grammar) so'zi mazmunida "nutq" tushunchasi anglashilgan oydinlashgan bo'lsa, navbatdagi talqinda esa, aynan so'zning lug'aviy markaziy ekvivalenti kontekstda oydinlashadi. Zero, asar voqeligida ikki qahramon, ya'ni Martin va Ruf orasidagi o'zaro suhbat davomida grammatik qonun-qoidalarga oid masalalar tilga olinadiki, bu vaziyatda yuqoridagi talqin singari "nutq" deya tarjima qilish o'rinsiz. Asar qahramoni o'z nutqini yaxshilash uchun ishni "grammatika"dan boshlashi tabiiy holat ekanligi tarjimonlarni mantiqiy yondoshishga undagan:

- "What you need is the grammar" -M.E.83

- No luchshe vsego vam nachatp s grammatiki -M.I.56

- Lekin yahshisi siz grammatikadan boshlasangiz ma'qul -M.I.69

## IKKINCHI BOB

### MUALLIF USLUBI, OBRAZLILIK VA TA'SIRCHANLILIKNI TARJIMADA BERILISHI

#### 2.1. Tarjimada uslubiy tilni his etish ko'nikmalari

Har bir badiiy asar shakl va mazmunning dialektik birligini tashkil etadi. Bu hususiyatning badiiy tarjimada qayta yaratilishi to'la-to'kis adekvatlikka erishishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ba'zi tarjimonlar faoliyatida kuzatilganidek, mazmun birinchi o'ringa qo'yilib, shaklga e'tiborsizlik bilan qaraladigan bo'lsa, muallif uslubi hamda personajlar nutqlari tasviri to'laqonli chiqmaydi. Tarjima hamma vaqt shakl va mazmunni bir butun holda qayta tiklashdek ijodiy jarayon bo'lib, u tarjimondan orginalning mazmun va g'oya birligini yaratish bilan bir qatorda uning muvofiq shaklini tiklashni ham talab qiladi.

Ilmiy va tanqidiy adabiyotda shakl va mazmunning dialektik birligini tarjimada qayta yaratish zarurligi haqidagi fikr ko'p uchraydi. Ammo mavjud ishlarning birortasida ham bu masala misollar asosida, kengroq va atroflicha yoritib berilmagan. Tarjimada shakl va mazmun birligining qayta tiklanishiga bag'ishlangan birorta mahsus ish ham hozirgacha maydonga kelgan emas. Bu hol biz uchun ham mazkur masalani ilmiy-nazariy aspektda kengroq va chuqurroq yoritib berish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Shuning uchun ham biz ishimizning ushbu bo'limida bu masalaning ayrim jihatlarinigina yoritish bilan kifoyalanamiz. Mazmun va shakl birligining tarjimada to'laqonli aks ettirilishi san'atkordan faqatgina amaliy emas, balki nazariy bilimlar bilan ham qurollangan bo'lishini talab etadi. Til hodisalari sirlarini o'zlashtirib olmasdan, original va tarjima tillarining o'zlariga hos qonun-qoidalaridan hamda avtorning individual-ijodiy uslublaridan habardor bo'lmay turib orginal ruhini to'la talqin etish aslo mumkin emas. Orginalning shakl va mazmun birligini qayta yaratishning nihoyatda murakkabligi ba'zi malaka va nazariy jihatdan uncha etuk bo'lmagan tarjimonlarni umidsizlantirib qo'yadi. Mashhur tarjimonshunos G.R.Gachechiladze haqli ravishda: "Birinchi ko'rinishda asarni qayta yaratish uning shakl va mazmun birligini takrorlash yo'li bilangina amalga oshishi mumkinday bo'lsa

(shaklning asosiy elementi esa asar ijod etilgan tildir), tarjima qilish, darhaqiqat, imkoniyatdan tashqari. Ammo bu boshi berkdiray bo'lib ko'ringan ko'chadan chiqib olish imkoniyati bor: bu tarjimaning san'at ekanligidir. Tarjima shuning uchun ham san'atki, unda shakl va mazmun bir-biridan ajratilgan holda emas, balki bir butun holda qayta yaratiladi... Tarjimon orginalga mos shakl va mazmun birligini yaratish lozim", - deydi.

Yozuvchilar tomonidan personajlarning ataylab individuallashtirilgan nutqi tasvirining ham, asarlar badiiy-ekspressiv asosini tashkil etadigan stilistik priyomlar va badiiy-tasviriy vositalar funkciyalarining ham tarjimada muvofiq shaklda muqobil nutq, priyom va vositalar yordamida aks ettirilishi shakl va mazmun uyg'unligini yuzaga keltiradi.

Har bir birlikning muayyan shaklda ma'lum ma'no va stilistik funkciya ifodasi uchun qo'llanilishi sababli tarjimada birlik shaklining deformaciya qilinishi mazmun to'laqonligining ham, avtor ko'zda tutgan stilistik effektning ham yaralmay qolishiga olib keladi.

Turg'un birliklar qismlarining bir-birlariga ohangdoshligi, qofiyadoshligini qayta yarata bilish ham tarjimaning mazmun va shakl butunligini ta'min etadi. Chunki ko'p hollarda birliklar tarkiblaridagi stilistik effekt qisman butunlay ohangdoshlik asosida yaratiladi.

Odatda barcha yoshlikdan o'rganilgan, odatlanilgan vositalar norma sifatida qabul qilinadi. Binobarin, har bir dialekt sohiblari ham o'zlarining nutqlarini eng to'g'ri hisoblaganlari holda, boshqa dialektlarda gapiruvchilarni hatto adabiy nutqda so'zlovchilarni ham til normasini buzayotganlikda ayblaydilar. Ammo hammabop umumhalq tili nutqining adabiy formasi bo'lib, bu formani egallashning asosiy sharti tilning adabiy normalarini o'zlashtirib olishdir. So'zlovchi adabiy til normalarini nutqiga singdirib olar ekan, hamisha uning buzilishiga qarashi ongli ravishda kurashadi va o'z kundalik hayoti va faoliyatida undan iloji boricha unumli foydalanishga, eng nozik va rang-barang ma'no ottenkalarini ham to'g'ri va silliq ifoda etishga harakat qiladi.

Bayon etilgan fikrlarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, har bir milliy til normalar yig'indisidan tarkib topgan ekan, fikrning tabiiy yoki g'ayri tabiiy ifoda etilishi san'atkorning ana shu normalarga qay darajada rioya qilishiga bog'liq bo'lib, bu masala asosan quyidagicha hulosalarga kelish imkoniyatini beradi:

1. Ba'zan tarjimonlar orginaldagi birliklarning yasalishlari va komponentlarining o'zaro birikishlarini, jumalarning qurilishlari va so'z tartiblarini o'zicha saqlab qolish yo'li bilan tarjima tili uchun yot bo'lgan shakllarni hosil qiladilar. Bu hol ifodaning g'ayri tabiiy jaranglashiga, hatto ko'p hollarda avtor ko'zda tutgan fikrning kitobhonlarga etib bormay qolishiga ham olib keladi. CHunki har bir birlik o'zining norma sifatida qabul qilingan shaklida ma'lum ma'no va stilistik funkciya ifodasi uchun hizmat qiladi.
2. Ma'lum ma'no va stilistik funkciya turli tillarda qator hollarda turlicha semantikali komponentlar birikuvidan hosil bo'lgan birliklar vositasida ifoda etilar ekan, tarjima jarayonida har qaysi tilda norma sifatida qabul qilingan komponentlar uyushmasini nazarda tutishga funkcional uyg'unlikni yuzaga keltirishi mumkin.
3. Jonli adabiy nutq normasi sifatida qaraladigan iqtisod principining birliklar tarkiblarida buzilishi stil g'alizligiga olib keladi.
4. U yoki bu predmetni atashda halqlar asosan shu predmetning har hil hususiyatlariga asoslanar ekanlar, bu jarayonga har qaysi halqning mustaqil ravishda yondashishi tufayli predmet nomi turli tillarda turlicha semantikali so'zlardan yoki komponentlar birikmasidan tashkil topgan bo'ladiki, tarjima jarayonida ayni jihatning hisobga olish ishigina fikrning normal bayonini ta'min etadi.
5. Orginal tilning o'ziga hos nutq shtamplarini tarjima tilidagi muqobil variantlari bilan almashtirmasdan, ularning funkciyalarini so'zma-so'z tarjima yordamida qayta tiklashga urinish asosan hech qanday samara bermaydi. CHunki bu birliklar nazarda tutilgan funkciyalarni o'z shakl va leksik tarkiblari vositasidagina o'tay olganlari holda, bu shakl va leksik tarkiblar boshqa tillarda zaruriy stilistik effekt yarata olmaydi.

6. Tarjimada ekvivalent birliklarni bir-birlari bilan bilib-bilmay almashtiravermasdan, ularning qamrov imkoniyatlarini, ixtisoslashish hususiyatlarini hisobga olish ham fikrning adabiy til normasi doirasiga bayon etilishida ahamiyati katta.

7. O'zga tillar birliklarining kal'ka usuli vositasida o'g'irilishi natijasida tarjima tilida paydo bo'lgan birliklar ko'p hollarda til normasining hazm darajasida jaranglab, fikr bayon qilishning zaruriy vositalari sifatida tilning lug'at tarkibidan mustahkam o'rin olsalar, tarjima tilida orginaldagi frezeologik birliknikiga ba'zi komponentlari o'hshamaydigan ekvivalent vositaning mavjudligi birlikning moddiy jihatdan aniq tarjimasida hosil bo'lgan birikmaning tabiiy ohang kasb etishiga halal beradi: birikma tarjima tilidagi birlikning buzib qo'llanilgan shakliga o'hshab, quloqqa g'ayri tabiiy eshitiladi.

8. Bir-birlaridan tarkiblarida o'zlari mansub bo'lgan halqlar turmush tushunchalarini aks ettiradigan komponentlari mavjudligi bilan farq qiladigan shakl til ekvivalent birliklarining tarjima jarayonida birini ikkinchisi orqali o'g'irishda tarjimonlar oldida asosan ikki hil havf ko'ndalang bo'ladi: birinchidan, orginal tili birligi komponentini tarjima tili birligi komponenti orqali almashtirish yo'li bilan asl nushani milliyashtirib qo'yish; ikkinchidan, orginaldagi komponentni o'zicha qoldirib, avtor ko'zda tutgan stilistik effektning kitobhonlarga etib borishini ta'minlay olmaslikdir. Bu mushkulotlarni engishning birdan-bir sharti tarjimonlarning o'z mas'uliyatlariga ijodiy munosabatda bo'lganlari holda amaliy faoliyatning adekvat tarjimalar yaratish bobidagi yutuqlaridan unumli foydalanishlaridir.

9. O'zlari mansub bo'lgan halqlar tarihi, har hil afsonalari, urf-odatlarini, diniy, siyosiy va estetik qarashlari asosida paydo bo'lgan ekvivalentlarga ega bo'lmagan tillarga moddiy jihatdan aniq tarjima qilish ijobiy natija bermaydi: birlik asosida yotgan etimologiya tarjima tili vakillariga tushunarli bo'lmaganligi sababli, hosil bo'lgan birikma orginal ma'nosini kitobhonlarga etkazib berishga ojizlik qiladi.

10. Tillarning mustaqil tarixiy taraqqiyot jarayonini boshlaridan kechirishlari ma'lum ma'no va stilistik funkciyalarning ifodasi uchun qo'llaniladigan turli tillar frezeologik birliklarning ko'p hollarda turlicha leksik tarkiblardan iborat bo'lib qolishlariga sabab bo'lar ekan, bunday birliklarni bir tildan ikkinchi tilga mavjud muqobil variantlari yordamida o'g'irmasdan, moddiy jihatdan aniq tarjima qilish kamdan-kam ijobiy natija beradi. Chunki hosil bo'lgan so'zlar birikmalarining mantiqiy-tarixiy asosdan holi bo'lishlari, ularning nazarda tutilgan ma'no va funkciyalarni til normasi hazm qila oldigan darajada aks ettirishlariga yo'l qo'ymaydi.

Grammatik normalarga rioya qilish avvalo jumla shakllarini yahshi bilish va ulardan mohirona foydalanishni, so'ngra jumladagi o'zak, negiz va qo'shimchalar o'rtalaridagi munosabatlarning to'g'ri bo'lishini, ega va kesimning mosligini, ikkinchi darajali bo'laklar hususiyatlariga yahshi e'tibor berishni hamda so'z tartibining qoidaga muvofiq bo'lishini talab etadi. Tinish belgilari jumalarning to'g'ri tuzilishi va ulardagi fikrning aniq ifodalanishi uchun hizmat qilar ekan, ularning fikr maqsadiga muvofiq qo'yilishi ham muayyan tekstdagi fikrni yozuvchi bayon etgandek tushunish imkoniyatini beradi.

Har bir tilning o'ziga hos hususiyatlarga ega ekanligi orginalda foydalanilgan grammatik shakllarni tarjima tiliga ko'r-ko'rona ko'chirishni emas, balki ular vositasida ifoda etilgan fikrlarni muqobil shakllar yordamida funkconal qayta tiklashni taqozo etadi. Amaliy faoliyatga shu nuqtai nazardan yondashilgandagina tarjima tilida orginaldagi grammatik shakllarga mos shaklli vositalarning yo'qligi ahamiyatini yo'qotadi. Binobarin, ikki til shakllarining o'hshashligi formal karakter kasb etadi.

## **2.2. Hissiy-ekspressiv vositalarni erkin ma'nodagi leksik birlik sifatida yuzaga kelishi va tarjimada aks ettirish masalasi**

Ma'lumki hayot, yashash nihoyatda chuqur mazmunga ega. Aks holda hech bir mavjudot ongli yoki beihtiyor ravishda unga intilmagan, uni sevmagan bo'lar edi. Hayotning bu qadar chuqur mazmun kasb etishi uni tashkil etadigan barcha komponentlarning o'zaro mantiqiy bog'lanishda ekanligida hamdir. Jumladan, inson hayoti ham mantiqiy asos zaminiga qurilganligi uchun u doimiy mantiqiy o'sish va o'zgarishdadir. Umuman hayot tasodiflaridan holi bo'lmagan holda, ko'pincha kishilar nazarida yuzaki tasodifday tuyuladigan hayot voqea-hodisalari asosida ham qonuniyatlar, mantiqiy bog'lanishlar mavjud. Demak, mantiqiylik hayotiy zarurat bo'lib, mantiqsizlikka yo'l qo'yilishi hayot qonuniyatlarining sohashtirilishiga, buzilishiga olib keladi.

O'zaro mantiqiy bog'liqlik inson faoliyatining barcha sohalari qatori fikr almashish quroli bo'lgan til hodisalariga ham taalluqlidir. Tilda foydalaniladigan har bir leksik yoki frazeologik birlik esa ma'lum qoidalar asosida yasalishidan tashqari, boshqa birliklar (jumlaning boshqa qismlari) bilan ham kollektiv aql-zakovati, mantiqli tafakkurining mahsuli sifatida namoyon bo'ladigan mavjud qonun-qoidalar asosida birikadi. Bu, qoidaga aylangan bo'ladigan mavjud qonun-qoidalariga rioya qilmaslik til madaniyati va tradiciyasi, shuningdek, undagi mantiqiy butunlikning buzulishiga ham olib keladi.

Umuman til madaniyati tarjima tili madaniyati ham, birinchi navbatda, tilning madaniy normalaridan to'g'ri foydalanishni taqozo etar ekan, normativlik deyarli hamma vaqt mantiqiylik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, goho u yoki bu fikr har hil tarjimonlar tomonidan hilma-hil variantlarda bayon etiladiki, bu variantlarning ba'zilar fonetik, leksik va grammatik jihatlardan mantiqiy to'g'ri tuzilganliklari sababli til madaniyati hazm darajasida bo'lsa, ayrimlari mantiqiy asosdan holi bo'lganliklari tufayli til normasidan, binobarin, madaniyatidan ham uzoq bo'ladi.

Har bir bayon etilgan fikrda so'zlar, so'z birikmalari va jumlar orasidagi o'zaro mazmuniy bog'lanish izchil, tushunarli, beziddiyat bo'lishi kerakki, nutqning ayni hususiyati uni tafakkur faoliyati bilan birlashtiradi. Bas, shunday ekan, o'z navbatida tafakkurning o'zi ham izchil, ishonarli, ziddiyatsiz bo'lishi zarur. Bu hol mantiqiy butunlikni-tafakkur mantiqi bilan nutq bilan nutq-til mantiqining o'zaro bog'liqligini yuzaga keltiradiki, nutq mantiqining buzilishi fikrning noto'g'ri, g'ayri tabiiy bayoniga, binobarin, kishilarining fikrlarini to'g'ri, silliq holda qabul qila olmasliklariga olib keladi.

Mantiqan etuk tarjima yaratish uchun san'atkor o'zi tanlayotgan til vositalarining asosan quyidagi jihatlarini hisobga olishi zarur:

1. Hissiy-ekspressiv vositalar erkin ma'nodagi leksik birliklarning hayotiy haqiqatlar zaminida o'zaro mantiqiy birikuvi asosida yuzaga kelganliklari uchun ham tabiiy jaranglaydi, ular umumlashtirish va obrazlilik yaratish hususiyati kasb etadilarki, tarjimon tanlagan muqobil vositalar ham, Ayni qonuniyatga asoslangan bo'lsagina, funkcionaal adekvatlik yuzaga keladi.
2. Asoslarida yotgan obraz ochiq-oydin ko'zga tashlanib turadigan birliklarning kal'ka usuli yordamida o'g'irilishi aksariyat mantiqiy asosli bo'ladi. Ba'zan tarjimonlar zaruriy stilistik effektini yanada aniqroq yaratib berish maqsadida birliklarning moddiy jihatdan aniq tarjimasini tarkibiga ma'noni konkretlashtiradigan, to'ldiradigan ba'zi so'zlar qo'shadilar, ayrim komponentlarni boshqa so'zlar bilan almashtiradilar. Bunday qo'shish va o'zgartirishlar hosil bo'lgan birikma kontekstiga yopishsagina, ifodaning mantiqiy asosi to'la saqlangani holda, adekvatlik yuzaga keladi.
3. Tarjima jarayonida til birliklarini to'g'ri tanlash mas'uliyati san'atkordan ijodiy jarayon uchun zarur bo'lgan juda ko'p narsalarni bilish bilan birga birliklarning o'ziga hos semantik-stilistik hususiyatlarini puhta o'zlashtirgan holda ish ko'rishni ham talab qiladi. Bu jihat tarjima tilining mantiqiy boy jaranglashida katta ahamiyat kasb etadi.
4. Tarjima tili birliklarini begona, ularga hos bo'lmagan sharoitlarda qo'llash, ularga asossiz ravishda o'zgacha funkciyalar yuklash, tradicion ma'no va funkciyalarini puhta o'zlashtirib olmasdan turib ulardan foydalanish, hilma-hil hato va kamchiliklar qatori, ifodalarning mantiqsiz bayoniga ham sabab bo'ladi.

5. Adekvat tarjima yaratish mas'uliyati birliklarning ko'p ma'noliligini hisobga olishni, kontekst talabidan kelib chiqib, ularning hatto lug'atlarda aks etmagan ma'nolarini ham aniqlagan holda tarjima tili boyligidan unumli foydalanish asosida mantiqan puhta ifodalar yaratishni taqozo etadi.

6. Originalda foydalanilgan turg'un va komparativ-tasviri nutqiy vositalarni moddiy jihatdan aniq o'girish jarayonida keng kitobxonlar ommasi tushunishini hisobga olib, ularning ayrim komponentlarini o'zgartirish, ba'zan ijobiy natija bermasdan, avtor ko'zda tutgan maqsadni noto'g'ri, mantiqsiz talqin etishga olib kelishi mumkin.

7. Frazologik kontaminatsiya yo'li bilan hosil bo'lgan birikmalar komponentlari oralaridagi munosabatning aksariyat mantiqiy asosdan holi bo'lganligi sababli ular hamma vaqt ham tabiiy jaranglayvermaydi. Bunday birikmalar talaffuz etilganda ko'pincha nazarda tutilgan ma'no va stilistik funkciyalar anglashilmasdan, mantiqsizlik ko'zga tashlanadi.

### **2.3. Tarjima tilida obrazlilik va ta'sirchanlilikni ifodalanishi**

Ma'lumki, hayotda har bir shahs o'ziga hos individual qarashlariga, tabiatiga, dunyoqarashiga, fikrlashga va o'z intilishlariga egadir. Bu o'ziga hoslik shahsga hayotiy tajriba, atrof-muhit, jamiyat, erishgan yutuqlari, shuningdek, albatta, nuqson va kamchiliklari orqali singib tajriba asnosida namoyon bo'la boradi.

Badiiy asardagi yaratilgan qahramonlar obrazi, yuqorida keltirilgan harakter qirralari "ikkinchi" va "uchinchi" adabiyotda qanday aks ettirilishi, tarjimon mahorati va tajribasi hususida mulohaza yuritmoqchimiz.

Asar syujeti davom etar ekan, qahramon obrazining hali o'quvchiga tanish bo'lmagan tomonlari, hususiyatlari ketma-ket ochila boradi. Mana shu "ochilish" o'quvchini qahramon ichki his tuyG'ulari, fikrlari bilan yanada yaqindan oshno bo'lishga chorlaydi. Asliyatdagi kabi mutarjimdan ushbu "chorlov"ni aniq anglab, yozuvchi bilan elkama - elka borishi, uning maqsad-muddaolarini ikkinchi (uchinchi) til o'quvchilariga ravon etkaza olishi taqozo etiladi.

Amerikaning mashhur namoyondalaridan hisoblangan, o'zining "sodda til"i bilan kitobxonlar ko'nglini ovlay olgan yozuvchi E.Hemingueyning "Alvido, qurol!" asari o'zbek tilida yangraganiga ko'p vaqt bo'lgan bo'lsada, asarning o'zbekcha tarjimasida obrazlar talqini, ularning ifodalanishi mavzusida hali etarli ishlar qilingan emas.

Leytenant Henriga jarohatidan so'ng turib yurishga ijozat berishganida u Ketrin bilan boqqa sayrga chiqib turadigan bo'ldi. Bir-birlarining diydorlariga termilib, emak-ichmakka narsa tanlab, gohida "Gran Italiya"ga, yana goh-gohida esa "Biffi"ga ovqatlangani tashrif buyurib turishardi. Bosh oficiant Jorjning doim stol olib qo'yishi va uning hushmuomalaligi bois oshiqilar "Gran Italiya"ni hush ko'rishardi.

"Urush tufayli restoranda vinolar bo'yicha mahsus oficiant yo'q edi, shuning uchun men frez vinosiga o'hshash vinolarni so'raganimda, Jorj hijolat chekib qisib qo'yardi.

- Ta'midan qulupnay mazasi keladigan vinolar qiladigan mamlakatdan nima

kutish mumkin, - dedi u.

- Nimasi yomon? - so'radi Ketrin. - Menga hatto yoqadi.
- Sizga yoqsa tatib ko'ring, dedi, - dedi Jorj. - Faqat tenente uchun bir shisha margo qo'shib keltirishga ijozat eting"(1, 119).

Ushbu suhbatdan bosh oficiantning Henriga bo'lgan munosabati leytenantning jiddiy ekanligi, har qanday ko'ngliga o'tirmaydigan restoranlarga borib, har qanday emakni yohud ichimlikni iste'mol qilavermasligi, har qanday ishda, yumushda dono ekanligidan dalolat beradi va bu o'zbek kitobhoni shuurida qahramonning sergaklik, sinchkovlik kabi fazilatlarini, mohir mutarjim Ibrohim G'ofurov tomonidan maromiga etkazib tarjima qilingan.

"They had no wine waiter because of the war and George would smile ashamedly when I asked about wines like fresa" (2, 113).

Parchadagi "would smile ashamedly" ("hijolat chekib, jilmayib qo'yardi") jumlasini ayni paytda frez vinosiga o'xshash vino topilmasligi nazarda tutilib, o'zbekcha tarjima variantida "hijolat chekib, qisib qo'yardi", deya qiyomiga etkazilgan. Bu esa asarni E.Kalashnikov rus tiliga qilgan tarjimasi bilan qiyos qilganda ham yaqqol ko'zga tashlanadi:

"Iz-za voynyi v restorane ne bylo special'nogo oficianta dlya vin, i Jorj smus`henno ulyibalsya, kogda ya sprashival takie vina, kak freza"(3, 93).

Tarjima tilida asar qahramoni obrazini qayta tiklashda nafaqat bir jumla, balki bir so'zninggina ma'nosi, mazmuni ham katta rol o'ynaydi. Uning no'rin ishlatilishi, har qanday yanglishish tarjimasida qayta yaratilayotgan asar qahramoni, uning harakterining noto'g'ri talqin etilishi, hatto uni buzib yuborishga sabab bo'lishi shubhasizdir.

Bosh oficiantning "If you imagine a country that makes a wine because it tastes like strawberries" deya mehmonlarga qilgan hitobi o'zbek tilida biroz G'alizlikka uchragandek tuyuladi. Zero, "ta'midan qulupnay mazasi keladigan vinolar qiladigan mamlakatdan nimalar kutish mumkin" deya o'zbek tiliga ritorik so'roq gap shaklida o'girilgan.

"Imagine" so'zining o'zbek tiliga "faraz qilmoq", "tasavvur qilmoq" deb tarjima qilinishini, gapning ingliz tili variantida hech qanday yordamchi, ko'makchi yoki modal fe'l mavjud emasligini, shuningdek, qahramon harakteri maromini hisobga olgan holda "ta'midan qulupnay mazasi keladigan vinolar qiladigan mamlakatni bir tasavvur qilib ko'ring-chi" deb o'girilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunonchi, ingliz tili variantida vino ishlab chiqariladigan mamlakat haqida hech qanday norizolik sezilmayapti, bu o'rinda.

Buning ruscha tarjimasidagi ifodasi asl nushaga biroz bo'lsada yaqinligini, monandligini ham aytib o'tish joizdir:

"Chto mojno skazat` o strane, gde delayut vino, imeyus`hee vkus klubniki, - skazal on.

Leytenant Henrining o'z mahbubasi bilan ushbu emakhonaga kelib turishi odat tusiga aylanadi. Natijada restoran bosh oficiantiga Henrining qanaqa taomlarni, ichimliklarni va hatto emakhonada qaysi stolni tayin ettirishi kabi hislatlari ochila boradi.

"But let me bring a little bottle of margaux for the tenente" (2, 113) (Bu erda "margaux" sifatli Francuz "bordo" vinosi ko'zda tutiladi).

Asar bosh qahramonlarining mard inson ekanliklari, odamlar qadri qimmatini doim bilishlari, ular yordamlarini hech qachon unutmashliklari kabi fazilatlarini nafaqat asar personaji Jorj balki boshqa personajlar Rinal'di, kashish, Piani hamda kasalhonadagi hamshiralar tomonidan ham e'tirof etiladi.

Ba'zida Henri pulga muhtoj bo'lib qoladi. Yordam kerak bo'lganda Jorjning "labbay" deya javob berishi, uning qo'ldan kelguncha qiladigan har qanday yordami qiyin vaziyatlarda asqotadi va bu fikrimizni quvvatlaydi:

"One evening I was short of money and George loaned me a hundred lire.

"That's all right, Tenente", he said. "I know how it is. I know how a man gets short. If you or the lady need money I've always got money" (2, 113).

E.Kalashnikov tarjimasi:

"Odin raz u menya ne hvatilo deneg, i Jorj odoljil mne sto lir.

- Nichego, nichego, tenente, - skazal on. - Byivaet so vsyakim. YA znayu, kak eto byivaet. Esli vam ili ledi ponadobyatsya den`gi, u menya vseгда naydutsya".  
Umuman olganda, "Alvido, qurol!" asaridagi obrazlar talqini uning o'zbek tilidagi tarjima variantida mohirlik bilan aks ettirilgan.

## **UCHINCHI BOB**

### **ASAR TA'SIRCHANLIGINI IFODALASHDA HIZMAT QILUVCHI USULLAR, VOSITALAR HAMDA BIRLIKLARNI TARJIMASI MASALASIDA**

#### **3.1. Hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi usul va vositalar va ularni tarjimasi hususida**

Hamma tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi usul va vositalar mavjud. Ana Shuni til hodisalari jihatidan umumlaShtirib, "usul" deb ataSh mumkin. SHunga ko'ra, tovuSh hodisalarda bo'ladigan hissiy-ekspressivlik f o n e t i k u s u l, so'z Shakllarida ifodalaniShi esa m o r f o l o g i k u s u l deyiladi. SHu jihatdan o'zbek tilida hissiy-ekspressivlik ifodalaniShining fonetik, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik usullari belgilanadi . YUqoridagilardan leksik-frazeologik usul haqida so'z yuritadigan bo'lsak, hissiy-ekspressivlikning lug'aviy birliklar vositasida, ya'ni so'z va frazeologizmlar bilan ifodalaniShiga l e k s i k - f r a z e o l o g i k u s u l deyiladi .

Ma'lumki, o'zbek tili leksik qatlamining anchagina qismini ko'p ma'noli so'zlar taShkil etadi. Bunday so'zlar bir joyda o'z ma'nosida qo'llansa, ikkinchi bir matnda ko'chma ma'noda iShlatiliShi mumkin. Ana Shu ko'chma ma'noda kelganda so'zlar hissiy-ekspressivlikni ifodalaydi.

So'z ma'nosining boShqa tomonga siljiShi ko'pincha uning o'zi uchun xos bo'lmagan matn ichida kelganda yuz beradi . So'zni o'ziga xos matn ichida qo'llaSh, voqelikni maxsus ta'riflaSh asosida ma'no ko'chiShi hosil qilinadi.

So'z ma'nolari turli yo'l bilan ko'chadi. SHu tariqa nutqiy timsol yaratiladi, ekspressiv his-tuyg'ularni ifodalaShning maxsus usullari kelib chiqadi. SHunga ko'ra tilShunoslikda ma'no ko'chiShining xilma-xil turlari mavjud: metafora (istiora), metonimiya, sinekdoxa, epitet, allegoriya, ironiya, mubolag'a, litota kabilar . Bular rus tilShunosligida troplar (tropyi) deyiladi. So'zni ko'chma ma'noda qo'llash nutqda yangi mazmundagi so'z birikmalarini vujudga keltiradi. Nutqni boShqacha ifodalangan yangi fikr bilan boyitadi, notiqning ma'lum hodisaga ijobiy (simpatiya) yohud salbiy (antisimpatiya) munosabatini bildiriSh yo baho beriSh uchun qulay imkon yaratadi . Troplar orasida hissiy-ekspressivlikni ifodalaShda eng boy va mahsuldori - istiora, ya'ni metafora. Metafora (grekcha: ko'chiriSh) - biror predmet Shaklining, belgisining, harakatining o'xshash tomonini boshqasiga ko'chishidir: Shakliy o'xshashlik - odam qulog'i - qozonning qulog'i. Umuman mavjudotlarning a'zolari bilan bog'liq ko'chiShlar ham juda ko'p uchraydi: stolning oyog'i, arraning tiShi, o'choqning og'zi, ariqning labi, ko'chaning boshi, kemanding tumshug'i va hokazo. Belgi o'xshashligi - engil eshik - engil ta'zim. Issiq yuz, sovuq xabar, shirin so'z, yorug' yuz, ochiq ko'ngil va boShqalar. Harakat o'xshashligi - ipni uzmoq (o'z ma'nosida) - qarzni uzmoq (ko'chma ma'noda). O'zbek tilidagi harakat bildiruvchi har bir so'z ko'chma ma'noga egadir . Predmet, voqea-hodisalarning biror tomondan o'xShaSh belgilari asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chirish metaforalarni yuzaga keltiradi. Demak, ma'lum belgiga ko'ra o'xshashli ko'chish metaforani belgilovchi muhim xususiyatdir. Shuning uchun G. L. Abramovich metaforani o'xshatishning yashirin turi sifatida baholaydi . A. T. Rubaydo esa metafora zamirida o'xshatish yotiShini ta'kidlaydi . Avvalo, metafora haqida fikr yuritganda, uning bir-biridan vazifasiga ko'ra farqlanuvchi ikki turi - lingvistik va badiiy metaforalarning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlaSh lozim .

Lingvistik metaforalarning hosil bo'lishi so'zlardagi ko'p ma'nolilik bilan bog'liq. Bunda ikki predmetning nomi bir so'z bilan nomlanadi, ya'ni bir predmetning nomini ifodalaydigan so'z tashqi o'xshashlik asosida ikkinchisining ham nomiga aylanadi. Masalan, yog'ochning ko'zi - odamning ko'zi kabi. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti natijasida hosil bo'ladi. Shuningdek, bunday metaforalar asosan, ataSh, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo'yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan sub'ektiv munosabat aks etmaydi. Demak, til birligi sanaluvchi bunday metaforalarda so'zlarning ma'no doirasi kengayadi, ular yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi . Olib borgan tadqiqotimizdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, muallif o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida 500 dan ortiq metaforadan foydalangan. Ushbu ma'no ko'chishlari muallif fikrini obrazli qilib ifodalashga xizmat qilgan. Asarda metaforalardan quyidagicha foydalanilgan:

1. Shakliy o'xshashlik: "qochoqlar oqimi", "xalq boshiga tushgan xavf-xatar", "ko'p qirrali islom dunyosi", "jurnalistlarning qalami", "siyosatchilarning tajribali qo'li", "daryo qirg'oqlari yoqasi".
2. Tabiat mahsullari bilan bog'liq ma'no ko'chiShi - "jamiyatning hayotbaxsh kurtaklari".
3. Belgi o'xshashligi orqali ma'no ko'chishi - "sovuq urush", "tanglikning chuqurligi va keskinligi", "urush hidi", "tajovuzkorlik yo'li", "engil yo'l", "mo'rt bo'lib turganligi", "fikr mulohazalarning tayanch nuqtasi", "xavfsizlik va barqarorlik yo'li", "hal qilinmagan va gazak olib ketgan muammolar", "tinchlik yo'li", "g'oyalarning aldamchi jozibasi", "aniq-ravshan harakatlar tusi", "energetika qamali qarShisida", "ekstremizm yo'lida qudratli to'siq", "iliq munosabat", "qudratli markazning kuchli qo'li", "ifloslantiriSh o'chog'i", "demokratiya bayrog'i ostida", "jaholatparastlik urug'i", "tinch yo'l bilan", "koinot sirlari qo'yni", "beqarorlik to'lqini", "o'zgalar irodasining quli", "achchiq tajriba", "tarixiy ildizlar".
4. Harakat o'xshashligi orqali ma'no ko'chishi - "muammolar yuki ostida qolgan", "do'stlik va hamkorlik qo'lini cho'zmoq", "zimdan tutab yotgan", "kuchlar qutbining yo'lida bostirib kelingan", "davlatchilikdan mahrum bo'lish yoqasiga olib keliShi", "o'nlab yillarga orqaga uloqtirib taShlamoq", "ziddiyatlar olovini yoqmoq", "yangi uyni qurish va obod qilish", "butun-butun xalqlar va mamlakatlarni ancha orqaga uloqtirib tashlamoq", "cho'l-sahrolarning bostirib keliShi", "o'z manfaatlar doirasidan chetga chiqmagan", "yo'q bo'lib ketish yoqasiga keltirib qo'ymoq", "dengiz halok bo'lgan hol", "Orol halok bo'lishi".

Metafora leksik ma'no taraqqiyotini ko'rsatuvchi til hodisasi bo'lib, u so'zlarning ko'chgan ma'nosi asosida yaratiladi. Shunga ko'ra, metaforani oddiy o'xshatish deyish ham mumkin. Chunki u qisqartirilgan o'xshatish. Metaforalarni qisqartirilgan o'xshatish deganda nima nazarda tutiladi? Masalan, I. A. Karimovning tadqiqotimizga asosiy tahliliy manba bo'lgan O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asarida "beqarorlik o'chog'i" iborasi qo'llangan. Bu ifoda orqali muallif "rivojlanish to'xtagan, yon-atrofdagilariga notinchlik ulashadigan, siyosiy jihatdan beqarorlik manbasi"ni ifodalamoqda. Yoki ushbu asardan yana bir misol - "do'stlik va hamkorlik qo'lini cho'zmoq". Ushbu yaxlit birikma "ahil va inoq bo'lib yashamoq, hamkorlikda bo'lmoq, tinch turmush tarzini birgalikda bahamjihat bo'lib tashkil qilmoq" kabi ma'nolarni o'zida jamlagan holda qo'llanilyapti.

Tilda metaforik iboralarni qo'llashga, asosan, mavjud leksik vositalar so'zlovchining nutq predmetiga nisbatan uning istagi darajasida yorqin, obrazli qilib ifodalashda o'zlik qilib qolishi natijasida ehtiyoj tug'iladi. Aynan metaforik iboralar qo'llash usuli bilan hissiy-emocional ma'nolar ifodalashga erishiladi.

Bu holat, albatta, ijtimoiy-siyosiy asarlarga ham xos. Bir til doirasida emocional-ekspressivlikni qo'llash, shunday ifodaga nisbatan ehtiyojning tug'ilishi kabi masalalarni ko'rib chiqar ekanmiz, albatta, ana shu usulni tarjima orqali ikkinchi bir tilda aynan o'ziday ifodalash mumkinmi yoki shart emasmi? Mumkin bo'lsa, bunga qanday tamoyillar asosida erishiladi? Tadqiqotimiz davomida ana shu masalalarga munosabat bildirishga harakat qildik.

Bizga ma'lumki, tarjima ishi asar yozgan ijodkor mehnatidan kam bo'lmagan ijodiy faoliyatdir. Bir asarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish uchun uni boshqa til vositalari yordamida qayta yaratish kerak bo'ladi. Bu sohada tarjimonning faqat til va uning grammatik qoidalarini bilishigina etarli emas. Original asarni boshqa tilda qayta yaratish uchun ijodkor tarjimondan katta mas'uliyat va ko'p bilim talab etiladi. U tarjimondan ikki tilni mukammal bilishdan tashqari, asarda aks etgan voqelik to'g'risida chuqur ma'lumotga ega bo'lishini talab qiladi. Masalan, asarning "Xavfsizlikka tahdid" deb nomlangan birinchi bobida Shunday deyiladi: "Buning ustiga, yurtimiz mintaqadagi diniy ekstremizm, etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirib kelinayotgan, ichki mojaro avj olgan Afg'oniston kabi beqarorlik o'chog'i bilan chegaradosh". Muallif o'z fikrlarini keng ommaga moslashtirgan holda tilning oddiy ifoda usullaridan, kerak bo'lsa, xalq tilidan kelib chiqqan holda ish yuritgan. "Beqarorlik o'chog'i" buzg'unchi g'oyalarni ifodalovchi ibora bo'lib, u orqali muallif mustaqil respublikamizni buzg'unchilik avj olgan, rivojlanish u yoqda tursin, hatto, yon atrofidagi tinch mamlakatga ham xavf solib turgan davlat bilan chegaradosh ekanini ta'kidlaydi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan olib qaralganda, "o'choq" so'zi o'z ma'nosida odatda uch tomoni yopiq bo'lib, ichiga o't yoqiladigan, ovqat pishirish uchun ustiga qozon o'rnatiladigan qurilma. Loy o'choq. Er o'choq. Temir o'choq. Masalan, o'choqqa unnamoq-ovqat tayyorlashga kirishmoq. Boboqul darrov o'choqqa unnadi. (S. Anorboev. Oqsoy). Ko'chma ma'noda esa - biror narsa paydo bo'ladigan, amalga oshadigan, tarqaladigan joy; manba, markaz. Bilim o'chog'i, ma'rifat o'chog'i. Misol: Guvohnoma qalbaki, endi ana shu qalbakilik o'chog'ini topish lozim. Endi ana shunday o'ziga xoslikka ega bo'lgan timsoliy (obrazli) ifodalarning ingliz tiliga qanday tarjima qilinganini ko'rib o'taylik.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, asar muallifi o'z fikr-mulohazalarini ifodalashda tilning uslubiy vositalaridan keng foydalangan. Muallifning o'z maqsadini ustalik bilan bayon qilishi, faqat uning o'zigagina xos bo'lgan ifoda usullari tarjima matnida qay daraja aks etgan? Quyida aslyatda berilgan metaforik iboraning ingliz tiliga qilingan tarjimasini tahlil qilamiz:

"...Nothing to say about the common border with such hotbed of instability in this region as Afghanistan, torn apart by internal conflicts, being encouraged by religious extremism, ethnic intolerance, drug trafficking and external forces of different kinds".

Asarni o'zbek tilida o'qigan har qanday o'quvchi, albatta, "beqarorlik o'chog'i" ifodasi zimmasiga yuklatilgan ma'no-mazmunni hech qiyinchiliksiz tushuna olishi shubhasiz. ibora orqali qandaydir ma'no ifodalaniishi bilan bir qatorda hissiy ta'sirchanlik ham yaqqol namoyon bo'lgan. Ushbu ko'chma ma'noda qo'llanilgan "beqarorlik o'chog'i" iborasi ingliz tiliga "hotbed of

instability" deb o'girilgan. Ingliz tilidagi "hotbed" so'zi o'zbek tiliga "rivojlanish to'xtagan sharoit yoki joy" ma'nosini anglatadi. Bu erda asliytdagi "o'choq" so'zining ko'chma ta'sirchan ma'nosi ingliz tilidagi o'ziga teng bo'lgan muqobili - hotbed so'zi yordamida ifodalangan.

"Hotbed" so'zi aslida "beqaror, rivojlaniSh to'xtagan joy", ma'nolarini anglatish bilan bir qatorda ko'chma ma'noda "manba, maskan" degan ma'nolarni ham ifodalaydi. Demak, asliytdagi metafora ingliz tiliga shunga teng ma'noga ega bo'lgan metafora yordamida tarjima qilingan.

Aynan mana shu ibora asarning rus tilidagi nashrida ham o'z aksini topgan:

"... K tomu je granichit s takim ochagom nestabil`nosti v regione, kak Afganistan, razdiraemyiy vnutrennimi konfliktami, stimuliruemyimi religioznyim ekstremizmom, etnicheskoy neterpimost`yu, narkobiznesom i raznogo roda vneShnimi silami".

Asarda berilgan "beqarorlik o'chog'i" - metaforik ibora rus tiliga "ochagom nestabil`nosti" tarzida berilgan. Rus tilidagi "ochag" so'zi o'zbek tilidagi "o'choq" so'ziga to'g'ri keladi va bu erda ham "ochag" so'zining ko'chma ma'nosidan foydalanilgan. Ochig'ini aytganda, ochag rus tiliga turkiy tillardan o'zlashgan, ya'ni u o'zimizdagi o'choqning o'zginasi. Shuning uchun ochag so'zi o'zbek tilida o'z ma'nosida o'choq, ko'chma ma'noda esa manba, maskan kabi ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, "ochag voynyi - urush manbai (o'chog'i)", "ochag voennyix provokacii - harbiy ig'vogarliklar manbai". Demak, asarning ingliz tilidagi tarjimalarida muallif qo'llagan metafora aynan metafora yordamida ifodalangan. Ya'ni, yozuvchining ifoda uslubi tarjimada to'la saqlanib qolgan.

Asar muallifi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishish yo'lida ko'p izlangan. Jahon afkor ommasi oldida turgan muammoli masalalarga echim bo'la oladigan omillarni ko'rsatishda tinchlik va barqarorlikka bo'lgan tahdidlarni ro'y-rost ta'kidlab, ana shu tahdidlarga nimalarni qarshi qo'yish mumkinligi haqida ham o'z fikrlarini bildirgan. U tinch-totuv yashash va har qanday yovuz niyatli kuchlarga qarshi turishning yagona yo'li do'stlik va hamkorlikda, bahamjihat ish yuritishda ekanini yana bir bor ta'kidlab quyidagi fikrlarni bildiradi:

"Yangi ming yillikka yo'l ochib borar ekanmiz, hammaga do'stlik va hamkorlik qo'lini cho'zamiz. Xavfsizlik, barqarorlik va sobitqadam rivojlanish degan so'zlar buning ramzidir".

Muallif o'z fikrlarini bayon etishda bunyodkor g'oyalarni targ'ib qiluvchi so'z va so'z birikmalaridan, iboralardan, xalq maqol va matallaridan keng foydalangan. "Do'stlik va hamkorlik qo'lini cho'zamiz" iborasi bu erda "barcha bilan inoq, do'st va hamkorlikda yashaymiz" degan ma'nolarni bildiradi. To'g'ri, ushbu ma'noni oddiy so'zlar orqali ham ifodalash mumkin edi, lekin "do'stlik va hamkorlik qo'lini cho'zamiz" iborasi nafaqat timsoliy (obrazli) tarzda tasvirlashga, balki ma'noni kuchaytirishga ham xizmat qilgan. Albatta, do'stlik va hamkorlikning qo'li bo'lmaydi, lekin muallif o'z fikrini jonli va ta'sirchan qilib ifodalash maqsadida "qo'l" so'zining ko'chma ma'nosidan foydalangan. "Qo'l" o'z ma'nosida - odamning barmoq uchlaridan elkasigacha bo'lgan qismi, a'zosi. Misol: nozik qo'llar, baquvvat qo'llar. U shu a'zoning bilakdan barmoqlar uchigacha bo'lgan qismini, ya'ni panjani ham anglatadi. Misol: qo'l bilan silamoq, qo'l bilan ushlamoq. Hayvonlarning oldingi oyoqlari. Qo'l so'zining uchinchi ma'nosi esa barmoq: besh qo'l baravar emas. Har kimning o'ziga xos yozuv usuli, uslubi, yozuvi, xati ham qo'l so'zi bilan ifodalanishi mumkin. Misol: Xat bilmaydigan og'zaki guvohlar ham bor, yozib beray desam, hamma arizalar bitta odamning qo'li bilan yozilgan, degan shubha bo'lmasin deb (S. Ahmad. Hukum). Qo'lning yana bir ma'nosi kishining o'z qo'li bilan yozgan ismi va familiyasi; imzo: shartnomaga qo'l qo'ymoq - Omborchi: "Bo'ta qo'l qo'ymagan qog'ozni qog'oz demayman", - deb katta ketvordi (S. Ahmad. Hukum). Bu so'zning oltinchi ma'nosi har kimning o'ziga xos ish usuli, uslubi, ishi, xatti-harakati: bu ishda uning qo'li bor. Bu so'z ko'chma ma'noda ham kamida uch ma'noni bildiradi: 1. Ixtiyor, izn. Misol: qo'l ostida, rahbarligi. 2. Imkon, imkoniyat. Misol: Xotin o'z qishlog'iga - ellikboshining qo'li etmaydigan Naymanga ketgan ekan (A. Qahhor, "Qo'shchinor"). 3. Qo'lni qo'lga bermoq - biror sohada ahil, ittifoq bo'lmoq, o'zaro birlashmoq. Misol: Qadrdon dalalar, mehnat tongida qo'lni qo'lga beradiki baxtli yosh (G'ayraty) . I. A. Karimovning mohirona qo'llagan bayon tarzi ingliz tilida qay darajada saqlangan, ingliz

o'quvchisi bundan bahramand bo'la olganmi? Ushbu savolga javob berish uchun asarning inglizcha nashriga murojaat qilamiz:

"Paving our road into the new millennium, we extend to everyone our hands for friendShip and mutual understanding symbolizing this with words: security stability and sustainability of growth and development" .

Asarning inglizcha tarjimasida "do'stlik va hamkorlik qo'lini cho'zmoq" yaxlit iborasi "to extend the hand for friendShip and mutual understanding" deb berilgan.

Bu erda "extend" so'zi o'zbek tiliga "biror kishiga biror narsani yoki vositani taklif qilmoq yoki bermoq" ma'nosini ifodalaydi. "Hand" so'zi esa ingliz tilida tananing biror narsani ushlaydigan qismi, ya'ni "qo'l" ma'nosini anglatadi. Demak, ingliz tilidagi "to extend the hand" iborasi o'zbek tilidagi "qo'lni taklif qilmoq" ma'nosiga to'g'ri kelmoqda. Ingliz tilidagi "friendship and mutual understanding" birikmasi esa "do'stlik va o'zaro biri-birini tushunish (hamkorlik)" ma'nosiga to'g'ri keladi . Bundan kelib chiqadiki, ingliz tilidagi "to extend hands for friendship and mutual understanding" iborasi o'zbek tiliga "do'stlik va o'zaro bir-birini tushunish (hamkorlik) qo'lini taklif qilish" degan ma'noni anglatar ekan.

Tahliliy natijalardan ko'rinib turibdiki, asar tarjimoni muallifning ifoda usulini to'la saqlagan holda yaxlit bir iborani tarjima tilida mavjud bo'lgan unga teng ma'noli ikkinchi bir muqobil ibora bilan ifodalagan va shu tariqa asliyatdagi ta'sirchan ifoda uslubini saqlab qolishga erishgan. O'zbek tilidagi metafora, ya'ni so'zning ko'chma ma'nosi ingliz tilida ham aynan shu so'zning ko'chma ma'nosi yordamida ifodalangan. Asliyatdagi metaforaning mazmuni tarjima tilidagi shunga teng metafora yordamida aks ettirilgan.

Asarning rus tilidagi nashrida ham tahlil qilinayotgan yaxlit ibora "protyagivaem vsem ruku drujby i vzaimoponimaniya" tarzida berilgan. Bu ham "barchaga do'stlik va hamkorlik qo'lini cho'zamiz" degani, bu erda ham istiora istiora tarzida o'tkazilgan.

Tinch-totuv yashash turmush tarziga erishgan, mustaqil O'zbekistonimiz o'ta xavfli bo'lgan urush o'choqlari bilan chegaradosh hududda joylashgan va bu hol, albatta, har daqiqa ogohlikni talab qiladi. Asar muallifi Afg'oniston va Tojikistonda ro'y berayotgan voqealar va ularning oqibatlari haqida fikrlarini timsoliy tarzda tasvirlashda o'ziga xos uslubdan foydalanadi. Afg'oniston va Tojikistonda ro'y berayotgan voqea-hodisalar va ularning oqibatlari haqida quyidagi fikrlarni bildiradi:

"Shunday vaqtda Afg'oniston bilan Tojikistonda yuz berayotgan mojarolar va ularning oqibatlari bu mamlakatlar taraqqiyotini kam deganda o'nlab yillarga orqaga uloqtirib tashladi" .

Albatta, Afg'oniston va Tojikistonda ro'y berayotgan voqealar o'sha mamlakatlardagi rivojlaniSh, oldinga siljishni to'xtatib qo'ygan. Kishilarda kelajakka bo'lgan umid, ishonch yo'qolgan. Tinch turmush tarzi izdan chiqqan. Jamiyatning barcha sohalarida orqaga ketish hollari mavjud. Bularning barchasini jamlagan holda asar muallifi bir so'z bilan ta'sirchan qilib "bu mamlakatlar taraqqiyotini kam deganda o'nlab yillarga orqaga uloqtirib tashladi" deb tasvirlaydi. "Taraqqiyotni orqaga uloqtirmoq" iborasi orqali ma'no keskin kuchaytirilgan. O'zbek tilida "uloqtirmoq" - "uloqmoq, biror tomonga otmoq, itqitmoq" ma'nolarini anglatadi . Lekin ushbu so'z ko'plab ma'joziy ma'nolarga ham ega. Jumladan, mazkur asarda ham uning ma'joziy ma'nosidan foydalanilgan. "Taraqqiyotni ortga uloqtirmoq" iborasida uloqtirmoq so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan, ya'ni rivojlanishning orqada qolib ketganini tasvirlagan, ma'no shu tariqa bo'yoqdor va ta'sirchan qilib ifodalangan. Asarda qo'llangan ushbu ifoda usuli, shu ta'sirchanlik ingliz tiliga qanday o'girilganligini ko'rib chiqamiz:

"Already now, observing the events in Afghanistan and Tadjikistan, it is possible to state that the conflicts, taking place in these countries and their consequences have pushed these states backward for dozens of ears ..." .

Asarda berilgan "Taraqqiyotning kam deganda o'nlab yillarga uloqtirib taShladi" jumlasini ingliz tiliga "have pushed these states backward for dozens of ears" tarzida o'girilgan. Ingliz tilidagi "to push" fe'li o'zbek tiliga "biror kishini yoki biror narsani o'rnidan surib jildirmoq, oldinga surmoq" kabi ma'nolarni anglatadi. Tarjimadagi "have pushed backward" iborasi "to push" fe'lining tugallangan zamon shakli bo'lib, "orqaga surib yubordi, otib yubordi" degan

ma'nolarga ega. Asarda ifodalangan "uloqtirib tashladi" iborasi orqali xuddi taraqqiyotni "o'nlab yillarga" iborasisiz ham Shuncha davrga orqada qolib ketganini anglab olish darajasida ta'sirchan va timsoliy qilib ifodalangan. Bu metaforik ibora yordamida ifodalangan ta'sirchanlik, ma'noning kuchaytirilishi asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida oddiy "to push" fe'lining tugallangan zamon shakli yordamida aks ettirilgan.

Asarni o'zbek tilida o'qigan kitobxon "taraqqiyotni kam deganda o'nlab yillarga uloqtirib taShladi" gapidagi "uloqtirib tashlamoq" iborasi orqali "o'nlab yillarga" degan so'z birikmasisiz ham o'sha davlatlarning taraqqiyoti juda ortda qolib ketganligini osonlik bilan tuShuna oladi. Bu erda muallif "uloqtirib tashlamoq" iborasi yordamida ma'noni ta'sirchan va timsoliy qilib ifodalagan. Ya'ni taraqqiyot ortda qolib ketgan, uning qanchalik ortda qolib ketganligi darajasi asarda "o'nlab yillarga" deyiladi. shuning barobarida "uloqtirib taShladi" iborasi bunga mutanosib holda ma'noni kuchaytiriShga xizmat qilgan.

Asarning inglizcha tarjimasida ushbu ta'sirchanlikni ifodalovchi metaforik iboraning asliyat matnida bajargan vazifasi butunlay aks etmagan. chunki ingliz tilidagi "to push" fe'li oddiygina "surib yubordi" degan neytral ma'noni ifodalaydi, xolos. Bizningcha, asardagi ta'sirchanlikni, muallif uslubini imkon qadar saqlab qoliSh uchun "uloqtirib tashlamoq" degan metaforik iborani ingliz tilidagi "to throw" fe'li bilan ifodalansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ingliz tilidagi "to throw" fe'li o'zbek tiliga "irg'itmoq, uzoqqa otib yubormoq, uloqtirmoq" ma'nolarini ifodalaydi. Bu erda tarjimon so'z tanlaShda noaniqlikka yo'l qo'ygan va buning natijasida muallif tomonidan qo'llangan metaforik iboraning ta'sirchanligi, ma'noni kuchaytirishi tarjima iShida aks ettirilmagan. Bundan taShqari, asarda berilgan "kam deganda" kalimasi tarjimada o'z aksini topmagan. Vaholanki, o'zbek tilidagi "kam deganda" so'z birikmasiga ingliz tilidagi "at least" so'zi muqobil bo'la oladi. Aynan shu so'z birikmasini tashlab ketish ham asar mazmuniga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmagan.

Bu ham tarjima ishini asliyat matnidani yiroqlashtiradi, chunki ushbu tushirib qoldirilgan so'z birikmasi o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, muallif bu so'zni bejiz qo'llamagan. Bu narsa esa tarjimada tushirib qoldirilgan.

Asar tarjimasida uchraydigan bunday kemtiklar ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasiga xos bo'lmagan xususiyatlardan bo'lib, tarjimada biroz g'alizlikni keltirib chiqaradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasida aniqlik, lo'ndalik, muhimi ma'no ifodasi birinchi o'rinda turadi. Tarjimada so'zlarni tushirib qoldirish va umumiy ma'nonigina ifodalaSh ijtimoiy-siyosiy tarjimaga mos xususiyat emas.

Ushbu matnning ruscha nashrini ko'rib chiqamiz:

"Uje seychas, glyadya na Afganistan i Tadjikistan, mojno konstatirovat`, chto proisxodyas`hie tam konfliktyi i ix posledstviya otbrosili eti gosudarstva v ix razvitii kak minimum na desyatki let nazad" .

Asarda berilgan "uloqtirib taShladi" iborasi rus tiliga "otbrosili" so'zi bilan berilgan. Rus tilidagi "otbrosili" so'zi o'zbek tiliga "taShlab yubordi, surib yubordi, otib yubordi" degan ma'nolarni ifodalaydi. Bu erda metaforik ibora rus tilidagi "otbrosili" so'zining ko'chma ma'nosi orqali ifodalagan. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, "otbrosili" so'zi, "mamlakatlarning taraqqiyoti"ga nisbatan olganda, ko'chma ma'noda kelgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'zbek tilidagi ma'no ko'chishini ingliz tiliga o'girishda tarjimonlar iboralarni oddiy so'zlar yordamida yoki tildagi mavjud muqobillari orqali maromiga etkazib tarjima qilishga harakat qilishgan. Har ikkala yo'l ham ijtimoiy-siyosiy tarjima tamoyillariga xos xususiyatlardan. To'g'ri, tarjima ishi ba'zi juz'iy kamchiliklardan xoli emasligini ham tahliliy misollar yordamida ko'rib o'tdik. Lekin bu erda bir narsani inobatga olish kerakki, ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasida asliyatdagi timsoliy birikma, metaforalarning muayyan matndagi ta'sirchanligi, ular anglatadigan asl ma'noga alohida e'tibor beriSh lozim. Zero ular ayni paytda oddiy ma'noga ega bo'lib qolmay, balki siyosiy mohiyat ham kasb etadi.

### **3.2. Ijtimoiy-siyosiy asarlar kinoya va uni tarjimada aks ettirish masalasi**

Kinoya - so'zlarning aks ma'noda qo'llanishidir. Bunday ma'no ko'chishlarini bildirib turish uchun bu so'z yoki so'zlar yozuvda qo'shtirnoqqa olinadi.

Bizga ma'lumki, tilshunoslikda so'z murakkab til vositalaridan sanaladi. U o'zining barcha ichki imkoniyatlarini ma'lum bir matnda namoyon qiladi. So'z tegishli matnlarda nafaqat o'z ma'nosidagina keladi, balki o'z ma'nosiga qarama-qarshi bo'lgan ma'nolarni ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Bu matndan ko'zlangan maqsad bilan bog'liq. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun borliqda mavjud narsa va hodisalarning o'xshash belgilari asosida birining nomi bilan ikkinchisini nomlash, ma'no ko'chishi, o'zgarishidan, ya'ni nutq ta'sirchanligini ta'minlovchi nutqning ifoda va tasvir vositalaridan foydalaniladi.

Matnning hissiy-ekspressivligi hamda ta'sirchanligi fikrni troplar yordamida ifodalaSh orqali ortib boradi. Voqelikni va unga bo'lgan munosabatni maxsus tasvirlaSh uchun so'zlarni o'ziga xos matnda qo'llash, ularga yangi ma'nolar yuklash, so'zlar o'rtasidagi ma'no ko'chishidan foydalanish, qiyoslash munosabati troplarni yuzaga keltiradi.

Troplarning ishlatilishi har qanday nutqni yangi ma'no bo'yoqlariga ega birikmalar, yangi ma'no qatlamlariga ega fikrlar bilan boyitadi, tasvirlanayotgan narsaning yozuvchi yoki so'zlovchi xohlagan tomonini oydinroq qilib ifodalashda, voqea-hodisaning baholash paytini hosil qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Ular matnda berilgan voqea-hodisani individuallashtirish va baholashda katta yordam beradi. Kinoya trop sifatida maqsadli, tagma'noli matn hosil qilishda muhim o'rin tutib, nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-siyosiy nutqqa ham alohida ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Mustaqillik davri ijtimoiy-siyosiy asarlari leksikasi zamon bilan hamnafas bo'lgan holda o'z taraqqiyotiga eriShdi. Bu sohaga ko'plab yangi atamalar kirib keldi. Bu o'z-o'zidan bo'lmadi. Ijtimoiy-siyosiy leksikaning bu qadar rivojlanishida shu davrning siyosatshunos-olimlari, Sharhlovchilari, yozuvchilari, ijodkorlarining xizmatlari beqiyos, albatta. Jumladan, prezidentimiz I. A. Karimov asarlari ham hozirgi kundagi muammolarni bartaraf etish va barqarorlikka erishish yo'llari haqida yozilgan bo'lib, o'z-o'zidan shu davr ijtimoiy-siyosiy leksikasini boyitiShga ulkan hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asari muallifi hozirgi kun uchun juda muhim bo'lgan masalalar, ularning echimlari va farovon kelajakka erishish yo'llari haqida so'z yuritar ekan, ifoda-tasvir vositalaridan biri bo'lmiSh kinoyadan ham o'rinli foydalangan. Shu o'rinda asarda qo'llanilgan kinoyalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning har biri biron bir masalani yoritishga, muallif fikrlarini yanada tushunarliroq qilib ifodalashga xizmat qilgan. Jumladan, diniy masalalarda "din uchun kuraShuvchilar", "yaxshi niyatli kiShilar" kabi kinoyaviy birikmalardan foydalanilgan bo'lsa, ko'r-ko'rona fikrlab eski tuzumni, ma'muriy buyruqbozlikni qo'msayotgan ba'zi bir kimsalarning hatti-harakatlariga nisbatan "ukani boqiSh", tabiatdan, Olloh in'om etgan boyliklardan o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida insofsizlarcha foydalanayotgan kimsalarga nisbatan "yangi boyvachchalar" kabi kinoyalar ishlatilgan. Bundan taShqari, o'zlariga yuqori baho berib, o'z sha'niga dog' tushirgan, xalqlari ommaviy qirg'inbarotlarga va diniy ta'qiblarga uchragan davlatlarga nisbatan "madaniyatli" va "ma'rifatli" kabi kinoyalardan foydalanilgan. Asarning "Mintaqaviy mojarolar" deb nomlangan bobida mustaqil respublikamiz tinchligini saqlaSh va kelajagini ta'minlaSh uchun jon kuydirgan muallif, jumladan, quyidagi fikrlarni bildiradi:

"Biroq shu o'rinda bir gapni aytib o'tmaslik mumkin emas. Aftidan, ana shunday "yaxshi niyatli kiShilar"ning ko'pchiligi tinchlik va tartibni ta'minlash, mojarolar va ular keltirib chiqaradigan salbiy jarayonlar bizning ona zaminimizga ko'chib o'tishiga yo'l qo'ymaslik uchun davlatimiz nechog'li katta kuch-g'ayrat sarflayotganligi haqida o'ylab ko'rmayotganga o'xshaydi"

Xavfsizligimizni ta'minlash, ichki nizolarga barham berish va chetdan bo'ladigan xavf-xatarning oldini olish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, O'zbekiston kuchli strategik hududda joylaShgan. Ustiga-ustak, yon qo'shnilarimiz - Afg'oniston va Tojikiston davlatlarida hali ham barqaror rivojlanish yo'lga qo'yilmagan bir paytda ichimizda paydo

bo'layotgan ba'zi bir kimsalar faqat o'z manfaatlarini ko'zlab fikr yuritayotganlari achinarli hol, albatta.

Yuqorida keltirilgan matnda ana shunday hodisalar va ular ortida turgan nopok kimsalarga munosabat bildirilib, bunday g'araz niyatli kiShilarni kinoya bilan "yaxshi niyatli kishilar" deb ataydi. Bu ham ifoda usulining o'ziga hos bir jihati bo'lib, fikrni yanada ta'sirchan qilib ifodalashga xizmat qiladi. Bularni, bir qaraganda, oddiy so'zlar yordamida "niyati yomon", "o'z manfaati uchun vatanini, qarindosh-urug'lari, aka-ukalarini ham sotib yuboradigan" kimsalar deya ifodalash ham mumkin edi. Ammo unda jozibadorlikka, ta'sirchanlikka eriShib bo'lmas edi. "Yaxshi niyatli kishilar" qo'Shtirnoq ichida qo'llanilib, o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noni ifodalamoqda. Shu bilan muallif o'z ifoda uslubiga xos bo'lgan tarzda maqsadiga erishgan.

Fikrni bayon qilishda toplardan, jumladan, kinoyadan foydalanish hissiy-ekspressivlikni yuzaga keltiradi, ifodalanayotgan fikrning ta'sirchanligini oshiradi, timsoliy va jozibador ifoda uslubiga eriShiladi. Ushbu hissiy-ekspressivlikni o'z holicha, ta'sir kuchini yo'qotmagan holda ikkinchi bir tilda ifodalash mumkinmi? Muallifning uslubi, uning ifoda usullari tarjima ishida ham saqlanadimi? Ya'ni, so'z ta'sirchanligini, timsoliyligini tarjima tilida ham saqlab qolish imkoni bormi?

Asardan olingan matn ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilingan:

"In this context, however, I can but insert one remark that most probably few of such "optimists" can not imagine what huge efforts ...".

Asarda berilgan kinoya - "yaxshi niyatli kiShilar" ingliz tilidagi tarjimasida ham kinoya bilan "optimists" tarzida berilgan. Yuqorida biz "yaxshi niyatli kiShilar" iborasining kinoya bilan aytilgani va qanday ma'no aks ettirib, qanday vazifalarni bajarganligi haqida gapirib o'tdik. Shu bilan bir qatorda, unga muqobil qilib olingan ikkinchi bir tildagi "optimists" so'zi qanday ma'noni anglatgan, asliyatda berilgan kinoyaga teng ma'no va ta'sirchanlikni ifodalay olganmi? Ingliz tilidagi "optimists" so'zi o'zbek tiliga "har qanday boshlangan ishni yaxshilik bilan yakunlanishi shiga ishonuvchi kishilar, yaxshi niyatli kishilar" degan ma'nolarni anglatadi. Demak, ingliz tilidagi "optimist" so'zi asarda kinoya bilan qo'Shtirnoq ichida o'z ma'nosiga qarama-qarshi bo'lgan ma'noni ifodalayapti.

Asliyat matnidagi kinoya tarjima matnida ham unga teng bo'lgan so'z yordamida kinoya bilan berilgan. Kinoya - kinoya orqali tarjima qilingan va shu tariqa tarjimada muallif uslubi, asarning ta'sirchanligi, matnning ifodaliligi, so'zning jozibadorligi o'z aksini topa olgan. Tarjimada asliyatdagi "ana shunday "yaxshi niyatli kishilar"ning ko'pchiligi (tasavvur qila olmaydi)" iborasi ingliz tiliga "few of such "optimists"", ya'ni "kam sonli "yaxshi niyatli kishilar" (biladilar) tarzida o'girilgan. To'g'ri, bu erda so'zlarni alohida holda olganimizda bir-biriga antonim, ya'ni asliyatda "ko'pchilik" tarjimada "few" - "ozchilik" deb berilgan. Lekin bu so'zlar matn ichida kelganda asliyatdagi ma'no tarjimada to'la saqlangan. Faqatgina tarjimon quyidagicha antonimik tarjima tamoyilidan foydalanganini ta'kidlash joiz:

ko'pchilik ----- ozchilik

tasavvur qila olmaydi ----- biladi.

Muallif tomonidan qo'llanilgan uShbu kinoyaviy ifoda asarning rus tilidagi nashrida quyidagicha aks etgan:

"Odnako v etom kontekste ne mogu ne vstavit` odnu remarku, chto, po vsej veroyatnosti, malo iz takogo roda "optimistov" dogadyivaetsya o tom, kakix kolossal`nyix usiliy stoit gosudarstvu obespechenie mira i poryadka, nedopus`henie perenosa konflikta i soputstvuyus`hix emu negativnyix processov na nashu zemlyu".

Bu erda o'zbek tilidagi "yaxshi niyatli kiShilar" iborasi rus tiliga "optimistyi" so'zi bilan ifodalangan. "Optimistyi" o'zbek tiliga "yaxshilikni ko'zlovchi, yaxshi niyatli nekbin kishilar" degan ma'noni anglatadi.

Asarni rus tilidagi nashrida ham "yaxshi niyatli kishilar" kinoyasi shunga teng bo'lgan kinoya yordamida ifodalangan. Chunki asarning rus tilidagi nusxasida ham "optimistyi" so'zi kinoya bilan qo'shtirnoq ichida ishlatilgan. O'zbek tilidagi "ana shunday "yaxshi niyatli kishilar"ning ko'pchiligi (...) davlatning qanchalik katta kuch sarflayotganligini o'ylab ko'rmayotganga

o'xshaydilar" so'zlari rus tiliga "malo iz takogo roda "optimistov" dogadyivaetsya o tom", ya'ni "bunday kam sonli "yaxshi niyatli kiShilar" (...) biladilar" tarzida berilgan. Asliyatda ko'pchilik tasavvur qila olmayotganligi aytilsa, tarjimada "ozchilik biladi" deyilgan.

Asarning "Xavfsizlikka tahdid" deb nomlanuvchi bobida esa muallif xavfsizligimizga bo'layotgan tahdidlar va ularning oldini oliSh bilan bir qatorda, mamlakatda, qolaversa, butun dunyoda barqarorlikni ta'minlash, tinch-totuv turmuSh tarziga erishish yo'llari va eriShilayotgan taraqqiyotning kafolatlari haqida batafsil fikrlar bildirgan.

Tarixdan ma'lumki, Markaziy Osiyo xilma-xil dinlar, madaniyatlar bilan tinch-totuvlikka erishgan mintaqadir. Nafaqat barqaror turmuSh tarziga erishgan, balki mavjud madaniyatlar bir-birini to'ldirgan, boyitgan. Ommaviy qirg'inlar va diniy ta'qiblar kuchaygan bir paytda qo'Shni mamlakatlarda notinchliklar yuzaga kelganda ham O'zbekiston tinchlik elchisi sifatida o'zini namoyon eta oldi. Lekin Shunday bo'lsa-da, tinchligimizga, xavfsizligimizga bo'layotgan tahdidlar mavjudligini tan olish kerak.

Nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo xavfsizligiga bo'layotgan asosiy tahdidlardan biri - bu diniy ekstremizm va fundamentalizmdir. Islom dini muqaddas dindir. U hech qachon hech kimni yomon ishlar qilishga undamaydi. Nopok yo'ldan qaytaradi. O'zini chin musulmon hisoblagan har bir kishi haqiqiy islom yo'lini tutsa, hech qachon qing'ir ishlarga qo'l urmaydi, hech qachon boshqalar hisobiga o'zini boyitishga harakat qilmaydi. Afsuski, ba'zi bir nopok kimsalar o'z manfaatlari yo'lida muqaddas dinimiz - islom dinidan foydalaniShga urinishmoqda. Islom dinini niqob qilib olib, uni noto'g'ri talqin etish orqali tinchligimizni buzishga uringanlar ham uchrab turibdi. Ana Shunday dinni niqob qilib olgan g'araz niyatli kiShilarga va ularning qilmiShlariga munosabat bildirib asar muallifi quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

"Ana shunday sharoitda turli-tuman "din uchun kurashuvchilar" o'z xatti-harakatlari va niyatlarini oqlash uchun diniy Shiorlardan foydalanmoqdalar" .

Bu matndan ko'rinib turibdiki, asarda ana Shunday dinni niqob qilib olgan, diniy Shiorlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalangan g'araz niyatli kishilarni kinoya bilan qo'shtirnoq ichida "din uchun kuraShuvchilar" deya nomlaydi. Muallif shunday ifoda usulini tanlaganki, kinoya bilan aytilgan birgina "din uchun kurashuvchilar" iborasi orqali din va diniy shiorlar orqasiga berkinib olib, qora iShlarini amalga oshirayotgan kishilarni va ularga bo'lgan nafratini bayon qilmoqda.

Bunday ifoda usuli qaysi tomonlari bilan ajralib turadi? Bu borada so'z borganda, avvalo, ijtimoiy-siyosiy asar muallifi uslubi publicistik uslub ekanini qayd etib o'tiSh kerak. Publicistik uslub o'ziga xos jihatlari bilan boShqa uslublardan ajralib turadi. Aslida, tasviriy ifoda vositalari badiiy asarlarga xos. Badiiy asar muallifi voqea-hodisalarni tasvirlaShda tasviriy vositalardan erkinroq foydalanadi. Lekin bu bilan ijtimoiy-siyosiy asarlarda timsoliylik, tasviriylik va bo'yoqdorlikka xizmat qiladigan vositalar qo'llanmaydi, degan xulosaga keliSh - noto'g'ri. Ijtimoiy-siyosiy asarlarda ham hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi vositalar iShlatiladi va shu yo'l bilan muallif aytmoqchi bo'lgan fikrining ta'sirchanligi oshadi.

Tahlil etilayotgan asar muallifi ham o'z fikrlarini oddiy ifoda usulidan ko'ra samaraliroq tarzda bayon etish uchun ana shunday bo'yoqdor so'zlarga murojaat qilgan. Ushbu bayon tarzi asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida quyidagicha o'girilgan:

"In such conditions heterogeneous "fighters for faith", to justify their actions and intentions use religious slogans,... " .

Asar muallifi kinoya bilan qo'llagan "din uchun kurashuvchilar" iborasi ingliz tiliga "fighters for faith" tarzida o'girilgan. Bu erda asarni ingliz tiliga o'giran tarjimon nafaqat har ikki tilni o'zlashtirganini, balki asar predmetini ham mukammal darajada o'rganganini namoyiSh eta olgan, ya'ni asliyatda kinoya orqali ifodalangan "din uchun kurashuvchilar" iborasi tarjima tilida ham o'z jozibasini saqlab qolgan holda, kinoya tarzida o'girilgan. Ingliz tilidagi "faith" so'zi o'zbek tiliga "ishonch, ya'ni allohga ishonch, iymon, e'tiqod, din" ma'nolarini ifodalaydi . Bu erda asar tarjimoni so'zma-so'z tarjima yo'lidan borganda "fighters for religion" tarzida berihhi ham mumkin edi, chunki ingliz tilidagi "religion" so'zi o'zbek tilida "din, ishonch" degan ma'nolarni anglatadi. . Lekin asarning asliyat matnida "din uchun kurashuvchilar" iborasidan din, ya'ni diniy ishonch, Allohga e'tiqod ma'nolari kuchaytirilgan tarzda anglaShilmoqda. Bu ifoda usuli matn

ichida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Buni to'g'ri ang'lay olgan tarjimon matn ichida ochilgan ma'noni tarjimada ham ta'sirchan qilib, ma'noni kuchaytirgan holda religion emas, balki faith so'zidan foydalangan. Shu tariqa tarjimon o'z iShida asliyatda qo'llangan iboraga tarjima tilida teng so'z topa olgan va shu yo'l orqali muallif uslubini, asar ta'sirchanligi va jozibasini bir vaqtning o'zida saqlab qolishga erishgan. Chunki nasroniylarda dinga e'tiqod haqida gapirganda, avvalo din so'zi emas, balki e'tiqod so'zi ishlatiladi.

Muallif uslubi, matnning kinoya yordamida yuzaga keltirgan ta'sirchanligi asarning rus tilidagi nashrida quyidagicha berilgan:

"V etix usloviyax raznomastnyie "borcyi za veru" dlya opravdaniya svoix deystviy i namereniy ispol`zuyut religioznyie lozungi" .

Bu erda o'zbek tilida berilgan "din uchun kurashuvchilar" kinoyasi rus tiliga "borcyi za veru" tarzida berilgan. Rus tilidagi vera so'zi o'zbek tiliga ishonch, iShoniSh, Ollohga e'tiqod, iymon ma'nolarini kuchaytirgan shaklda anglatadi . Shu so'zga sinonim bo'lgan religiya so'zi esa nisbatan kuchsizroq ma'no, ya'ni din degan oddiy ma'noni ifodalaydi . Demak, bu erda birinchi o'rinda ma'no ustuvorligi qo'yilgan.

Xavfsizlikka bo'layotgan tahdidlar haqida so'z borar ekan, aytish kerakki, ekologik muammolar ham bu turdagi tahdidlar ichida eng xatarlisi hisoblanadi. Chunki ekologik xavfsizlik va atrof muhit muhofazasi muammosi yashirin tahdid bo'lib, bu eng avvalo, yosh avlodga, jamiyatda sog'lom muhitni yaratishda salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bu borada tabiiy va mineral - xom ashyo zahiralardan ehtiyotkorona, intensiv usulda isrofgarchiliklarsiz foydalanishga asosiy urg'u beriladi. Afsuski, sobiq partiya amaldorlarining loqaydligi, iqtisodiyotni rivojlantiriSh bahonasida tabiatga etkazgan zararlari oqibatida ekologik muvozanat, iqlim, odamlarning hayot va faoliyat sharoitlari ma'lum darajada buzildi. O'rmonlar rejasiz kesib taShlandi, yoqilg'i va mineral xom-ashyo zahiralari ehtiyojdan ortiqcha qazib olindi va qayta ishlanmay chiqitga aylandi. Ko'p hollarda atayin ortiqcha qazib olingan tabiiy va mineral-xom ashyo juda arzon narxda eksport qilinardi. Tabiatga, atrof muhitga va ekologik muvozanatga ko'r-ko'rona munosabatda bo'lgan, o'z manfaati yo'lida hech narsadan toymaydigan kimsalarga va ularning qilmiShlariga nisbatan asar muallifi quyidagi achchiq fikrlarni bildiradi:

"Ayrim "yangi boyvachchalar" deb ataluvchi va korrupciya domiga ilingan butun-butun guruhlar uchun qo'Shimcha foyda olish manbaiga aylandi" .

O'sha davrda o'zinigina o'ylab, tuzatib bo'lmaydigan xatolarga yo'l qo'ygan va ana shu xatti-harakatlari natijasida boylik orttirgan kimsalarning kinoya bilan "yangi boyvachchalar" deb atalishi bejiz emas. Ana shu birgina kinoyaviy so'z birikmasi orqali muallif, birinchi galda ularga nisbatan o'z nafratini ijob etgan bo'lsa, ikkinchidan, ularning tabiatga nisbatan vahShiylarcha munosabatda bo'lish evaziga katta boylik orttirganini ham ta'sirchan qilib ifodalab beradi. Kinoyaviy birikma o'rniga oddiygina qilib "tabiatdan noto'g'ri foydalanish evaziga boylik orttirganlar va shuning hisobiga boyvachcha bo'lganlar" deb ifodalaSh matnda bo'yoqdorlikni yo'qotgan, g'alizlikni keltirib chiqargan, shu bilan bir qatorda ma'no ta'sirchanligini pasaytirgan bo'lar edi. Muallifning ifoda usuli, kinoyaviy birikma asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida quyidagicha ifodalangan:

"... and turned out to be the source of super profits for individual nouveaux riches and for entire corrupted groups" .

Bu erda "yangi boyvachchalar" kinoyasi ingliz tiliga "nouveaux riches" tarzida o'girilgan. Asarning o'zbekcha matnida berilgan "nouveaux" so'zi aslida francuz tilidan olingan bo'lib, ingliz tildagi new, ya'ni yangi so'ziga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra, tarjimon asliyat matnida berilgan kinoyani tarjimada ham kinoya bilan so'zma-so'z o'girgan va shu yo'l bilan muallif uslubini tarjimada saqlab qolishga erisha olgan, deb ayta olamiz.

Ushbu kinoyaviy bayon tarzi, muallif uslubi rus tilida quyidagicha tasvirlangan:

"Prevratilis` v istochnik polucheniya dlya otdel`nyix tak nazyivaemyix "novyix" i celyix korrumpirovannyix grupp sverxpribyiley" .

Asarning rus tilidagi naShrida o'zek tilidagi kinoya bilan aytilgan "yangi boyvachchalar" iborasi "novyix" so'zi bilan ifodalangan. Bu ham o'ziga xos bir uslub bo'lib, aynan "novyix"

so'zi qo'shtirnoqqa olingan holda matn ichida kelganda, "yangi boyvachchalar" iborasiga teng ma'noni beradi. Bu erda "novyie bogachi" iborasidan ham foydalanish mumkin edi, lekin kinoya bilan aytilgan "novyix" so'zi asar ta'sirchanligini yanada oshirgan. To'g'ri, "novyix" so'zi alohida olinganda "yangi" degan ma'noni anglatadi. Lekin matn ichida kelgan yangi, ya'ni hozirgi zamonda paydo bo'lgan "yangi ishbilarmon", "tadbirkor", "ishning ko'zini bilgan" kishilar nazarda tutiladi. Ushbu matnda esa "novyix" so'zi kinoya bilan qo'shtirnoq ichida qo'llanib, o'z ma'nosiga nisbatan aks ma'noni bildirib kelgan. "Novyie bogachi" so'z birikmasi esa o'zbek tilida "yangi boyvachchalar" ma'nosini beradi. Asarda esa "yangi boyvachchalar" iborasi orqali nafaqat boyvachchalar hozirgi kunda paydo bo'lgan ishbilarmon, tadbirkor va o'z mehnati evaziga boylik orttirgan kishilar misolida aks ma'no kinoya bilan ifodalangan. Demak, bu erda "novyie bogachi" iborasi faqat so'z ma'nosini aks ettiradi, xolos, undagi ta'sirchanlik, ma'no kuchaytirishi vazifasi ifodalanmay qoladi.

Yuqoridagilardan asliyatdagi kinoyalarni ingliz tiliga o'girilishi borasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- kinoyalar ijtimoiy-siyosiy asarlar tilining jozibadorligi, muallif ilgari surgan g'oyani keng kitobxonlarga etkazishi uchun muhim tasvir vositalaridan hisoblanadi. Mustaqillik davri siyosiy arboblari, xususan Prezident Islom Karimov asarlarida bu muhim lisoniy vositalardan unumli va o'z o'rnida foydalanilgan;

- o'zbekcha ijtimoiy-siyosiy asarlarda qo'llanilgan kinoyalarni ingliz tiliga muqobil tarjima qilish asliyatda ifodalangan voqe'likdan to'la-to'kis xabardor bo'lishlikni talab qiladi;

- kinoyalar obrazli vositalar bo'lganligi bois ularni xorijiy tillarga o'girish muayyan tayyorgarlikni talab qiladi, ya'ni ularni o'zga tilga shundayligicha o'tkazib qo'yaverish bilan ish bitavermaydi;

- o'zbekcha matndagi kinoyalarni xorijiy tillarga o'girishda ingliz tarjimonlari qo'llagan: so'zma-so'z tarjima, asliyatdagi kinoyaviy iboraning bir qismini o'zgartirib o'girish, tarjimada asliyatdagi kinoyaviy ibora bir qismini tushirib qoldirish kabi tamoyillar tarjima adekvatligini ta'minlashda ijobiy rol o'ynagan.

### **3.3. Hissiy-ekspressivlikni hosil qilishda frazeologik birliklarni o'zni va ularni tarjimada berilishi**

Til taraqqiyotida frazeologik birliklarning o'ziga xos o'zni bor. Bu borada taniqli tilshunos olim I. V. Arnol'd har qanday tilning taraqqiy etib, boyib borishi faqat yangi so'zlar hosil bo'lishi bilangina emas, balki, Shu bilan birga, muayyan tilning o'zida turg'un birikmalarning ortib boriShi hisobiga ham yuz beriShini ta'kidlagan . Shuning uchun frazeologik birikmalarning hosil bo'lishi, leksik-grammatik, semantik tabiati, muhim xususiyatlari rus tilShunosligida ham birmuncha chuqur o'rganilgan. Xususan, V. V. Vinogradov tildagi frazeologizm masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Undan tashqari, frazeologizmlar masalasi borasida F. F. Fortunatov, A. A. Shaxmatov, A. M. Peshkovskiy, A. A. Potebnyalar alohida tadqiqotlar olib borishgan. O'zbek tilshunoslaridan Sh. Rahmatullaev, A. Hojiev, I. Qo'chqorto'ev, A. Mamatov va boshqalar ham ilmiy ishlar yaratishgan. Sh. Rahmatullaev va K. Hakimovlarning bir qator tadqiqotlari aynan frazeologik birikmalarning xususiyatlariga bag'ishlangan .

Tarjimaning frazeologik muammolari to'g'risida gapirilganda G'aybulla Salomovning "Til va tarjima" nomli monografiyasi ni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Ushbu asarida frazeologik birliklar tarjimasiga original asar muallifi uslubi, uning badiiy tarovatida mazkur tasvir vositalarining o'ziga xos o'rniga alohida diqqatni qaratib, ularni o'ziga tilga o'girishda tarjima tili imkoniyatlaridan foydalanib, ayniqsa, asliyatning milliy xosligini hisobga olgan holda tarjima qilish talabini ilgari suradi. Bundan tashqari, frazeologizmlar tarjimasida asliyatdagi barqaror birikma, maqol, matal va idiomatik iboralarni o'ziga tilga o'girishda ularning ob'ektini saqlagan holda o'giriSh kerakligi ham mazkur tadqiqotda ko'rsatib o'tiladi.

Odatda, so'z birikmalari va gaplar so'zlarning erkin bog'lanmalarida so'zlar ma'no mustaqilligini saqlagan holda nutq jarayonida birikiShidan hosil bo'ladi. Shuning uchun bunday bog'lanmalar ma'lum tushuncha yoki fikr anglatish talabi bilan muayyan tilning grammatik qonun-qoidalari asosida bevosita nutqda hosil bo'lganligi uchun butun holatda saqlanmaydi. Turg'un birikmalar, barqaror so'z birikmalarini tashkil qilgan so'zlarning ma'no va grammatik munosabatida mustaqillik bo'lmaydi. Ular yaxlit ma'no anglatib, bir so'zga teng kelishi ham mumkin. Shuning uchun bunday birikmalar nutq jarayonida tuzilmay, balki nutqqacha til tizimida bir butun holatda mavjud bo'ladi. Demak, frazeologik birikmalar tuzilishi jihatidan so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, mazmun tomonidan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq jarayonida hosil qilinmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan til birligi hisoblanadi . Binobarin, ular bir butun holga keltirgan hodisa tarkibidagi so'zlarning bir ma'no markaziga kelib birlashishidir .

Frazeologik birikmalarni tashkil qilgan so'zlarning ma'no mustaqilligi saqlanmaydi, ular yaxlit holda ko'chma ma'noga ega bo'ladi. Shu sababli bunday birikmalar kishi xotirasida yaxshi saqlanib qolishi mumkin. Demak, frazeologik birikmalar voqelikni nomlash bilangina chegaralanib qolmasdan, ko'chma ma'noni ham ifodalaydi. Shuning uchun frazeologik birikmalar nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-siyosiy matnning, umuman nutqning ifodaliligi, timsoliyligi, emociionalligi, ta'sirchanligini oshiradi. Bu borada A. Abdullaev ularni:

"Frazeologizmlar nominativ ma'no va qo'shimcha ottenkalarining ajralmas birligidan iborat bo'lgan maxsus nutqiy figuralardir" , - deb ta'riflaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, frazeologik birliklar ijtimoiy-siyosiy nutqning ifodaliligini, hissiyotlilik va ta'sirchanligini oshirgan holda ma'lum bir maqsadni ko'zlab qo'llanadi. Tadqiqot ishimizda, tahlil jarayonida muallif o'zining O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asarida yuzdan ortiq frazeologik birliklardan unumli, maqsadli foydalanganini guvohi bo'ldik. Asar muallifi o'z fikrini ommabop tarzda ifodalaShda xalq orasida ishlatiladigan frazeologik birliklarni keng istifoda etgan.

Misollarga murojaat qilamiz:

"Tarix o'z hukmini chiqarar ekan, hamma vaqt sholini kurmakdan ajratadi va g'arazli, xudbin maqsadlarini ko'zlab, xalq manfaatlarini niqob qilib oluvchi shaxslarning o'zlarini oqlaSh uchun keltiradigan kibr-havodan iborat dalillarini qabul qilmaydi" .

Ushbu matnda muallif respublikamiz tevaragida sodir bo'layotgan urushlarning O'zbekiston fuqarolarining tinch, farovon yashashi va ravnaq topishiga tahdid solayotganini va kelgusi avlod ana shu urush olovini yoqib, undan manfaatdor bo'layotgan nopok kimsalarni hech qachon kechirmasligini ta'kidlamogda. U o'z fikrlarini yorqin ifodalab, o'ziga xos uslubda ish yuritib, o'zbek milliy urf-odatlarini, an'analarini, qolaversa, kundalik hayotidan kelib chiqqan holda oddiy o'zbek o'quvchisiga ham tanish bo'lgan so'zlardan hosil bo'lgan frazeologik birlikdan foydalanadi. Aslida "Sholi" so'zi - "issiq mamlakatlarda botqoqda o'sadigan, boshloqlarida guruch etishtiriladigan don o'simligi, shu o'simlikning oqlanmagan, guruch holiga keltirilmagan hosili". Undan kishilar hayotiy zaruratdan kelib chiqib, emak sifatida foydalanishadi, ya'ni u o'zbeklarning asosiy milliy taomlaridan birini tayyorlashda ishlatiladigan xom ashyo. Uni etishtirish ham o'ziga xos bo'lib, albatta, chiroyli, mazali va butun qilib etishtirib olish uchun, avvalo, uni kurmaklaridan tozalab olinadi. "Kurmak" so'zi "odatda sholipoyada ko'p o'sadigan yovvoyi o't va uning qoramtir tariqqa o'xshash doni" ma'nosini anglatadi. Muallif o'z fikrini ta'sirchan va timsoliy ifodalab, vaziyatni O'zbekistonda yashayotgan, Sholi bilan kurmakni bir-biridan ajrata oladigan har bir odam uchun tuShunarli qilib tasvirlab bergan. Sholi pishib etilgunga qadar ham kurmakdan tozalab boriladi. O'zbeklarning milliy taomi bo'lmish "palov"ni tayyorlashda ham sholining hosilasi bo'lmish guruch kurmaklardan tozalab olinadi. Oshpaz yoki sholikor hech qachon sholini ichiga kurmakni aralashtirib yubormaganiday kelajak avlod ham bugungi rivojlanishimizni, mustaqilligimizni, tinchligimizni ko'rolmayotgan g'araz niyatli kishilarni ajratib oladi va aslo kechirmaydi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, muallif "Sholini kurmakdan ajratadi" frazeologik birikmasi orqali "yaxshini yomondan farqlab oladi" degan ma'noni timsoliy va ta'sirchan, qolaversa, oddiy xalq, Sholikor dehqon ham oson tushuna oladigan tilda ifodalab bergan.

Shu o'rinda bir misolga e'tiboringizni tortamiz:

"History, when making its final decisions, always separates the husk from the grain and does not accept justifications like the ambitions of certain individuals who hide their own malignant wishes behind the alleged interests of the whole nation."

Ushbu matn asarning ruscha nashrida quyidagicha ifoda etilgan:

"Istoriya, versha svoy sud, vseгда otdelyaet zerna ot plevel i ne prinimaet v kachestve opravdaniy ambicii lichnostey, prikryivayus`hixsya interesami naroda radi sobstvennyix uzkokoryistnyix celey".

Mutarjimlar asliyatdagi "Sholini kurmakdan ajratmoq" birikmasini o'g'irishda muqobil variant tamoyilidan foydalanib, ingliz tiliga "separates the husk from the grain" (donni po'stlog'idan ajratmoq), rus tilida esa yana shunga yaqin ibora bo'lmish "Otdelyaet zerna ot plevel" (bug'doyni begona o'tdan ajratmoq) tarzida ifodalangan. Bunda, albatta, to'g'ri yo'l tutilgan.

Har bir xalqning o'z maqollari, matallari va hikmatlari bo'ladi. Tarjima vositasida ulardan boshqa xalqlar ham bahra olaveradi. O'zbekcha matnda berilgan guruch bilan bog'liq hikmatli ibora, haqiqatan ham, milliy bo'yoqqa ega. Chunki biz - osiyoliklar, chindan ham, guruchni evropaliklarga nisbatan ko'proq iste'mol qilamiz. Bu mahsulot nafaqat oziq-ovqat mahsulotlariga, balki xalqona hikmatlarimizga ham chuqur kirib borgan. Ingliz yoki ruslarda esa, don yoki bug'doy guruchga nisbatan faolroq ekani ham - to'g'ri. Shu jihatdan olganda, tarjima - asliyatga muqobil.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, asar tarjimonlari asliyatda qo'llangan frazeologik birlikni tarjima tilida mavjud bo'lgan muqobili bilan almashtirgan holda ma'no va uslubni saqlab qolishga erishishgan. Bunda tarjima tili egasi bo'lgan xalq urf-odatlarini va milliyligini ham e'tibordan chetda qolmagan. Ayni misolda muallif hozirgi kunda barqaror tinchligimiz va taraqqiyotimizni ko'rolmaydigan ba'zi bir kimsalar, o'zlarini oqlashga qanchalik urinmasinlar, kelajak avlodni alday olmasliklarini ifodali va ta'sirchan qilib aks ettirgan.

Ijtimoiy-siyosiy asarlarda fikrni lo'nda va ta'sirchan qilib ifodalash muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlarida ham muallif ko'plab frazeologik birliklardan shu maqsadda foydalangan.

Darhaqiqat, har bir frazeologik birlik o'z o'rnida qo'llanilar ekan, u muallif niyatini amalga oshirishda, ya'ni ta'sirchanlik va ifodalilikka erishishga xizmat qiladi. Xavfsizligimizga tahdid solib turgan ekologik inqiroz insoniyat oldida turgan katta muammolardan biri xisoblanadi. Asar muallifi buning naqadar xavfli ekanini his etgan holda atrofdagilarni bu masalaga to'g'ri baho berishga va uni oqilona hal etishga chaqiradi. Jumladan: "Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish - o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir" , - deya ta'kidlaydi Islom Karimov. Darhaqiqat, ekologik muammo faqat biz yaShab turgan mintaqaninggina emas, balki butun insoniyatning muammosiga aylanib ulgurdi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Yuqorida keltirilgan matnda "qo'l qovushtirib o'tirmoq" iborasidan foydalanilgan. Bu frazeologik birlik "jim turish, muammo oldida tomoshabin bo'lmoqlik" kabi ma'nolarni obrazli qilib ifodalashga xizmat qilgan. So'z birikmasi asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida quyidagicha aks ettirilgan:

"At the meeting point of two centuries mankind, the population of our country face a global ecological threat. To stand idle by, to be impartial means to be condemned to extinction" .

"Qo'l qovushtirib o'tirmoq" iborasi ingliz tiliga "to stand idle" tarzida o'girilgan. Uni o'zbekchada ifodalasak, "hech narsa qilmasdan vaqtni bekorga sarf qilish" ma'nosini anglatadi . Ingliz tilidagi "to stand idle" iborasining ob'ekti "idle" so'zi bo'lib, u o'zbek tilida "band bo'lmagan", "ishlamaydigan", "bo'sh", "yalqov", "erinchoq", "ishsiz yurmoq", "vaqtni bekorga o'tkazmoq" kabi ma'nolarni anglatadi . Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, asar tarjimonlari asliyatdagi "qo'l qovushtirib o'tirmoq" iborasini ingliz tilidagi muqobil varianti yordamida o'giranlar.

Oldingi sahifalarda ta'kidlaganimizdek, tildagi frazeologik birliklar, asosan, voqea-hodisani jonli va obrazli qilib ifodalash bilan bir qatorda, ma'noni kuchaytirib, hissiy-emocionallik hosil bo'lishiga xizmat qiladi. Bu erda "qo'l qovushtirib o'tirmoq" iborasi orqali ma'no ko'chishi hodisasi ro'y beryapti. Aslida "qo'l qovushtirmoq" birikmasi "qo'lni, besh panjani birin-ustun kesishtirgan holda tutmoq" ma'nosini ifodalasa, ko'chma ma'noda, "ish qilmasdan kekkayib, qaqqayib qarab turmoq" ma'nosini anglatadi .

Asar muallifi ham insoniyat oldida tahdid solib turgan ekologik muammoning naqadar muhimligi, uning oldini olish, kerak bo'lsa har bir inson bu muammo qarshisida loqayd bo'lmasligi kerakligini timsoliy va ta'sirchan qilib ifodalab bergan. Aslida, bu ibora orqali anglashilgan ma'noni oddiy qilib "ekologik muammo oldida har bir inson jim turmasdan harakat qilishi kerak", deb ifodalash ham mumkin edi. Lekin bunday bayon tarzi ana shu muammo echimi o'ta muhim ekanini ta'sirchan ifodalay olmasligi mumkin edi. Bu erda muallif, o'z fikrini bayon qilish bilan bir qatorda, har bir odamni ekologik muammoni hal etish uchun kurashga da'vat eta olgan. Ingliz tilidagi "to stand idle" iborasi asliyatda berilgan iboraga teng ma'no anglatib, tarjimada muallif uslubini ham saqlab qolishga xizmat qilgan.

Ushbu frazeologik birlik rus tilida quyidagicha berilgan:

"Na rubeje vekov chelovechestvo, naselenie naShey strany okazalos` pered licom global`noy ekologicheskoy ugrozyi. Ne zamechat` etogo, bezdeystvovat` - znachit obrech` sebya na vyimiranie" .

Asliyat matnidagi "qo'l qovushtirib o'tirmoq" iborasi rus tiliga "bezdeystvovat`" deb berilgan. Rus tilidagi ushbu so'z o'zbek tilida "faoliyatsizlik, harakatsizlik" ma'nolarini anglatadi . Demak, asliyatda qo'llanilgan frazeologik birlik ifodalagan ma'no rus tilida ham, aynan muqobil.

O'tmishda ota-bobolarimiz tomonidan e'zozlab kelingan qadriyatlarimiz bugungi kunda yana o'z qadr-qimmatini topmoqda. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turli xalqlarni o'zida jamlagan holda tinchlik markazi bo'lib kelgan. Hatto, g'arazli niyat bilan bostirib kelgan har qanday bosqinchi ham bu madaniyatlar, urf-odatlar, an'analarini inkor eta olmagani. Bu borada asar muallifi quyidagi fikrlarni bayon etadi:

"Hatto, bu hududlarni bosib olganlar ham Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati oldida boSh egibgina qolmay, uning eng qimmatbaho an'analarini, Shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik an'analarini avaylab qabul qilganlar" .

Muallif ana shu xalqlarning madaniyatlarini, qimmatbaho an'analarini qadrlab, ularga nisbatan hurmat bilan qaragan, qisqa qilib aytganda, ta'zim qilganliklarini ifodali tarzda ta'sirchan qilib birgina "bosh egib" degan frazeologik birlik bilan ifodalab bergan. Ushbu ibora orqali asar muallifi ming yillar oldin ham Markaziy Osiyo xalqlari o'zгалar havas qiladigan darajada yuksak madaniyatga, bebaho qadriyatlarga, o'z milliy an'alariga ega ekanini tasvirlash bilan bir qatorda, o'zгалarning ana shu qadriyatlarga qanchalik hurmat bildirganliklarini aks ettirgan. O'zbek tilidagi "bosh egmoq" iborasi "bo'ysunmoq, itoat qilmoq, tiz cho'kmoq; sajda qilmoq" ma'nolarini anglatadi. Ushbu ifoda usuli, frazeologik birlikning ta'sirchan ma'nosi asarning inglizcha tarjimasida quyidagicha o'z ifodasini topgan:

"Even those who conquered this territory not only admired the culture of Central Asian nations, but carefully adopted the traditions and elements of state system that existed on this territory".

Asarda keltirilgan "bosh egib" iborasi ingliz tiliga "admired" tarzida o'girilgan. O'zbek tilidagi "bosh egib" iborasi "sajda qilmoq" ma'nosini ifodalay ekan, buning zamirida "hurmat qilish, ta'zim qilish" (albatta, qo'rqqanidan emas) kabi ma'nolar ham yotadi. Bu borada asar muallifi, hatto, bosqinchilar ham bu erdagi xalqlarning madaniyatini qo'rqqanlaridan emas, o'sha madaniyatning yuksakligidan havas bilan qaraganliklarini ta'kidlaydi.

Ingliz tilidagi "admire" fe'li o'zbek tiliga "hurmat qilmoq, yaxshi fikrda bo'lmoq, ta'zim qilmoq (qo'rqqanidan emas)" ma'nolarini bildiradi.

Demak, tarjimonlar asliyat matnida berilgan frazeologik birlikning ma'nosini ingliz tilidagi oddiygina bir so'z orqali ifodalab bergan. Shu bilan ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasida muhim xususiyat bo'lgan ma'no ustuvorligiga e'riShilgan, lekin muallifning uslubi, iboraning ta'sirchanligi va timsoliyligi o'z ifodasini topmagan.

Asliyat matnida qo'llangan ushbu ibora rus tilida quyidagicha berilgan:

"Daje te, kto zavoevival eti territorii, ne tol'ko preklonyalis` pered kul'turoy narodov Central'noy Azii, no i berejno perenimali tradicii, elementyi sus`hestvovavShey na etoy territorii gosudarstvennosti".

Asarda berilgan "boSh egib" iborasi asarning rus tilidagi nahrada "preklonyalis`" tarzida berilgan. "Preklonyalis`" so'zi o'zbek tilida "boSh egiShardi, tiz cho'kishardi, sajda qiliShardi" kabi ma'nolarni ifodalaydi.

So'zlardan anglashiladigan ma'nolarga va ularning ishlatilish o'rinlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asliyat matnidagi "bosh egib" iborasining ma'nosi rus tilida "preklonyalis`" so'zi orqali ifodalangan.

Asliyatda mavjud iborani shunga teng bo'lgan boshqa bir muqobil ibora bilan o'girish ham tarjima tamoyillaridan sanaladi. Albatta, buni amalga oshirish uchun asar tarjima qilinayotgan tilda so'zlashuvchi xalqlar lisoniy imkoniyati va milliy urf-odatlaridan kelib chiqish kerak. Ba'zan shunday frazeologik birliklar ham uchrab turadiki, ular har ikki tilda ham tushunarli bo'ladi, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish yo'li bilan tarjima tilida ham aynan shu iborani hosil qilish mumkin. Masalan, asarning "Xavfsizlikka tahdid" deb nomlangan birinchi bobida muallif islom dini, uning tarixi va muqaddasligi haqida so'z yuritay ekan, quyidagi fikrlarni aytadi: "Din, shu jumladan islom dini ham ming yillar davomida barqaror mavjud bo'lib kelganligining o'ziyoq u inson tabiatida chuqur ildiz otganligidan, uning o'ziga xos bo'lgan bir qancha vazifalarni ado etiShidan dalolat beradi".

Darhaqiqat, islom dini kishini faqat yaxshilikka, ezgulikka etaklovchi dindir. Shu bois u shu dinga e'tiqod qiluvchi insonlar qalbining to'ridan joy olgan. Islom dinining kishilar ma'naviyatida tutgan o'rni, musulmonlar qalbidan chuqur joy olganini muallif "chuqur ildiz otgan" iborasi orqali ifodalaydi. Bu ibora o'z ma'nosida "ildizi har tomonga o'sib, baquvvat tortmoq" (o'simlik haqida), ko'chma ma'noda esa "tomir yoyib keng tarqalmoq, hamma yoqni egallamoq"ni ifodalaydi.

Demak, asarda ibora ko'chma ma'noda qo'llangan va o'z o'rnida hissiy-ekspressivlikni hosil qilib, ma'noning kuchayishi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

To'g'ri, ushbu frazeologik birlik aks ettirgan ma'noni oddiy so'zlar yordamida ham ifodalash mumkin edi. Lekin oddiy so'zlar, ma'no aks ettirishdan tashqari timsoliylik, ta'sirchanlik va ma'no kuchaytirish kabi vazifalarni ado etolmaydi. Muallifning bayon tarzi, uslubi va mahoratini asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida mutarjimlar qanday ifodalaganlar. Aslyat ifoda uslubi tarjimada ham o'z aksini topganmi? Ushbu masalaga oydinlik kiritish uchun quyidagi iborani asarning inglizcha tarjimada berilishini ko'ramiz:

"The very fact of stable existence of religions, including Islam, during a millennium, testifies that they have deep roots in human nature and perform a set of inherent functions" .

Aslyatda ildiz otgan iborasi asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasida ildizga ega tarzida berilgan. Buni aslyatdagi iborani qisman o'zgartirib tarjima qilish, deb atash mumkin.

Ushbu matn asarning ruscha nashrida quyidagicha berilgan:

"Sam fakt ustoychivogo, na protyajenii tyisyacheletiy, sus`hestvovaniya religii, v tom chisle i islama, svidetel`stvuet o tom, chto ona imeet glubokie korni v chelovecheskoy prirode, vyipolnyaet celyiy ryad prisus`hix ey funkci" .

Yuqorida aslyatdagi "inson tabiatida chuqur ildiz otgan" iborasini har ikki tilda berilishini ko'rib chiqdik. Asar tarjimoni muallif qo'llagan iborani ingliz tiliga o'girish orqali aslyatda anglaShilgan ma'noni tarjima tilida aks ettira olgan. Bundan tashqari, muallif uslubi, obrazlilik va iboraning ta'sirchanligi ham saqlanib qolgan.

## HULOSA

O'zbek halqi uzoq tarixiy davr mobaynida jahondagi elu elatlar bilan uzluksiz aloqada bo'lib keldi, ulardan o'rgandi, payti kelganda, o'zining olamshumul madaniy-ma'naviy boyliklari bilan bashariy tafakkur hazinasiga munosib hissa qo'shdi. Hilma-hil shakllarda rivojlanib kelgan bu madaniy-ma'rifiy jarayonda, albatta, tarjima muhim ahamiyat kasb etdi.

Har qanday tilning lug'at tarkibi, uning so'z boyligi shu millatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllanib boradi. Tarixiy taraqqiyotning uzoq o'tmishga borib taqalishi esa har bir lison lug'at hazinasining qachon va qanday paydo bo'lgani, bu so'zlar uning o'ziga hos ichki imkoniyatlari asosida, o'zining mahsuli sifatida yaratilgani yoki unga tashqaridan - o'zga tillardan o'zlashgan-o'zlashmagani masalalarini o'rganishini taqozo etadi.

Til lug'at hazinasini boyitadigan muhim vositalardan biri - tarjima. Tarjima orqali har bir til va adabiyot yangi so'zlar, tasvir vositalari, qolaversa, yangi tushuncha va qarashlar bilan boyib boradi. Keyingi yillarda mamlakatimiz tarjimashunosligida badiiy tarjima tahliliga oid ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasini sohasi etarli darajada o'rganilmayapti. Ijtimoiy-siyosiy asarlarni o'zbek tilidan boshqa tillarga ko'p va ho'b o'girilayotganiga qaramay, ular sifatiga baho berish muammosi hali etarli darajada tadqiq etilgani yo'q.

O'tgan asrning boshlarida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar borasidagi tarjima ishlari asosan marksizm-leninizm nazariyotchilari asarlari misolida ilmiy tahlil qilingan. Bu tarjimalar vositasida o'zbek tiliga ko'plab halqaro hamda ruscha so'z va atamalar kirib keldi. Aytish kerakki, bunday nashrlar o'zbek milliy urf-odatlar va qadriyatlarlaridan bir qadar yiroqlashishga ham olib keldi. O'sha davrning mafkurasigagina hizmat qiladigan lug'atlar yaratildi.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston jahonning rivojlangan mamlakatlari bilan deyarli barcha sohalarda teng hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Avvallari horijiy tillardan o'zbek

tiliga o'g'irilgan bo'lsa, endilikda o'zbek tilida yaratilgan bir qator ijod namunalari ham jahonning ko'plab tillariga aslyatdan tarjima ishlari amalga oshirilmoqda. O'z navbatida o'zbek halqiga hos bo'lgan qadriyatlar, urf-odatlarini aks ettirgan so'z va iboralar horijiy tillarga bevosita tarjima qilina boshladi.

Vositachi til yordamida amalga oshirilgan tarjima bevosita bajarilgan tarjimaga qaraganda aslyatdan yiroq bo'lishi - tabiiy. Tarjimaning tarjimasi amalga oshirilganda aslyat muallifi fikri, u ilgari surgan g'oya aks etishi mumkin, lekin uning uslubini qayta yaratish qiyin kechadi. Ayrim hollarda tarjima aslyatdagiday jaranglashi u yoqda tursin, butunlay boshqa, yangi asar yuzaga kelganday bo'lishi ham mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasida bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Mustaqillik davrida yaratilgan ijtimoiy-siyosiy asarlar horijiy tillarga bevosita aslyat tilidan tarjima qilina boshlagani quvonchli hol. O'z navbatida istiqolol davri ijtimoiy-siyosiy atamaları lug'atlari paydo bo'la boshladi. Sobiq Ittifoq davrida yaratilgan lug'atlar hozirgi mustaqillik davri leksikasi uchun ojizlik qilmoqda. Ularda o'z davri mafkurasini targ'ib qiluvchi va milliy istiqolol g'oyasiga zid bo'lgan so'zlar joy olgan. Bular bugungi kunimiz uchun mafkuraviy jihatdan eskirgan hisoblanadi, ammo ulardan sof ilmiy va qiyosiy tahlil manbasi sifatida foydalanish ehtiyoji bor.

Tarjimada asarda ilgari surilgan g'oya, ma'noni aks ettirish bilan bir qatorda muallif uslubini ham muqobil tarzda ifodalash talab etiladi. Uslub - muallifning bayon tarzi. U qalbidan otilib chiqayotgan fikrlarni o'quvchiga etkazishda eng maqbul ifoda usullaridan foydalanishga harakat qilishi - tabiiy. Shundagina o'z ishidan qoniqish hosil qiladi va natijada mukammal asar paydo bo'ladi. Ana shunday mehnat mahsulini tarjimon ham to'la anglay bilishi, shunga yarasha zahmat chekishi, qolaversa, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga muallif ko'zi bilan qarashga intilishi zarur.

Muallif tilning hissiy-ekspressivlikni ifodalovchi vositalaridan keng foydalanadi. Shulardan biri istiora bo'lib, u odatda biror narsa yoki hodisa belgisi, harakatining o'hash omonini boshqasiga ko'chishi asosida yuzaga keladi. Albatta, o'zbek tilida nutqni, biror-bir habar yoki yozma ahborotni bayon qilishda tilda mavjud bo'lgan hissiy-ekspressivlikni hosil qiluvchi vositalar muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-siyosiy asarlarda qo'llanilgan bunday birliklarni bir tildan boshqasiga o'g'irishning o'ziga hos talab va qoidalari mavjud. Jumladan, tarjimon aslyat tilini, asar mohiyatini, muallif uslubini, nozik ifoda usullarini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

Boshqa tillardagidek, o'zbek tilida ham nutqni, biror bir xabar yoki yozma ahborotni bayon qilishda tilda mavjud bo'lgan hissiy-ekspressivlikni hosil qiluvchi vositalar muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-siyosiy asarlarda ham metafora (istiora), kinoya va frazeologik birliklardan foydalanish har tomonlama asar ta'sirchanligini oshirish, asarning ommabop uslubini shakllantirishda zarur ahamiyatga ega.

Shuning uchun tarjima jarayonida tildagi xissiy-ekspressivlikni ifodalovchi vositalarni qayta yaratish tarjimon oldidagi muhim vazifalar sirasiga kiradi. Badiiy asarlar tarjimasida obrazni obraz bilan ifodalash bosh mezon sanalsa, ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasida aslyatdan anglashilgan ma'noni tarjima tilida aks ettirish bilan birgalikda muallif uslubini saqlab qolish asosiy shartlardan xisoblanadi. Demak, ijtimoiy-siyosiy asar uslubini tarjima tilida aks ettirish tarjima ishini mukammal bo'lishi va aslyatga bir qadar yaqinlashish garovidir. Asar muallifi o'zi ifodalamoqchi bo'lgan fikr-muloxazalarni imkon qadar o'z o'quvchisiga tushunarli tilda yoziShga harakat qilar ekan, bu borada o'z uslubiga ko'ra tilning ifoda vositalaridan ham foydalanadi. Bu hol Prezident Islom Karimov asarlarida ham kuzatiladi. Islom Karimov asarlarida qo'llanilgan metafora, kinoya va frazeologik birliklar asarning ta'sirchanligi, aks ettirilgan muammolar mohiyatini o'quvchilar tomonidan oson tuShunilishi uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Bu borada shuni alohida ta'kidlash kerakki, muallif xalq ichida keng iste'molda bo'lgan til birliklari va vositalardan unumli foydalangan. Bu muallifning yorqin uslubini bo'lib, oddiy kitobxon uchun ham tuShunarli tilda yozilgan. Asar ikkinchi bir tilda tarjimonlar

vositasida yaratildi. Muallif uslubi va uning fikrlarini tarjima tilida aks ettirish uchun tarjimonlar turli tarjima tamoyillaridan foydalanganlar.

### SUMMARY

In order to implement a wide range of targeted measures on the further strengthening and development of the institution of the family as basis of the society, to raise to a qualitatively new level of the whole of the work to strengthen the legal and socio-economic protection of the interests and support of the family, especially young families, increase of the role of the family in the upbringing physically healthy and spiritually Mature and harmoniously developed generation, strengthening of the status and the strengthening of the role of community in the practical implementation of target tasks on formation of a strong, healthy families, and also in connection with the proclamation of the Republic of Uzbekistan 2012, "Year of the strong family".

Let me introduce my research work. My theme is "Emotional-expressive means and problem of their translation". First of all I made a plan for my work. The plan consists of Introduction, three main chapters and nine paragraphs. At the end of the work I wrote my own ideas above the theme in the conclusion. Except these I listed the used literature at the end of the work. The work was written in State language. That's why at the end of my work I gave brief summary about my work.

In Introduction I wrote about actuality, novelty, purpose, methods which were used in written the work, the results obtained and their novelty, practical value of the work and structure of my work.

The first chapter was named "Lexic and linguistic units which expressed emotional-expressiveness and problem of their translation". The problem of this chapter was solved in three subchapters.

The first subchapter was titled "The importance of translation in historical development of the people speaking in various languages". In this part of my work I wrote about the history of practical and theoretical translation. As we know practical translation has a huge history. In fact when people were in the Earth they need to relate each other. If their speaking language was different they needed practical translation. First of all they understood each other with actions. And then they translated speeches into other languages. Now these practice of translation ruled on the basis of theory of translation. So theoretical and practical translation has a deep history. Early years the work "Muhokamatayn lug'atayn" by Alisher Navai was translated into Uzbek. This work was compared with Persian language. That's why now we can say this work could be theoretical base of translation theory and practice. If we want to give the meaning of any original work in another language we must follow principles of theory of translation. Next subchapter is named "Linguistic units expressed emotional-expressiveness and their translation". As we know contextual translation is a good way of compare of the semantic system of the language.

The main component of semantical structure of the word is its dictionary meaning. But the meanings which in our speech or writings of the words are contextual meanings. Contextual meanings are except of semantic structure of the word. They are only found in the text. For example here we'll compare the meanings the word "presence":

1. The governer said that he would not allow the presence of federal troops on the soil of his state.

Hukumat boshlig'i federal qo'shinlarni uning davlati erlariga kelib o'rnatishiga yo'l qo'ymasligini ta'kidladi.

2. .... the General has been faced with a problem as old as France's presence in Algeria.

.....General Fransiyaning Jazoir davlatini okkupasiya (zabt) etish muammosiga duch keldi.

From this example we can say in the first sentence the word "presence" gave the meaning "o'rnatish", in the next example this word was translated "zabt etish".

Here we can say the first expression is dictionary meaning of the word, and the second is contextual meaning. In the next part of the chapter I wrote about lexical units which expressed emotional-expressiveness and their translation. In that way I gave my own ideas and some examples.

The second chapter was named "Giving in translation author's method, figurativeness and effectiveness". This chapter consists of three subchapters. In this chapter I wrote about practice of feeling of method of the language in translation and to express figurativeness and effectiveness in translation language.

In the original work when the events is going up the hero of the work will be presented to the reader step by step. Reader of the original work knows the hero, his habits, age, appearance and other peculiarities of the original work. Demands of the theory of translation is to give these signs in translation work. After that authors method, figurativeness and effectiveness of the original work are found in translation.

Next chapter is dedicated to express figurativeness and effectiveness in other languages and importance their usage in original work. This chapter consists of three subchapters.

Every work is created with the imagine of the author. The author explain the event in his work with his own heroes. First of all he gives the period which the event happened, place, customs of the nation and etc. In translation first of all we must take into consideration these objects of translation work. In this chapter I wrote about this problem and gave some principles of translation. They are:

1. Transliteration – phonetic adaptation of the words and to add some elements from translation language;
2. To create new word or word combination with morphological combination;
3. To find equivalents from translation language.

This chapter was the continuation of previous chapter by meaning. I gave some more examples to explain given ideas.

At the end of my work I gave the list of used literature and in conclusion summed up my dissertation and suggest to use the material in the lyceums and universities.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov.I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., O'zbekiston-2011, 440-bet.
2. Karimov I.A Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.- 56 b
3. Karimov I.A Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2010.- 56 b
4. Karimov I.A O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilliga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zi, "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2010 yil 1- sentyabr;
5. Karimov I.A "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom - taraqqiyotimizning muhim omilidir", "Ishonch" gazetasi, 2010 yil 8 dekabr;
6. Karimov I.A "Barcha reja va das turlarimiz vatanimiz taraqqi yotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi", "Xalq so'zi" gazetasi, 2011 yil 22 yanvar;
7. Karimov I. A. Tarixiy hotirasiz kelajak yo'q - Toshkent: SHarq, 1998.-B. 32
8. Salomov G. Tarjima nazariyasi asoslari -Toshkent: O'qituvchi, 1983. -B. 232.
9. Karimov I. A., Po puti sozidaniya - Toshkent: Uzbekistan, 1996. - Tom 4.
10. Jo'raev K. Tarjima san`ati - Toshkent: Fan, 1982. -B. 60.
11. Salomov G'. va boshqalar, Tarjimon mahorati // Ilmiy ishlar to'plami -Toshkent: Fan, 1979.
12. Salomov G', A'zamov S. Tarjima asoslari // o'quv qo'llanma - Toshkent: adabiyot va san`at nashriyoti, 1976. - B. 88.
13. Milliy istiqloq g'oyasi // Bibliografiya, 1-kitob, -Toshkent: 2001. - B. 31.
14. Milliy istiqloq g'oyasi//Annotatsiyali bibliografiya -Toshkent: 2001. -B. 91

15. Tarjima muammolari//maqolalar to'plami. -Toshkent, 1991. -B. 201.
16. Iqtisod va hayot, -Toshkent: 1997, -№7-8, -B. 2.
17. Inson baht uchun tug'iladi // O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning hikmatli so'zlaridan -Toshkent: Sharq, NMAK bosh tahririyati, 2001. -B. 128.
18. Amir Temur o'gitlari //to'plam -Tashkent: Navro'z, 1992. -B64.
19. Ashurov Sh. Ingliz va o'zbek tillarida kesim tipologiyasi. -Toshkent: 2007.
20. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. -Toshkent: Adabiyot va san`at,1983. -B.16.
21. Isomiddinov Z. N. Turkiy emas va tarjima masalalari. - Toshkent: Universitet, 1995. -B. 118.
22. Sulaymonov B. Nofilologik o'quv yurtlarida talabalarga ijtimoiy-siyosiy atamalarni o'rgatish tajribasidan // Til va adabiyoti ta`limi -Toshkent: 2000, -№3.
23. Zokirov K. Jamolhonov H. O'zbek botanika terminologiyasi masalalari. -Toshkent: 1966.
24. Usmonov S. O'zbek terminologiyasining ayrim masalalari. -Toshkent: 1968.
25. Akobirov S. Til va terminologiya -Toshkent: 1969.
26. qotamov N. Adabiy atamalarning taraqqiyoti tarixidan. -T: 1969.
27. Musaev q. Badiiy tarjima va nutq madaniyati. -Toshkent: O'qituvchi, 1976, -B. 160.
28. Borisov V. V. Abbreviatsiya i akronimiya. -Moskva: Voenizdat, 1972.
29. Borisov V. V. Korrelyativnaya abbreviatsiya. -Moskva: Voenizdat,1974.
30. Bulvshteyn V. O. Slovar` angliyskih i amerikanskih sokrasheniy. -Moskva: Gos.izd.inostr. i nac. slovarey, 1958.
31. G'afurov I. Tarjimonlik mutahassisligiga kirish // O'quv qo'llanma. -Toshkent: Meqridaryo, 2008, -B.10.
32. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. - Toshkent: O'zbekiston milliy enciklopediyasi, 2007.
33. Mallaev N. M. O'zbek adabiyoti tarihi. - Toshkent: O'qituvchi, 1-kitob, 3-nashri, 1976. -B. 662.
34. O'zbek adabiyoti tarihi. 5 tomlik, 1-tom. - Toshkent: Fan, 1977, -B. 328.
35. O'zbek adabiyoti tarihi. 5 tomlik, 3-tom. - Toshkent: Fan, 1978, -B. 380.
36. O'zbek tilining izohli lug'ati, 2 tomlik, 1-2-tomlar. - Moskva: 1981.
37. Hamroev M. O'zbek tilidan ma`ruzalar majmuasi. - Toshkent: 2007, -B 143.
38. Ma`murov Z. M. O'zbek tilining izohli lug'ati. -Moskva: Rus tili, 1981.
39. Borodin E. I. 500 so'z siyosiy, iqtisodiy, va texnika terminlarining qisqacha lug'ati. - Toshkent: O'zbekiston. 1964.
40. Anushkin N. S. Qisqacha siyosiy lug'at. - Toshkent: O'zbekiston, 1975. -B. 312.
41. Usmonov O. Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug'ati. - Toshkent: FAN, 1976.
42. Do'stmuqammedov J. Inglizcha ijtimoiy-siyosiy va umumiy iqtisodiy tekstlar. - Toshkent: O'qituvchi, 1979.
43. Jalolov A., Honazarov Q. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. - Toshkent: Sharq, 1998. -B. 317.
44. Toshho'jaev A. Qarshiboev M. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar//qisqa izohli tajribaviy lug'at. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002, -B. 192.
45. Bektemirov H. Begmatov E. Mustaqillik davri atamalari. -Toshkent: FAN, 2002.
46. Abdullaev M. Abdullaeva M. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at // to'ldirilgan uchinchi nashri. - Toshkent: Sharq, 2006, -B.13.
47. Mustaqillik izoqli ilmiy-ommabop lug'at//ikkinchi nashri. - Toshkent: SHarq, 2000. -B. 320.
48. Qisqacha siyosiy lug'at//To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 1983. - B. 423.
49. Sirotina T. A. Bol'shoy sovremennyiy anglo-russkiy, russko-angliyskiy slovar`, -Doneck: 2003, -str. 564.
50. Jalolov A., Honazarov Q. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. - Toshkent: Sharq, 1998. - b. 317.
51. Jahon adabiyoti. -Toshkent: 1998, - b. 203.
52. Jumaniyozov Z. Ravshan dostoni nemischa tarjimasida milliylikni qayta yaratish. filol. fan. nom. ... avtoref. -Toshkent: 2008.

53. Jo'raev K. Tarjima san`ati - Toshkent: Fan, 1982. - b. 60.
54. Jo'raev N. va boshqalar. Prezident Islom Karimov asarlari bibliografiyasi. -Toshkent: Sharq, 2001. - b. 78.
55. Zokirov K. Jamolhonov H. O'zbek botanika terminologiyasi masalalari. -Toshkent: 1966. - b. 193.
56. Iqtisod va hayot, -Toshkent: 1997, -№7-8, - b. 28.
57. Inson baht uchun tug'iladi // O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning hikmatli so'zlaridan -Toshkent: Sharq, NMAK bosh tahririyati, 2001. - b. 128.
58. Islom Karimovning O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asari bo'yicha o'tkazilgan respublika ilmiy-uslubiy konferenciyasi materiallari. -Andijon: Hayot, 1998.- b. 207.
59. Imomnazarov M., Eshmuhammedova M. Milliy ma`naviyatimiz asoslari. - Toshkent, Toshkent islom universiteti, 2001, -B.51.
60. Isomiddinov Z. N. Turkiy emas va tarjima masalalari. - Toshkent: Universitet, 1995. - b. 118.
61. Qisqacha siyosiy lug'at//to'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 1983. - b. 423.
62. Komilov N. XIX asr tarjima tarihi // o'quv qo'llanma. -Toshkent: 1988, -80 b.
63. Qurbonov T. Publicisticheskiy stil` sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazyika. filol. fan. nom. diss. -Samarqand: 1987, -56 b.
64. Levitin L. Islom Karimov - yangi O'zbekiston prezidenti. -Toshkent: O'zbekiston, 1996, - b. 160.
65. Mallaev N. M. O'zbek adabiyoti tarihi. - Toshkent: O'qituvchi, 1-kitob, 3-nashri, 1976. - b. 662.
66. Ma`murov Z. M. O'zbek tilining izohli lug'ati. -Moskva: Rus tili, 1981.
67. Meliev S. Tarjima va falsafiy ma`no // Tarjima san`ati // maqolalar to'plami. -Toshkent: 1980, - b. 252.
68. Milliy istiqlol g'oyasi // Bibliografiya, 1-kitob, -Toshkent: 2001. - b. 31.
69. Milliy istiqlol g'oyasi//Annotatsiyali bibliografiya -Toshkent: 2001. - b. 91.
70. Musaev Q. Badiiy tarjima va nutq madaniyati. -Toshkent: O'qituvchi, 1976, - b. 160.
71. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at//ikkinchi nashri. - Toshkent: Sharq, 2000. - b. 320.
72. Ne`matova D. Cho'lpon publicistik asarlarining lingvistik tahlili. filol. fan. nom. ... diss. - Toshkent: 2004, - b. 145.
73. Omonov Bahtiyor Ahtamovich, Siyosiy etakchi nutq madaniyatining jamiyatni demokratlashtirish jarayonlariga ta`siri, siyos. fan. nom. ... diss. - Toshkent: 2004, - b. 148.
74. Popovich A. Problemyi hudojestvennogo perevoda. -Moskva, Vysshaya shkola, 1980, - str. 200.
75. Rashidova D. Filosofskaya terminologiya v proizvedeniyah K. Marksa i F. Engel'sa (na materiale russkih i uzbekskih perevodov ih rabot v aspekte sopostavleniya s nemeckim originalom). filol. fan. nom. ... diss. - Toshkent: 1972, - b. 146.
76. Recker YA. I. Teoriya perevoda i perevodcheskaya praktika. -Moskva, Mejdunarodnyie otnosheniya, 1974, - str. 216.
77. Saidov F. Matn va tarjima. filol. fan. nom. ... diss. -Toshkent: 1991, - b.110.
78. Saidov F. Tekst i perevod (problemyi literaturnogo janra i stilistiki). kand. fil. nom. ... aftoref. - Toshkent: 1991. - b. 23.
79. Salomov G', A`zamov S. Tarjima asoslari // o'quv qo'llanma - Toshkent: adabiyot va san`at nashriyoti, 1976. - b. 88.
80. Salomov G', Saidov F. Matn, tarjima va istiloh // Filologik tahlil. - Toshkent: 1989, - b. 88.
81. Salomov G'. va boshqalar, Tarjimon mahorati // Ilmiy ishlar to'plami -Toshkent: Fan, 1979. - b. 196.

82. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asolari -Toshkent: O'qituvchi, 1983.- b. 232.
83. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish // Universitetlarning filologiya, jurnalistika, roman-german filologiyasi fakul'tetlari studentlari uchun qo'llanma. - Toshkent: O'qituvchi, 1978. - b. 220.
84. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – T.: Adabiyot va san`at, 1983,- b. 192.
85. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. –T.: Adabiyot va san`at,1983. - b. 268.
86. Sirotina T. A. Bol`shoy sovremennyiy anglo-russkiy, russko-angliyskiy slovar`, -Doneck: 2003, - str. 564.
87. Sodiqov Z. Qutadg'u bilig tarjimalarining qiyosiy tipologik tahlili. Toshkent: -Fan, 2007, - str. 171.
88. Strelkovskiy G. M. Latyishev L. K. Nauchno-tehnicheskii perevod. -Moskva, Prosves`henie, 1980, - str. 176.
89. Sulaymonov B. Nofilologik o'quv yurtlarida talabalarga ijtimoiy-siyosiy atamalarni o'rgatish tajribasidan // Til va adabiyoti ta`limi -Toshkent: 2000, -№3. - b. 38.
90. Superanskaya A. V. Imya cherez veka i stranyi, -Moskva: Nauka, 1990, - str. 192.
91. Internet: <http://www.wikipedia.com/English/compounds/.htm>
92. Internet: <http://www.mpsttu.ru/works/english lexicology/ htm>
93. Internet:<http://www.yahoo.com/english/.htm>